ISSN 2181-9335



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

THE UNIVERSITY OF PUBLIC SAFETY
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JAMOAT XAVFSIZLIGI

ilmiy-amaliy jurnali

Scientific-practical journal of

PUBLIC SAFETY



2022, №2

Muassis:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

“JAMOAT XAVFSIZLIGI” ilmiy-amaliy jurnali harbiy, siyosiy, yuridik, tarix, texnika, filologiya, iqtisodiyot, pedagogika va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAKning 2021 yil 30 sentabr kunidagi 306/4-son qarori.

MUNDARIJA
CONTENTS

ILM-FAN VA INNOVATSIYA – JAMIYAT TARAQQIYOTI ASOSI
SCIENCE AND INNOVATION –BASIS OF DEVELOPMENT OF SOCIETY

DJURAYEV R.M.
Jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini yangicha yondashuvlar orqali rivojlantirish - davr talabi..... **5**

RUSTAMBAYEV M.X.
Huquqshunoslikka oid ilmiy-tadqiqot ishlarining innovatsion jozibadorligini oshirishning dolzarb muammolari..... **7**

MUXAMMADIYEV A.A.
Yuridik etiketning turlari va o‘ziga xos xususiyati..... **14**

USMONOV M.B.
Innovatsion hamkorlik va ilmiy tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbig‘i samaradorligi muammolari..... **18**

ТУРСУНОВА М.У.
Международный мониторинг и оценка качества образования..... **22**

AXMEDOV D.A.
Yo‘llarda inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash muammolari..... **28**

RASULMETOV M.N., KAZIMOV S.S.
Oliy harbiy ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilar bilimini nazorat qilishning maqsad va vazifalari.... **33**

XODIYEV R.X.

O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarini o‘qitish va tarbiyalash jarayonini optimizatsiyalashtirish..... **38**

RO‘ZIYEV R.D., MUXAMMADIYEV A.A.

Huquq sohasidagi dissertatsiyalarning sifati va samaradorligini oshirish – davr talabi..... **44**

ALIMOVA G.A.

Conceptual and terminological analysis of recreational and tourist activities..... **50**

МУРАКАЕВА З.И., МУРАКАЕВ И.И.

Дистанционное образование в Узбекистане: вчера и сегодня..... **60**

NURMATOV M.M., ELOV A.A.

Ekstremizm va terrorizm muammolarini ilmiy tadqiq etishda ilg‘or xorijiy tajribaning ayrim masalalari... **64**

URMONOV J.J.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda tadbirkorlikni rivojlantirish va qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish masalalari..... **69**

NASRIDDINOV D. K.

Fizika fanini o‘qitishda robototexnika elementlaridan foydalanish..... **79**

MIRZAJONOV G‘.T., USMANOVA X.U.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti kursant va tinglovchilarining ta’lim olishida mustaqil ta’limning o‘rni va ahamiyati..... **85**

ГРИБ Д.В.

Использование информационных технологий, как способ совершения хищений по законадательству Республики Беларусь и Российской Федерации..... **92**

ACHILOV F.B.

Obyektlarni qo‘riqlash tizimidagi muhandislik-texnik vositalarini nazorat qilish va baholash bo‘yicha metodikalarning eksperimantal ko‘rsatkichlari..... **96**

ASHUROV R.N.

Yetakchi davlatlar armiyalarida harbiy kadrlarni tayyorlash tizimining ilg‘or tajribasi va milliy amaliyot masalalari (AQSh va Buyuk Britaniya misolida)..... **104**

KARIMOV N.M.

Ziddiyatli vaziyatlar uchun jangovar taktikalar ishlab chiqishda Lanchester kvadratik qonunining ahamiyati..... **110**

IKRAMOV SH.R.

Bola huquqi ta’minlanishida oilaviy bolalar uyining o‘rni: muammo va yechimlar..... **119**

IKANOV A.A.

Suitsidal terrorizmga qarshi kurashishda zamonaviy usullardan foydalanish ("profayling texnologiyasi" misolida)..... **126**

РАШИДОВА М.Х.

Применение технологии скаффолдинг для повышения уровня владения английским языком курсантов высших военных учебных заведений **130**

BURXANOV T.M.

Bo'lajak ofitserlarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari..... **136**

БУЛЫЧЁВА М.Ф.

Образование на родине Роберта Бёрнса (Эдинбургский университет)..... **141**

NAMOZOVA D.B.

Developing cadets' English language phonetic competence via modern pedagogical technologies... **147**

JUMAYEV S.Q.

Antipirenlar samaradorligini tadqiq qilish..... **151**

BAXRIDDINOV A.O.

Profayling metodidan foydalanishda vujudga kelishi mumkin bo'lgan xatolar..... **159**

САРИМСОКОВА М.Р.

К проблеме обстоятельства времени и места в китайском языке в лингвистических исследованиях **164**

MUSAYEVA Sh.I.

Harbiy ta'lim muassasalarida kursantlarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini chet tili o'qitish orqali rivojlantirish..... **170**

XO'JAMBERDIYEV F.K., QILICHEV I.Y.

Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini huquqiy tartibga solishning ayrim masalalari..... **176**

БОЗОРОВ У.Т., ҲАЙДАРОВА Ш.А.

О зарубежном опыте по привлечению иностранных преподавателей (в сфере подготовки специалистов обеспечения безопасности выборов)..... **181**

OTAJONOV R.N.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya: mohiyati, mazmuni va xususiyatlari..... **189**

BEYSENOV U.B.

Kursantlarni kasbiy ongini shakllantirishda kasbiy ma'lumotlar asosiy manba sifatida..... **195**

ALIMARDONOVA M.B.

Ways to correctly evaluate graduate students' writing skills **199**

ATANIYAZOV J.K.

Jinoiy qilmish bo'yicha ish yuritishni rad etish yoki tugatishda jinoyat-protsessual qonunchilikning rahbariy prinsiplariga mosligi..... **206**

ABDULLAYEV A.I.

O'zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta'lim muassasalarida amaliy gimnastika mashg'ulotlarining tashkiliy-metodologik xususiyatlari **213**

ERGASHEV A.M., JAMOLIDDINOV S.J.

Zamonasining yetuk namoyondasi Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy merosi..... **218**

ALOYEV U.M.

Qonun hujjatlarining korrupsiyaga qarshi ta'sirini baholashda koreya tajribasining o'ziga xos jihatlari... **222**

ISAMUTDINOV R.R.

"Xavfsiz hudud"ni ta'minlash bo'yicha Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari tajribasi..... **225**

KURBANOVA M.A.

Use of interactive methods and their classification..... **230**

ISOQOVA M.Z.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda kombinatorika masalalarining o'rni..... **234**

Baxriddinov Azamat Ortiqmirzayevich,
"STARS" Xalqaro universiteti Talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i

PROFAYLING METODIDAN FOYDALANISHDA VUJUDGA KELISHI MUMKIN BO'LGAN XATOLAR

Insonning ichki holati, psixikasi doimo uning xatti-harakatlari, tana holati, mimikalari va ishoralarida aks etadi. Ammo ularni qo'llashda ehtiyot bo'lish kerak, chunki "inson haqidagi bilimlarni to'plab – hech qachon mukammallikka erishib bo'lmaydi, hatto o'ta tajribali insonlar ham xatolarga yo'l qo'ygan holatlari mavjud" [4].

Insonni atrofdagilar uni qanday idrok etayotganliklari haqidagi tasavvurlari ko'p jihatdan uning xatti-harakatlarini belgilaydi. Muloqot jarayonida suhbatdoshlarning har birida "u nimani o'ylayotgani haqida o'ylayotganim to'g'risida o'ylayapti, deb o'ylayman" singari tasavvur shakllanadi. Bunday ko'p qavatli tasavvurlar mazmunini noto'g'ri talqin etish vaziyatni yetarli darajada tushunmaslikka olib keladi va quyidagi jihatlarda yanada murakkablashadi [1].

Birinchidan, professional, etnik, yosh jihatlar asosida fikrlash, har bir katta yoshdagi inson (jumladan huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimi) "intuitiv psixolog"dir, ya'ni muayyan vaqt oralig'ida har birimizda odamlar tipologiyasi haqida o'z tushunchamiz (tasavvurimiz) shakllanadi. Bu esa atrofdagi odamlarni idrok etishda anglab bo'lmas yo'nalganlikning vujudga kelishiga ko'maklashadi.

Ikkinchidan, birinchi taassurot, masalan basavlatlik aldamchi bo'lishi, ya'ni oddiy niqob bo'lishi ham mumkin.

Uchinchidan, ko'ngilchanglik, yuz berayotgan voqeaga haddan tashqari ortiqcha ijobiy baho berishga moyillikda ko'rinadi.

To'rtinchidan, kuzatilayotgan jarayonlarni baholashda ahamiyatlisini qidirishda namoyon bo'ladi, ya'ni vaziyatni baholashda subyektiv fikr aks etishi mumkin.

Beshinchidan, suhbatdoshimizni o'zimizda mavjud bo'lgan jihatlar bilan ko'rish. Bu holat, ayniqsa o'ziga nisbatan tanqidiy qarashi kam bo'lgan, o'z shaxsini chuqur bilmaydigan odamlarda rivojlangan bo'ladi [2].

Profayling metodidan foydalanyotganda aksar profayler yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatolar mavjud. Ular quyidagicha ifodalanadi:

Birinchi xato – "Otello xatosi". Eri uni o'ldirishi mumkinligini anglagan holda Dezdemonaning qo'rquvi va ruhiy azoblarini noto'g'ri talqin etish asosida, Otello o'z xotinining bu hissiyotlarini yolg'on alomati deb hisoblashi. Yolg'onni fosh etishga urinayotgan inson haqiqatga ishonmaydi va **ishonmagani tufayli kelib chiqqan hissiy zo'riqish sabablarini e'tiborga olmaydi**. Masalan, insonning unga ishonmasliklari mumkinligidan xavotirlanishi, fosh bo'lishdan qo'rqishi sifatida noto'g'ri talqin etilishi mumkin. Ayrimlar o'zlarini nimadadir ayblanishi mumkin deb har safar kuchli aybdorlik hissini sezishlari, aybdorlik belgisi sifatida noto'g'ri talqin etilishi mumkin.

Boshqacha vaziyat ham bo'lishi mumkin: odamlar haqiqatni gapira turib yolg'on ayb qo'yayotgan shaxslarga nisbatan nafrat his qiladilar yoki, agar ayblovchining haq emasligini isbotlay olsalar, shodlikdan o'zlarini qo'yarga joy topmaydilar; yoxud aybsizligi isbotlanishi (oqlanishi)ni oldindan sezib, xursand bo'ladilar. Bu his-tuyg'ular aldashdan shodlanish belgilariga o'xshash alomatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Garchi sababi har xil bo'lsa-da, yolg'onchi ham, haqiqatni aytayotgan inson ham o'zini fosh etayotgan shaxsning gumonlari yoki savollaridan hayrat, g'azab, umidsizlik, dilsiyohlik yoki nafrat tuyishlari mumkin. [7]

Bunda his-tuyg'ularning har qanday ifodasi (ko'rinishi)ni ham yolg'onning dalolati sifatida tushunmaslik lozim. Haqiqatgo'y inson, unga ishonmasliklaridan qo'rqib, o'zini fosh bo'lishdan qo'rqayotgan yolg'onchi kabi tutishi mumkin.

Ikkinchi xato – "Individual xususiyatlarni inobatga olmaslik xatosi" – insonning imkoniyatidagi xulqida ko'rinadigan alohida farqlarni hisobga olmaslik oqibatida kelib chiqadi. Bunday xato tufayli haqiqatni – yolg'on, yolg'onni esa, aksincha, haqiqat deb qabul qilish mumkin.

Masalan, ko'pchilik yolg'on so'zlovchi shaxs suhbatdoshining ko'ziga tik qaray olmaydi, deb hisoblaydi. Holbuki, tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ko'z qarashlari yolg'onga aslo bog'liq emas. Masalan, muloqot vaqtida suhbatdoshining ko'ziga hech qachon qaramaydigan insonlar ham bor. Ularni yolg'onchi deb hisoblash noto'g'ri, chunki bu ularning me'yordagi suhbat uslubidir. Yuqorida so'z yuritilgan xatti-harakatlarga oid ko'plab misollarni keltirish mumkin: juda ko'pchilik odamlar so'zlaganda ko'p gapirishi natijasida, yanglish gapirib qo'yadilar, so'zlash jarayonida uzoq yoki qisqa tanaffuslar qiladilar. Odamlar qancha bo'lsa, xatti-harakat turlari ham shuncha bo'ladi, bunday farqlar esa haqiqat va yolg'onni anglashda xatolar keltirib chiqarishi mumkin [12].

Yolg'onligi aniq ko'rinib turgan aksariyat hollardagi ba'zi ko'rinishlar ayrimlar shaxslar uchun odatdagi xulqning tarkibiy qismi bo'lishi mumkin (Brokau qopqoni).

Uchinchi xato - har qanday axborot bizning tajribalarimiz asosida tanlab olinishi. Shaxsni kuzatuvchi shaxs subyektivlikka yo'l qo'ymaslik uchun faqat o'z tajribasini emas ilmiy tajribalarni ham hisobga olishi shart[9].

Biz ko'pincha eshitishni xohlagan narsamizni idrok etamiz va idrok etgan narsamizni o'zimiz istagandek talqin qilamiz.

To'rtinchi xato – o'z taassurotlarini nazorat qila olmaslik.

Insonning hissiy holatlarini, ulardagi o'zgarishlarni o'rganishdagi qiyinchiliklar ham alohida e'tiborga molik hisoblanadi. Hissiyotlarni anglash, tushunishda ayni vaziyat doirasida kuzatilayotgan shaxs va uning xulqiga oid barcha ma'lumotlardan foydalanish.

His-tuyg'ularni talqin qilish, tushunishda nafaqat muayyan jamiyatga, guruhga, etnosga xos xatti-harakatlarni ifodalashning umumiy me'yorlarini bilish, balki atrofdagi odamlarning o'ziga xos psixologik jihatlarini ham tahlil qilishni o'rganish va bunga tayyor bo'lishni ham talab etadi.

Atrofdagi odamlarning xatti-harakatlarini "tushunish" zarur bo'lganida, avvalo hammani juda yaxshi bilaman deb hisoblamaslik, balki avvalo o'z taassurotlarini nazorat qilish zarur [11].

Huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarining aksari, fuqarolarning xatti-harakatlarini tahlil qilish va hissiyotlarning o'ziga xos jihatlarini o'rganishni istamasliklarini va uni o'zlashtirishni xohlamasliklarini ta'kidlaydilar. Bu hol turli sabablar bilan bog'liq. Ba'zilar o'z shaxsiga haddan tashqari e'tibor qaratadilar, shu bois boshqalarning holatini sezish va to'g'ri baholashga qodir emaslar. Boshqalarda atrofdagilarga e'tiborsizlik uning o'zini ustun tutish hissiyoti bilan bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Yana boshqa shaxslarda his-tuyg'ular va xatti-harakatlar ma'nosini talqin qilishdagi qiyinchiliklar qo'rquv hissi bilan izohlanadi. Bu shaxs hissiyotlari bilan bog'liq ravishda o'zida salbiy hissiyotlar keltirib chiqarishi mumkin holatlardan qochishga undovchi xavotir ko'rinishida ham bo'lishi mumkin, buning oqibatida inson boshqalarning his-tuyg'ularini sezmaydi.

Haqiqiy his-tuyg'ularni tushunishda quyidagilarni bilish muhim hisoblanadi.

Suhbatlashilayotgan shaxsda tabiiy his-tuyg'ularni ifodalaydigan mimikaning barcha elementlari mavjudmi? Suhbatlashilayotgan shaxs yuzida soxtalik alomatlari yoki boshqa hissiyot belgilari (masalan, assimmetriya) bormi?

His-tuyg'ularni nafaqat tushunish, balki ifodalashning o'zi ham qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Shu bois tana tilini o'rganishni o'zlikni anglashdan boshlash zarur. O'z tanangiz reaksiyalarini va bunda siz sezadigan hislarni diqqat bilan kuzatishingiz kerak. Barcha holatlarni aniq tahlil qilish va so'z orqali tavsiflash kerak, ya'ni imkoni topilgan har vaqt hissiyotlarni verballashtirishni mashq qilish lozim.

Ayni vaqtning o‘zida o‘zingizni bilmay turib, inson haqidagi amaliy bilimlar egallashga harakat qilish foydasizdir [6].

Profayling metodi asosida shaxsning psixologik profilidagi xususiyatlarni hisobga olib umumiy bir profilni shakllantirishimiz mumkin. Lekin bu zamonaviy psixologiyaning skeptik tamoyiliga zid hisoblanadi. Shuning uchun ham hozirgi kunga qadar aniq bir shaxs tipidagi profil yaratilmagan. Biz profayling metodidan shaxsni ayni vaziyatdagi (masalan tergov, savol-javob, suhbat) holatini baholashda keng foydalanishimiz mumkin.

Bundan tashqari profayl metodidan shaxslarni muayyan axborotni atayin, jinoiy maqsadda buzishi, ya’ni verbal, noverbal xabarlarning vaziyat va holatga qanchalik muvofiqligini aniqlash maqsadida ham foydalaniladi [9].

Ushbu metoddan foydalanish nafaqat kuzatuvchanlik va diqqatni mashq qildirishda balki ruhiy kuzatish bo‘yicha barqaror ko‘nikmalarni hosil qilishni, balki kinestetika (tana tili haqidagi fan)ning asosiy qonunlarini tushunishni, suhbat olib borish san’atini egallashni, belgilangan obyekt hududida dastlabki ko‘rik yoki hujjatlarni tekshirish davomida yo‘lovchilarning xulqini samarali baholashga imkon beradigan bir qator usullarni egallashni nazarda tutadi [4].

Psixodiagnostika bu shaxsning psixologik holatini tashxislash bo‘lsa, uni ko‘rish orqali muayyan obrazni shakllantirish jarayoni vizual psixodiagnostika deyiladi.

Binobarin, vizual psixodiagnostika – insonni kuzatish, ko‘rib idrok etish asosida uning psixik holatini aniqlash. Boshqacha aytganda, psixologik axborotni qandaydir test yoki instrumental usullaridan foydalanmay turib o‘rganish. Kuzatuv usuli bilan psixik axborotni aniqlash, to‘plash uning xususiyatlarini bilish, anglash mumkin.

Eslatib o‘tamiz, kuzatuv – avvalo muayyan tarzda tashkil qilingan idrok jarayoni bo‘lib, u kuzatuvchi oldida turgan vazifa hamda ko‘rib chiqilayotgan hodisaning mohiyati bilan bog‘liq. Ya’ni kuzatuv aniq bir maqsadga qaratilgan faoliyat hisoblanadi.

Inson idroki juda muhim bir xususiyatga ega: “Inson tez almashuvchi ta’sirlarni hissiy tuyg‘ularning ketma-ketligi sifatida emas, balki umumlashma obraz sifatida qabul qiladi, va bizda bu inson haqida tasavvur hosil bo‘ladi.

Tasavvur, “bitta” bo‘lishiga qaramay, amalda bir-biriga qo‘shilgan va bir butunlikka birlashgan son-sanoqsiz juz’iy tasavvurlardan tashkil topgan bo‘ladi. Shunday qilib, shaxsga qaraganimizda ketma-ketlikda uning gavda tuzilishi, holati, mimikasi, isho-ralari va xatti-harakatlarini ma’nosini sezamiz, ushbu idrok etish jarayonini bir vaqtdagi idrok sifatida his qilamiz, chunki u juda tez o‘tib ketadi. Biror inson gapira boshlaganida, bizning obrazga, ya’ni bizning “bitta” tasavvurimizga yana ovoz intonatsiyasi, ohangi, til maromi, tovush kuchi, ehtimolli dialekt tusi va ko‘plab boshqa jihatlar qo‘shilib boradi [8].

Yuqorida aytib o‘tilganidek, muomala jarayonida axborot uzatilishi:

– verbal vositalar (faqat so‘zlar) evaziga – 7 % anglaniladi;

– tovush vositalari (ohang, tembr, ovoz intonatsiyasi va barcha nutqsiz tovushlar) evaziga – 38 % tushuniladi;

– noverbal vositalar (ishora, mimika, imo-ishoralar, pantomimika) evaziga – 55 % qabul qilinadi [10].

Ushbu asosda insonlar o‘rtasidagi muloqotning bir vaqtda amalga oshadigan ikki darajasi farqlanadi:

– **mazmun darajasi,** u so‘zlarda ifodalangan (verbal) axborotni, ya’ni gapiruvchi aytishni istagan narsani uzatadi;

– **munosabatlar darajasi,** u axborotni (noverbal) o‘xshatish orqali ya’ni bunda so‘zlovchining o‘zi aytayotgan so‘zlarga yoki eshituvchiga munosabati shaklida ifodalanadi.

Albatta, bunday nutqsiz xabarlarni tushunishga har kim ham qodir emas, chunki bunda ichki yo‘nalganlik xususiyatdan kelib chiqib, e’tibor aytilayotgan so‘zlarga qaratiladi. Bunday usuldan barcha mohir yolg‘onchilar samarali foydalanadilar, bunda ular nafaqat o‘z xatti-harakatlari yo‘nalishini, balki boshqa maqsaddagi nutqini ham puxta shakllantiradilar. Ko‘pchiligimiz esa

munosabatlar darajasidagi axborotlarni aynan o‘sha darajada idrok etish, tana harakatlarining ma’nosini tushunish, o‘rganish imkoniyatidan foydalanmaymiz. Demak, bizga eng ko‘p ma’lumot bera oladigan aksariyat axborotlar odatda e’tiborimizdan chetda qoladi. Ba’zan esa ayrim noverbal signallarni ongsiz, ichki sezgi (intuitsiya) yordamida sezamiz.

Intuitiv idrok, qimmatli, lekin har doim ham ishonchli bo‘lmaydi va asosiysi, uning natijalaridan biror ongli harakatni amalga oshirishda foydalanish qiyin. Ong so‘zda tasvirlashni (verballashtirishni) talab etadi. Binobarin, profayler avvalo ongli idrokni – noverbal signallarni so‘zda ifodalanadigan shaklga o‘girishni (hissiyotlarni so‘zda ifodalashni) mashq qilish zarur [5].

Bundan tashqari, kuzatuvchanlik, diqqat va xotirani mashq qildirish natijasida tana harakatlarini tushunish orqali ongsiz darajaga (ammo endi butunlay boshqa sifatda) o‘tadi. Bunda har qanday insonni bilishning to‘rt darajasida namoyon bo‘ladi:

- anglamay bilmaslik (inson nimanidir bilmasligini anglamaydi);
- anglab bilmaslik (inson qaysidir sohada bilim olishi zarurligini tushunadi);
- anglab bilish (inson kerakli sohasida bilimlarni egallagan);
- anglamay bilish (bilimlar qo‘llanilgan va muayyan bir sohada ishlash bo‘yicha barqaror ko‘nikmaga aylangan).

Katta tajribaga ega haydovchining avtomobilni boshqarishi anglamay bilishga misol bo‘la oladi: haydashni endi o‘rgangan odam, garchi avtomobil boshqarish va yo‘l harakati qoidalarini bilsa ham, yo‘lda duch kelgan va uni quvib o‘tayotgan har bir mashinadan xavfsiraydi. Tajribali haydovchi tezlik uzatmasini qanday almashtirishni o‘ylab o‘tirmaydi, sekinlashtirish va tezlashtirish jarayoni ham o‘z-o‘zidan (ongni faol ishlatmasdan) yuz beradi. Uning uchun avtomobil haydash – dam olish, yo‘ldagi mashinalar oqimi esa daryoning ohista oqishi. Biroq oz bo‘lsa-da, xavfli vaziyat yuz berishi ehtimoli paydo bo‘lgan zahoti uning ongi darhol va aniq chora ko‘radi. Odamlar ko‘p bo‘lgan jamoat joyini ham ushbu oqim kabi tasavvur qilish mumkin.

Profaylerlarning ham tajribasi oshgan sari, gaplashgan odami bilan o‘zi xohlamasa ham yolg‘on gapini sezib turadi, yoki tajribasi oshgan sari xodimlarda olomon orasida xatti-harakati xavotir tug‘diradigan muayyan shaxsni darhol “sezish” ko‘nikmasi hosil bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аминов И.И. Изучение психологии собеседника в деятельности сотрудников правоохранительных органов. - Ижевск, 1998. — С.56

2. Биркенбил В.Ф. Язык интонации, мимики, жестов. - СПб: Питер, 2001. — С.88

3. Большой толковый психологический словарь. - М.: Вече-Аст, 2001. — С.102

4. Грачев Г., Мельник И. Манипулирование личностью: Организация, способы и технологии информационно-психологического воздействия. - М.: ЭКСМО, 2003. — С.14

5. Исследуем ложь. Теории. Практика обнаружения / Под ред. М. Льюиса, К. Саарни. - М.: Олма-пресс, 2004. — С.124

6. Коледа С. Моделирование бессознательного. Практика НЛП в российском контексте. - М.: Ин-т Общегуманитарных Исследований, 2000. — С.66

7. Никифорова Г.С. Психологическое обеспечение профессиональной деятельности. С.П-г.,1991. — С.19

8. Павлова Е.Н. Динамика навыка произвольного выражения эмоций в условиях длительной изоляции. С.П-г.,2011. — С.204

9. Пиз. А. Язык телодвижений. - Эксмо-пресс, 2012. — С.229

10. Пол Экман, Уоллес Фризен. Перевод с англ. Узнай лжеца по выражению лица / Пер с англ. – СПБ.: Питер, 2019. — С.177

11. Пол Экман. Психология лжи. - СПБ.: Питер, 2013. — С.200
12. Фрейд З. Психопаталогии обыденной жизни. - М., 1985. — С.48

Baxriddinov A.O. Profayling metodidan foydalanishda vujudga kelishi mumkin bo'lgan xatolar

Mazkur maqolada profayling metodidan foydalanishda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolar va ularni oldini olish masalalari yoritilgan. Profayler tomonidan kuzatilyotgan shaxsda ko'rinishi mumkin bo'lgan psixologik xususiyatlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: profayling, profayler, vizual psixodiagnostika, verbal, noverbal, "Otello xatosi", individual xususiyatlar.

Бахриддинов А.О. Возникающие ошибки при использовании метода профилирования

В данной статье рассматриваются ошибки, которые можно допустить при использовании метода профилирования, и пути их предотвращения. Особое внимание уделено психологическим характеристикам, которые можно увидеть по профилю наблюдаемого человека.

Ключевые слова: профайлинг, профайлер, визуальная психодиагностика, вербальный, невербальный, «ошибка Отелло», индивидуальные особенности.

Baxriddinov A.O. Errors that can occur when using the profiling method

This article discusses the mistakes that can be made when using the profiling method and how to prevent them. Particular attention is paid to the psychological characteristics that can be seen in a person observed in the profile.

Key words: profiling, profiler, visual psychodiagnostics, verbal, noverbal, "Othello's mistake", individual features.

Саримсокова Мадина Рустамовна,
преподаватель кафедры "Китайской филологии"
Ташкентского государственного университета востоковедения

К ПРОБЛЕМЕ ОБСТОЯТЕЛЬСТВА ВРЕМЕНИ И МЕСТА В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ В ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

Проблема обстоятельства времени и места в китайском языкознании является недостаточно глубоко изученной проблемой. Актуальность вопроса заключается ещё в том, что понятие обстоятельства в китайской грамматике имеет не совсем чёткое определение и границы её различения от других членов предложения в китайском предложении. Это связано в основном с типологическими особенностями китайского слова, как в семантическом, так и в морфологическом отношении.

Настоящая статья включает в себя обзор подходов в исследованиях ряда ведущих синологов к вопросам выделения обстоятельства времени и места в китайском предложении. Как известно, обстоятельства времени и места в китайском языке могут выделяться по следующим принципам, в частности, по синтаксическому, семантическому и морфологическому принципам. Но в научных работах исследователей не существует единого мнения по поводу этого вопроса. Степень изученности данного вопроса позволит определить причины расхождения в критериях выделения обстоятельства времени и места.

Приведём различные точки зрения учёных в отношении принципов выделения обстоятельств времени и места в современном китайском языкознании.

Вопрос о частях речи в китайском языке не получил однозначного решения и это затрудняет решение вопроса о членах предложения.

Изучая труды ведущих китаистов, можно увидеть столкновение различных точек зрения и множество споров по поводу проблемы частей речи, членов предложения, а также их соотношении.

В статье А. Масперо "Китайский язык" [1] хотя и вопрос о членах предложений не затрагивается, однако его отношение к выделению частей речи в китайском языке может дать нам возможность прояснить его отношение и к членам предложения в китайском языке. Рассматривая проблемы частей речи, он сосредоточил свое внимание на вопросах их выделении. В связи с этим он считает, что китайские слова не могут относиться к какой-либо части речи, так как представляют собой нечто недифференцированное. Понятие частей речи он заменяет понятием "классы отношений" [2], которые прекращаются у него с делением предложения на "именные" и "глагольные". Под именными А. Масперо подразумевает простое положение его компонентов, "нулевое отношение", следовательно, по его мнению, именное предложение отличается от глагольного, для которого характерно определительное, детерминативное отношение между подлежащим и сказуемым.

Придерживаясь такого же мнения, профессор Б. Карлгрен в статье «New Studies on Chinese Bronzes» (*Bulletin of the Museum of Far Eastern Antiquities, 1937.*) полагал, что китайская грамматика весьма скудна и в основном сводится к правилам порядка слов в предложении и к функциям некоторого количества служебных слов. Таким образом, Б. Карлгрен в статье отмечает: «Поскольку китайскому языку не свойственно словоизменение, то это делает китайский язык до крайности сжатым и скудным» [3].

Однако Г. Габеленц в монографии «Anfangs gründe der chinesis chen Grammatik» так же, как и Н.И. Конрад считает, что в отличие от древнекитайского языка современный китайский язык не является аморфным. Исходя из этого, отвергая

идею Б. Карлгрена о скудности китайского языка, он защищал тезис о наличии в китайском языке частей речи. Г. Габеленц полагает, что слова по своему основному значению распадаются на определенные разряды слов, которые различаются также и по своему синтаксическому поведению. Он также выдвигает мнение о том, что слова вне контексте не принадлежат к какой-либо определенной части речи, а различаются лишь по своему основному значению, выражая различные предметы, качества, действия и т.д. [4] В предложении же слова выражаются той или иной частью речи, являясь либо существительными, либо прилагательными, либо глаголами и т.д.

Придерживаясь несколько иного мнения, И.М. Ошанин в своей научной диссертации "О частях речи в китайском языке" отрицает наличие в древнекитайском языке частей речи и полагает, что у односложного слова присутствует лишь понятийная окраска (предметность, действие, качество), считая возможным выделить в особую лексическую группировку лишь местоимения, которые, обладая супплетивными формами, составляют первую, чётко выделившуюся категорию частей речи [5]. И.М. Ошанин допускает наличие частей речи там, где имеется соответствующее морфологическое и синтаксическое оформление. Там же, где этого нет, он видит лишь недифференцированные части речи, различающиеся только по понятийным категориям и положению в предложении.

Однако Драгунов А.А. в статье "Части речи в китайском языке" считает, что в китайском языке можно относить слова к определенным частям речи. Развивая идеи Г. Габеленца о том, что части речи различаются на основе категориальной семантики, в настоящей статье А.А. Драгунов, в частности отмечает: "Категориальная семантика предметности может передаваться как конкретно, так и абстрактно. К её формальным признакам предметности относятся: невозможность самостоятельно выражать предикативность, требуется наличие связки; несоединимость с видовременными показателями и наречного типа словами, а также соединяемость с предлогами и послелогами".

Наряду с этим, он впервые в китаеведение внес своеобразную классификацию частей речи. При этом он делит их на [6]:

1. Имена (существительное, местоимение, числительное);
2. Предикативы (прилагательное, глагол);
3. Наречия.

К основным грамматическим признакам предикатов он относит возможность самостоятельно, без помощи связки выполнять функции сказуемого; непосредственная соединимость с отрицанием 不*bu* – не, а также модально-временной частицей 了*le*. При этом важно то, что числительные, входя в категорию имён, имеют ряд общих грамматических черт с существительными. Категории имени и предикатива соотнесены с категорией наречия. В отличие от других частей речи, наречия грамматически характеризуются некоторой ограниченностью своего синтаксического употребления.

На ряду с этим, выделяется ряд работ, в которых в основном рассматривается вопрос о членах предложения в китайском языке, в том числе обстоятельства времени и места. В этой связи следует упомянуть работы Чжан Юаньжэня, А.А. Каримова, Е.В.Шутовой и т.д.

Важное место в мировой китаистике принадлежит работе Чжан Юаньжэня "Грамматика разговорного китайского языка". [7] Отталкиваясь от традиционного представления о синтаксисе как учении об отношениях между словами, Чжан Юаньжэня дополняет его существенно важным для понимания этого уровня грамматики о том, что синтаксис включает в себя не только отношения между словами, но и отношения между сочетаниями слов. Он полагает, что синтаксические единицы, образуемые сочетанием тех или иных выражений, обра-

зуют конструкции. Синтаксис в понимании Чжао Юаньжэня – это некоторая система свойственных языку синтаксических конструкций, устанавливаемых на основе анализа предложения по непосредственно составляющим.

В целом, интерпретация Чжао Юаньжэнем китайского синтаксиса примыкает к тому направлению китайской лингвистической мысли, которое за основу установления синтаксических типов принимает порядок слов, а также случаев изменения порядка слов в предложении.

Проблемам синтаксиса китайского языка посвящена монография Е.И. Шутовой "Синтаксис современного китайского языка". В рассмотрении проблемы синтаксиса, автор акцентирует внимание на важном для него принципе. Для автора категория членов предложения не является первичной категорией синтаксиса. Первичной категорией синтаксиса является категория связи (отношения). Система членов предложения дана языку как производное от того расчленения, деления на виды, которое категория синтаксической связи получает в определенном языке на базе присущих последнему способов выражения синтаксической связи.

Следует также особо отметить статью А.А. Каримова "Относительно выражения исходной точки предлогами由*you*, 自*zi*, 打*da* в китайском языке [8]". В работе исследователя рассматриваются вопросы выражения исходной точки предлогами由 you,自zi, 打da, а также их применение для выражения времени и места. Хотя во многих учебных пособиях и научных работах как показатель исходной точки чаще всего выступает предлог 从*cong*. Каримов А.А., отходя от сложившегося правила, приводит несколько возможных вариантов предлогов, которые могут выступать в качестве показателя времени и места.

Наряду с вышеуказанными работами выделяются также труды ведущих китаистов, в которых части речи и члены предложения рассматриваются не в разрыве, а в соотношении. Среди них особо следует выделить труды Люй Шусяна, Ван Ляо-и, Люй Юэхуа, Горелова И.В., Янкивера С.Б., а также труды Короткова Н.Н., Рождественского Ю.В., Сердюченко Г.П., Солнцева В.М. и др.

Вслед за Ма Цзянчжуном в "Новой грамматике национального языка" Ли Цзиньси рассматривает части речи и члены предложения в целом, а не в разрыве друг от друга. Следовательно, в основу описания предложения он кладёт два ряда грамматических понятий: частей речи и членов предложения. При этом он выделяет следующие части речи: субстантивы (существительное, местоимение); предикативы (глагол, аналоги глаголов (是); прилагательное, выступающие в качестве сказуемого); определители (объединяющие прилагательное и наречие); релятивы (объединяющие предлоги и союзы (существительное +的+ существительное)); модальные слова (объединяющие модальные слова и междометия). Среди членов предложения он выделяет: главные члены предложения (подлежащее и сказуемое); сопутствующие члены предложения (дополнение и комплемент); Определяющие, распространяющие (адъективное определение и адвербиальное определение). Ли Цзиньси полагает, что между частями речи и членами предложения имеет место прямое соответствие: части речи устанавливаются по соотношению с членами предложения, содержание членов предложения базируется на реляционных значениях определенных частей речи.

Важным моментом в развитии представлений китайских учёных о понятии" член предложения" явилась книга Люй Шусяна "Очерк грамматики китайского языка". Люй Шусян с одной стороны продолжает традицию Ли Цзиньси касательно вопроса о частях речи и членов предложения, с другой - развивает новые идеи по поводу понятия член предложения. Если для Ли Цзиньси части речи и члены предложения- тождественные понятия, то Люй Шусян допускает возможность их несовпадения. Идеи Люй Шусяна

о принципиальной возможности несовпадения категорий реляционной семантики и категорий членов предложения и, в частности, о несовпадении категорий субъект, объект - с одной стороны, и категорий подлежащее, дополнение – с другой, стали импульсом к возникновению в китайском языкознании нового направления в трактовке понятия члена предложения, направления, которое условно можно назвать формальными и представители которого за основу выделения членов предложения принимают порядок слов, а возможные в предложении изменения словорасположения рассматривают как факт изменения его структуры. [9]

Этой же проблеме - проблеме соотношения членов предложения и реляционных значений слов посвящена другая важная работа Люй Шусяна – статья "Структура китайского предложения в аспекте разграничения подлежащего и дополнения". В ней для обозначения реляционной семантики существительного Люй Шусян вводит уже другие термины: субъект действия и объект действия, впоследствии широко вошедшие в работы китайских авторов.

В книге Ван Ляо-и "Основы китайской грамматики", которая является научным видением учёного теоретических основ китайской грамматики, приведены вопросы, касающиеся частей речи в соотношении с членами предложения в китайском языке. При этом автор выдвигает своё мнение о том, что в китайском языке всё же можно выделить части речи. Он делит части речи на "полные" и "пустые" [10]. В работе частично рассматриваются категории времени и места, выраженные существительным, которые он привязывает к лексической семантике. По мнению автора, для выражения места могут быть использованы: географические названия (中国，北京，上海); слова типа (地方，时间); названия частей света (东方，南方，北方). Он отмечает, что выделение членов предложения в китайском языке основано на синтаксических принципах. Он выделяет следующие члены предложения: подлежащее, сказуемое, определение, дополнение, обстоятельство и дополнительный член. При этом, под дополнительным членом он понимает такой компонент предложения, который выражает качество результата действия [11].

В брошюре Короткова Н.Н., Рождественского Ю.В., Сердюченко Г.П., Солнцева В.М. "Китайский язык" широко рассматривается вопрос о частях речи и членах предложения в целом. При этом они выдвигают мнение о том, что части речи в китайском языке, которые можно рассматривать как лексико-грамматические категории, не базируются на сопутствующих грамматических категориях. Последние выступают по отношению к первым как внешние признаки, возникшие в исторически доступное для наблюдения время. Как отмечают авторы, сопутствующие грамматические категории, поскольку они в языке существуют и связаны с определёнными частями речи, могут служить приметами частей речи в качестве вторичных признаков. По мнению учёных при классификации слов учёт их оказывается иногда не менее важным, чем учёт синтаксических свойств слов [12]. В настоящем очерке авторы ограничиваются описанием наиболее существенных черт частей речи. Рассматривая члены предложения, авторы дают следующее определение понятию членов предложения:

Члены предложения - одно из центральных вопросов синтаксиса, обозначающее грамматическую роль и место слова в предложении относительно других слов. При этом они выделяют следующие члены предложения: подлежащее, сказуемое, дополнение, определение, обстоятельство.

Рассматривая вопрос о частях речи и членов предложения, Горелов В.И. в "Грамматике китайского языка" приводит выделение частей речи на основе семантических принципов и даёт следующее определение частям речи. Части речи – это классы знаменательных слов, которые

имеют полное вещественное значение. Они обозначают предметы, их признаки, то есть присущие предметам действия, состояния, качества и свойства. [13] При этом Горелов В.И. отмечает, что части речи могут самостоятельно выполнять функции членов предложения: подлежащего, сказуемого, определения, дополнения, обстоятельства и т.д. В китайском языке части речи он делит на 2 класса: знаменательные и служебные. При этом он выделяет шесть подклассов знаменательных слов: существительное, прилагательное, числительное, местоимение, глагол, наречие, а также семь подклассов служебных слов: предлоги, послелоги, союзы, частицы и классификаторы. [14]

По мнению Горелова В.И. основанием при делении понятия "члены предложения" на соответствующие подклассы обычно служат смысловые и формальные признаки. Сущность членов предложения как синтаксических категорий определяется их функциями. Функции же членов предложения определяются отношениями, существующими между структурными элементами предложения. Значения отношений складываются на основе значений сочетающихся между собой слов, однако это обобщенные значения, грамматические значения членов предложения. Поэтому при выделении членов предложения важно учитывать значения отношений между структурными элементами предложения. Однако нельзя ограничиваться только этим моментом. Нужны также и собственно грамматические признаки.

Исходя из всего вышесказанного следует отметить, что при выделении частей речи и членов предложения в китайском языке, в первую очередь следует учитывать отнесенность китайского языка к определённому периоду его развития. Немаловажным фактором также является учёт как синтаксических, так и морфологических критериев, соотношение которых не всегда можно увидеть в работах многих учёных. При отнесении отдельных членов предложения к определённым классам слов (частям речи), часто возникают спорные моменты, которые нуждаются в правильном решении. Подобные споры возникли и среди учёных-китаистов различных периодов, что привело к массе противоречащих идей в изучении данной проблемы. Важно отметить, что в китайском языке части речи и члены предложения тесно взаимосвязаны между собой и не могут рассматриваться в отдельности. Именно в этой области проблемы учёными были допущены некоторые пробелы, которые следует дополнить. Рассматривая проблему частей речи и членов предложения в китайском языке, большинство учёных не достаточно широко рассматривали их в соотношении. В частности, вопрос об обстоятельстве времени и места в китаеведении всё же требует более подробного изучения исследователями.

Использованная литература

1. Масперо А. Китайский язык. –Париж, 1934. С.35
2. МаспероГ. Китайский язык. –Париж, 1939.
3. Карлгрен Б. Китайский язык. –Нью-Йорк, 1949.
4. Габеленц Г. Chinesische Grammatik. –Leibzig, 1883.
5. Ошанин И.М. Аннотация к диссертации О частях речи в китайском языке,-М 1947.
6. Драгунов А.А. Исследования по грамматике китайского языка. -М-Л., 1952.
7. ЧжаоЮаньчжэнь. Грамматика разговорного китайского языка. -Чжао, 1968.
8. Каримова А.А. Относительно выражения исходной точки предлогами由*you*,自*zi*, 打*da* в китайском языке. -Ташкент, 2016
9. Люй Шусян. Очерк грамматики китайского языка. - Люй, 1953.

10. При делении частей речи на “полные” и “пустые”, под полными Ван Ляо-И понимает знаменательные слова, под пустыми – служебные слова.

11. Ван Ляо-И. Основы китайской грамматики. –Пекин, 1954.

12. Короткова Н.Н., Рождественского Ю.В., Сердюченко Г.П., Солнцева В.М. Китайский язык. -Москва, 1961.

13. Горелов В.И. в учебной монографии Грамматика китайского языка. -Москва, 1974.

14. В противовес мнению Горелова В.И. об отнесении классификаторов к служебным словам, Каримов А.А. в своей научной монографии Счётные слова в китайском языке приводит иное мнение о классификаторах, относя их в класс знаменательных слов. (Каримов А.А. Счётные слова в китайском языке. –М, 1991)

Саримсокова М.Р. К проблеме обстоятельства времени и места в китайском языке в лингвистических исследованиях

Данная статья посвящена краткому обзору научных исследований по вопросу обстоятельств времени и места в китайском языке. В работе приведены различные идеи и представления учёных по отношению к обстоятельствам времени и места в грамматике, исходя из типологических особенностей китайского языка; рассмотрены различия и точки соприкосновения между ними. В статье представлены взгляды некоторых учёных к проблеме соотношения трёх языковых уровней в рассмотрении объекта исследования. Анализа степени изученности проблемы послужило толчком выявлению новых, мало изученных к настоящему времени исследователями аспектов рассматриваемого вопроса.

Ключевые слова: китайский язык, обстоятельство времени и места, языковые уровни, семантика, морфология, синтаксис. лексическая единица, соотношение, лингвистический аспект.

Sarimsokova M.R. Tilshunoslikda xitoy tilidagi vaqt va makon holatlari muammoasiga oid

Ushbu maqolada xitoy tilidagi payt va o‘rin-joy hollari ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning qisqacha tavsifi berilgan. Maqolada xitoy tilining tipologik xususiyatlaridan kelib chiqib, grammatikadagi payt va va o‘rin-joy hollari bilan bog‘liq holda olimlarning turli fikrlari keltirilgan; ular orasidagi farqlar va o‘xshash jihatlari ko‘rib chiqilgan. Maqolada tadqiqot obektini o‘rganishda tilning uch darajasining o‘rni haqida olimlarning qarashlari keltirilgan. Obyektni o‘rganish darajasining tahlili masalaning yangi, tadqiqotchilar tomonidan kam o‘rganilgan aspektlarini aniqlashga turtki bo‘ldi.

Kalit so‘zlar: xitoy tili, payt va o‘rin-joy hollari, til darajalari, semantika, morfologiya, sintaksis. leksik birlik, nisbat, lingvistik jihat.

Sarimsokova M.R. To the problem of the circumstances of time and place in the Chinese language in lingiustic studies

Current article is devoted to a brief overview of scientific research of the adverbial adjuncts of time and place in the Chinese language. The work presents various ideas and representations of scientists about the adverbial adjuncts of time and place in grammar, based on the typological features of the Chinese language, there are also considered the differences and points of contact between them. The article presents the views of some scientists to the problem of three language levels in considering the object of research. The analysis of the scientific works leads the necessity of identification of new, less-studied aspects of the issue.

Key words: Chinese language, adverbial adjunct of time and place, language levels, semantics, morphology, syntax. lexical unit, reference, linguistic aspect.

Musayeva Shahzoda Ibrohimovna,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
"Tillarni o'rganish" kafedrasi o'qituvchisi

HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA KURSANTLARNING MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASINI CHET TILI O'QITISH ORQALI RIVOJLANTIRISH

Bugungi kunda yangilanib borayotgan pedagogik amaliyot til o'rganuvchilarning ichki motivatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, o'quv jarayoni negizida kursantning mustaqil, tashabbusli, motivatsiyaga asoslangan qarashlari yotadi.

Bu haqda Prezidentimizning 2019 yil 14 yanvardagi harbiy xizmatchilarga bayram tabrigida ham alohida ta'kidlab o'tilgan. "Harbiy xizmatchilar, jamoatchiligimiz va chet ellik hamkorlarimiz o'rtasida mudofaa siyosatimizning asosiy prinsiplarini tushuntirish bo'yicha keng ko'lamli ishlarni tashkil etishi lozim. Bu borada mazkur siyosatning ochiqligi hamda xavfsizlik va mudofaa sohasida boshqa xorijiy mamlakatlar bilan amaliy munosabatlarni rivojlantirish biz uchun ustivor ahamiyatga ega ekaniga e'tibor qaratish darkor" [1]. Bundan ko'rinib turibdiki, xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikning rivojlanishi harbiy xizmatchilar uchun xorijiy tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishni va majburiyatni yanada o'sishiga olib keladi. Bu esa biz xorijiy til o'qituvchilaridan bo'lajak ofitserlarimiz, ya'ni kursantlarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini yanada rivojlantirib borishni talab etadi.

Kursantlarga xorijiy tillarni o'rgatish jarayonida ularda tilni rivojlantirish uchun eng yaxshi imkoniyatlarni yaratish maqsadida barcha resurslardan to'la foydalaniladi, kursant umumiy rivojlanishining emotsional, ijodiy, ijtimoiy, kognitiv va lingvistik o'lchov birliklari shular jumlasiga kiradi. Madaniyatlararo muloqot qilish kompetentsiyasi ham asosiy tayanch kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Madaniyatlararo muloqot qilishga qiziqadigan va ochiqko'ngilli kursant keyinchalik madaniyatlararo muloqotga qodir insonga aylanadi, zero bugungi kun chet tili mashg'ulotlarining e'tirof etilgan maqsadi ham shudir.

Kursantning xorijiy tillarni bilish kompetentsiyasi til sohiblarining ona tilini bilish kompetentsiyasi bilan o'lchanmay, aksincha madaniyatlararo muloqotning ko'p qirrali vazifalarini uddalay olish qobiliyati bilan ham belgilanmoqda. Kursantlar madaniyatlararo muloqotga qodir insonga xos ochiqlik va bag'rikenglik ruhida shakllanish darajasida rag'batlantirilishi hamda ular uchun mo'ljallangan chet tili darslarida mazkur xususiyatlarni rivojlantira oladigan mazmundagi mavzular tavsiya qilinishi lozim. Chet tili bilan kursantlar maktab, kollejlarda tanishishgan lekin ular aynan harbiy atamalar bilan harbiy bilim yurtida tanishishi ularda tillarga nisbatan qiziqish uyg'otishi, til o'rganishga bo'lgan havasni rivojlantirishi hamda ularni o'z tilidan boshqa yana bir tilda gaplasha olishga ruhlantirishi, boshqa davlatlarning harbiy xizmatchilari bilan erkin muloqot o'rnata olishi yoki bo'lmasa o'z fikrini bayon eta olishiga o'zida ishonch topa olishi lozim.

Xorijiy tillarni o'rganish aynan harbiy atamalarni o'rganish boshlangan hollarda bir tomondan til bilish kompetentsiyalarini rivojlantirilishga alohida e'tibor qaratilishi, ikkinchi tomondan esa umumiy, madaniyatlararo muloqot qilish hamda o'quv strategiyalari bo'yicha qobiliyatni shakllantirish lozim deb o'ylaymiz.

Kursantlarda xorijiy tillarni o'rganish jarayonida madaniyatlararo muloqot kompetentsiyasini rivojlantirish bir

tomondan boshqa davlatlar bilan bo'ladigan ijtimoiy-madaniy munosabatlarning tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy jihatlarini, boshqa tomondan esa chet tili orqali o'zaro tushunishning kommunikativ jihatlarini o'z ichiga oladi. Hatto ularda ham ma'lum bir maqsad bilan tanlab olingan o'quv materiali mazmuni va o'quv faolliklari orqali ularning madaniyatlararo masalalarga qiziqishini uyg'otishi mumkin va bu maqsadga muvofiqdir, masalan, uni quyidagilar orqali amalga oshirish mumkin:

tili o'rganilayotgan mamlakatning madaniyat to'g'risidagi bilimlarni beruvchi mamlakatshunoslikka oid o'quv mazmuni (masalan, bayram va urf-odatlarga oid bilimlar)

"o'zga" madaniyat va o'z madaniyatiga oid qiyosiy materiallar; ular orqali kursantlarning idrok etishi kuchaytiriladi (masalan, harbiylarning kundalik hayotidan olingan mavzular, madaniyat va san'at).

O'zga madaniyat sohiblariga nisbatan empatiya tuyg'usini rivojlantiruvchi materiallar

hayotiy voqeiliklar (rolli o'yinlari). Ular orqali madaniyatlararo vaziyatda o'zini tutish qobiliyati mashq qilinadi. [2]

Kursantlar o'zga madaniyatni chet tilida ifodalangan rasmlar, matnlar, audio va video yozuvlar yoki virtual imkoniyatlar orqali tasavvur etgan holda o'rganishlari ham mumkin. O'zga madaniyat to'g'risida axborotni qabul qilish jarayonida birvarakayiga tanish ma'lumotni qabul qilish asosiy rol o'ynaydi, chunki ta'limning maqsadi yangi ma'lumot va taassurotlarni tanish bo'lgan ma'lumotga tayanib, bir-biri bilan bog'lab o'rganish orqali bilimlarni o'stirishdan iborat.

Mazmun va metodlar shunday tanlanishi lozimki, kursant o'zidagi yangiliklarni o'rganishga bo'lgan tabiatan qiziqishini saqlab qolishi va yanada kuchaytirishi hamda o'quv jarayonida o'zini va o'zga xalqni idrok etish qobiliyatini rivojlantirishi lozim.

O'quv materiallari shunday tanlanishi kerakki, kursant quyidagilarni bajarish imkoniga ega bo'lishi lozim:

tanish narsalarda yot jihatlarni, notanish narsalarda esa tanish jihatlarni kashf etishi,

o'zga narsani o'zga narsa sifatida tan olishi;

o'zga madaniyat bilan uchrashganda yuzaga keladigan ishonchsizlik va hadiksirashni boshqara olishni o'rganishi. [3]

Kursantlarda bu yoshda egallashi lozim bo'lgan til kompetensiyalari to'g'risida davlat ta'lim standartlariga tayangan holda b1 darajada belgilashimiz mumkin[4], lekin biz buni boshqa oliy ta'lim muasasasalari talabalari bilan qiyoslaydigan bo'lsak, bu biroz mantiqqa to'g'ri kelishi qiyin, chunki bitta guruhdagi kursantlarning bilim darajalari turlicha, bu esa albatta ta'lim berayotgan o'qituvchiga biroz mukammallik keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, ularning imkoniyatlari boshqa ta'lim muasasasalari talabalarinikiga qaraganda biroz cheklangan deb ayta olamiz. Bu aynan nimani ko'rsatadi, avvalom bor ularda o'quv dasturida belgilangan soatlarini qayta ko'rib chiqish va ko'paytirish va shunga mos keladigan darsliklar yaratish lozim. Kursantlarda boshqa talabalarga qaraganda ancha cheklangan imkoniyatlarni yaxshilashga e'tibor qaratilishi lozim.

Biroq ular muayyan sharoitlarda xorijiy til talaffuzini yaxshi egallash qobiliyatiga ega bo'lishi to'g'risidagi ma'lumot bundan mustasnodir. Bunda shuni inobatga olish kerakki, til o'rganish jarayonida ularda til bilimlari bo'yicha kompetensiyalar til ko'nikmalarining har bir sohasiga har bir kursantda turlicha rivojlangan bo'ladi. Bu ularda chet tili o'rganishning asosiy yo'nalishi, ya'ni darslarda, ayniqsa darsning asosiy qismlari tinglab tushunish va gapirish ustida ishlash bilan bog'liq bo'lishi kerak. Ularda tinglash,

tinglab tushunish, hamda umumiy tushunish kabi retseptiv ko'nikmalar birinchi o'rinda turishi kerak. Qolgan qismlarida esa ko'proq produktiv va interfaol strategiyalar, ko'nikma va interfaol harakatlar(gapirish, yozish, og'zaki interfaol muloqot) bular qatoriga qo'shiladi.

Kursant yoshlikdan, ya'ni maktabdan xorijiy tilni o'rganishni boshlagan bo'lishidan qat'iy nazar har bir kursantga til impulslarini qabul qilish uchun vaqt berilishi lozim, ya'ni uni gapirishga majburlamaslik yoki gapirishga uringanida xatolarini noo'rin tuzatmaslik kerak.

Kursantning talaffuz sohasidagi o'zgacha qobiliyati maqsadli va muntazam ravishda, ayniqsa original tildagi materiallarni tinglash orqali rivojlantirilishi lozim.

Chet tilida yozishni u maktab davridan o'rgangan ammo ayrim kursantlarda bu yaxshi rivojlanmagan bo'lishi mumkin, ayniqsa harbiy atamalar ularga butunlay yot bo'lishi mumkin shuning uchun bu jarayon ham juda ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi lozim.

Xorijiy til kompetensiyalarini rivojlantirish uchun beriladigan bilimlar mazmuni, til va uslubiy jihatlaridan ularning muloqot qilish ehtiyojlariga yo'naltirilishi lozim.

Shunday qilib, chet til bilan tanishish, uni o'zlashtirish va o'rganish jarayonida inson boshqa milliy madaniyatga kirib boradi va o'rganayotgan tilda saqlanayotgan katta ma'naviy boylikni ham o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Kursantlar ingliz tilini o'zlashtirar ekanlar Angliya va Amerika milliy madaniyati va tarixi hamda harbiy faoliyati bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Demak, ijtimoiy-madaniy hodisalarni tilga bog'liq holda kompleks ravishda o'rganish va qo'llash zaruriyati til ta'limining bugungi kundagi muhim amaliy ahamiyatga ega jihatlaridan biriga aylandi. Chet tillarni o'rganish jarayonida kursantlarda mas'uliyat hissi, yuksak ahloq va poklik, Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy merosni e'zozlash kabi xislatlarni o'zlarida mujassamlashtirilishi lozim. Xorijlik fuqarolar bilan har qanday muloqot jarayonida bizning mutaxassislarimiz o'zlarini mustaqil O'zbekiston Respublikasining fuqarosi sifatida namoyon qilishlari kerak. Buning uchun ular respublikaning siyosiy tizimi, ichki va tashqi siyosatini yaxshi bilishlari va bular haqida xorijlik suhbatdoshiga chet tilida so'zlab bera olishlari lozim. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasida ham alohida, ya'ni "Xalqaro harbiy va harbiy-texnikaviy hamkorlik Qurolli Kuchlarni qurol-yarog', harbiy va maxsus texnikaning eng yangi hamda istiqbolli namunalari bilan ta'minlash, ularni modernizatsiya qilish, ta'mirlash va utilizatsiya qilish bo'yicha vazifalarni hal etish, qo'shma loyihalarni amalga oshirish, mudofaa sanoati kompleksiga chet el investitsiyalari hamda texnologiyalarini jalb etish, shuningdek harbiy, harbiy-texnik kadrlar va mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish zaruriyatiga muvofiq tashkil etiladi hamda amalga oshiriladi" deb ta'kidlab o'tilgan. [5] Bundan kelib chiqqan holda shuni aytib o'tishimiz mumkinki, biz ta'lim berayotgan kursantlar kelajakda yuqorida ta'kidlanganidek halqaro maydonda o'zbek xalqining yetuk malakali kadrlaridan biri ekanligini namoyish eta olishi darkor.

Shundan kelib chiqqan holda, kursantlarga chet tillarni o'qitishdan ko'zlanadigan maqsadlar:

- o'z mamlakati ijtimoiy-iqtisodiy, maishiy, siyosiy mavzulariga oid ma'lumotlarni bilishi;
- chet tilda o'z madaniyati, qadriyatlari, urf-odatlari va h.k. haqida bemalol ma'lumot bera olishi;
- tili o'rganilayotgan mamlakat ijtimoiy-madaniy ma'lumotlarini bilishi;

kursantlarda ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirish va kasbiy faoliyatda ularni qo‘llash malakalarini shakllantirishdan iborat.

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini multimediaviy vositalar yordamida ham rivojlantirish kursantlarda ko‘p madaniyatli dunyoda hamkorlik qilishga tayyorlik va buni uddalay bilishni taxmin qiladi. Ingliz tilida gaplashuvchi mamlakatlar va jonajon mamlakatining madaniyatini o‘rganish madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda ulkan ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan lingvomamlakatshunoslik yo‘nalishidagi taqdimotlar blokida matn va illyustratsiyalar ko‘rinishidagi axborotni tanlab olish, uni bayon etishda izchillikka rioya qilish, materialni estetik bezashga alohida e’tibor qaratiladi.

Materialni bunday tuzish kursantlarga nafaqat AQSh va Buyuk Britaniyaning tarixiy rivojlanishiga oid turli davrlarda sodir bo‘lgan voqealar va odamlar to‘g‘risida ko‘rgazmali tasavvurga ega bo‘lish, bu mamlakatlar madaniyatini tushunish, balki mashg‘ulotlarda shakllantirilgan ijtimoiy-madaniy muhitga sho‘ng‘ish imkoniyatini beradi.

Bizning fikrimizcha, ingliz tili mashg‘ulotlarining ayrim mavzularini o‘rganishda multimedia vositalarini o‘qitish jarayoniga joriy etish mahalliy ko‘lamda chet tilidagi axborotni o‘zlashtirishning samarali vositasi hisoblanadi va ilova bilan ishlash ko‘nikmasi hamda malakasini shakllantiradi. Bu esa kursantlarning kelgusi professional faoliyatida muhim ko‘nikma hisoblanadi.

Xorijiy tilni o‘rganuvchilardan ko‘proq o‘sha til vakillari bilan muloqotga kirishishni ingliz tilida to‘liq suhbatlashish talab etiladi. Shuning uchun, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi ingliz tilini o‘qitishda yanada ko‘proq, yanada muhimroq bo‘lib qoldi. Biz bilamizki lingvistik kompetensiya va madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi o‘rtasida doimiy uzviy bog‘lanish bor va bu munosabatni biz mashg‘ulot davomida qanday qilib kursantlarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini o‘stirishda xorijiy tilni o‘qitishning vazifalari haqida muhokama qilishga harakat qilamiz. Quyida biz ingliz tilini o‘qitishda kursantlarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini qanday qilib xorijiy til orqali rivojlantirishni ko‘rib chiqamiz.

Hozirgi vaqtda, turli madaniyatlardagi insonlar bilan aloqa va munosabatga kirishish boshqa millat vakillari va ularning hayot tarzi haqida ko‘proq o‘rganishga muhim bir yo‘l va bu o‘z ichiga qadriyatlar, tarix, urf-odatlar va hatto ularning o‘ziga xos bo‘lgan mazmun-mohiyat(qadr-qimmat)ni ham o‘z ichiga oladi. Shuning uchun xorijiy tilni o‘qitishning asosiy maqsadlaridan biri kursantlarning muloqot kompetensiyasi malakalarini o‘stirish bo‘lishi kerak, qaysiki bu o‘z ichiga faqatgina lingvistik kompetensiyani emas, balki o‘zida madaniyatlar kesishmasidagi muloqotga yordam beradigan va osonlashtiradigan madaniyatlararo kompetensiyani ham o‘z ichiga oladi. Ya’ni madaniyatlararo muloqotdagi bilimlar muloqotdagi muommolarni ular ko‘tarilishidan oldin hal etishga yordam beradi. Boshqa madaniyatlar bilan rivojlantirilgan munosabat zamoniy dunyoda uni qat’iy tushunishni va bizdan judayam farq qiladigan odamlar bilan aloqada bo‘lishni ta’minlaydi. Biz bilan qarashlari, ishonchlari, qadriyatlari, urf-odatlari va hayot tarzi boshqa bo‘lgan madaniyat vakillarini tushunish va ularga qiziqishni o‘sishi, bir vaqtning o‘zida ular haqidagi kompetensiyamizning oshishi va halqaro kelishmovchiliklarni oldini olishga yordam beradi.

Kursantlarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini o‘stirishda xorijiy tilni o‘qitishning o‘ziga xos bir qancha vazifalari bor. Yuqoridagi lingvistik va madaniyatlararo kompetensiya o‘rtasidagi

bog‘liklikni tahliliga ko‘ra, bizdan xorijiy til o‘qitishni xorijiy til o‘qituvchisi sifatida nafaqat kursantlarning lingvistik kompetensiyasini, balki xorijiy tilda gaplashadigan mamlakatlarning madaniyatini, urf-odatlarini o‘rgatishni takomillashtirishni talab qiladi. Bundan tashqari, tilshunoslik ko‘nikmalarini rivojlantirishda va kursantlarga o‘zlarining fikrlarini kengaytirishda xorijiy madaniy mohiyatni o‘ziga jalb qilishda va kursantlarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi.

Kursantlarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini o‘stirish uchun muhim yo‘nalish bu xorijiy tilni o‘qitishdir. Albatta buni faqatgina til vakili bilan muloqotga kirishib amalga oshirish shart emas, birinchi navbatda, buni xorijiy tilni o‘qitish jarayonida kursantlarga mashg‘ulot jarayonini xorijiy til vakili tomonidan yozilgan audio yoki video yozuvlardan foydalangan holda tashkil etish, bu video-audio yozuvlarda materiallar shu millat vakillarining tarix, madaniyat, urf-odat va an’analari bilan bir qatorda harbiy sohaga oid mavzularni aks ettirgan bo‘lsa yanada maqsadga muvofiq bo‘ladi, chunki xorijiy tilda so‘zlashadigan mamlakatlardagi madaniyatlar kursantlarning xorijiy tildagi o‘quv materiallari, mashg‘ulotlari va xorijiy tilda so‘zlashadigan mamlakatlarning muloqot shakllari orqali kursantlar bilimiga olib kiriladi.

Xorijiy tilni o‘qitish va o‘rganish jarayoni ma’lum darajada kursantlarning birinchi(ona tili) til bilimi bilan ularning ikkinchi(xorijiy til)bilimi o‘rtasida madaniaytlararo muloqot jarayoni sodir bo‘ladi. Jarayon davomida xorijiy til o‘qituvchilari va kursantlar o‘z tillari va xorijiy til madaniyati o‘rtasida madaniy identifikatsiyani aniqlash yoki qayta tiklash bo‘yicha muzokaralar olib boradilar. Xorijiy tilni o‘qitish jarayonida kursantlarni madaniyatlararo munosabatga kirishishida noyob va muhim o‘zgarishlarni taklif etadi va shuningdek, ularning shaxsiy rivojlanishini(o‘sishini) madaniyatlararo insonga aylanishiga imkon beradi.[6] Umuman, xorijiy tilni o‘qitish kursantlarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish uchun eng samarali vosita hisoblanadi. Xususan, ingliz tili halqaro tilga aylanib, butun dunyoda madaniyatlararo muloqot qilish uchun keng tarqalgan. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni aytishimiz mumkinki, xorijiy tilni o‘qitish muhim vazifa sifatida tan olingan va kursantlarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Xorijiy tilni o‘qitish orqali kursantlarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha bir qancha takliflarni ko‘rib chiqishni tavsiya etamiz.

Mamlakatimizdagi turli xil xarbiy ta’lim muassasalarda xorijiy tilni o‘qitishdagi namunaviy va ishchi dasturlarni qayta ko‘rib chiqish va ularga o‘zgartirish kiritilishi kerak degan fikrni ilgari surmoqdamiz, bundan tashqari yana ko‘proq o‘rganilayotgan tilga oid bo‘lgan materiallardan foydalanish tavsiya etiladi, shunda kursantlar ingliz tilini o‘rganish bilan birga madaniyatlararo muloqotda zarur bo‘lgan asosiy bilim va ko‘nikmalarga ham ega bo‘lishlari mumkin. Hozirgi kunda ingliz tili halqaro aloqalar, biznes va boshqa sohalar uchun halqaro til va madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida qaraladi. Ya’ni ingliz tili o‘qituvchilari ingliz tili o‘qitishning yangi maqsadlarini, yangi namunaviy va o‘quv dasturlari orqali o‘z bilimlarini va kursantlarning kelajakda dunyodagi globallashuvning turli xil muhitlari uchun madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga ko‘proq e’tibor berishlari kerak deb o‘ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tashkil etilganining 25 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigi// Postda, 2017 yil 14 yanvar
2. Wong R. Competency-Based English Teaching and Learning: Investigating Pre-Service Teachers of Chinese's Learning Experience // Porta Linguarum. 2008. № 9. P. 179-198.
3. Song, Li. (2009). Teaching English as intercultural Education Challenges of Intercultural Communication". Intercultural Communication Research.
4. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti "Ingliz tili" fan dasturi, 2019.
5. O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi. - T.: Harbiy nashriyot, 2018.
6. Swiderski R.M. Teaching language, learning culture. - London: Bergin and Garvey, 1993. -233 p.

Musayeva Sh.I. Harbiy ta'lim muassasalarida kursantlarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini chet tili o'qitish orqali rivojlantirish

Maqolada bugungi kunda harbiy ta'lim muassasalarida chet tili o'qitishning o'ziga xos tomonlari va qanday qilib chet tili darslarini madaniyatlararo muloqotga asoslangan holda tashkil etilishi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, lingvistik kompetensiya, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi, xorijiy tillarni o'rganish, harbiy.

Мусаева Ш.И. Развитие навыков межкультурного общения курсантов военно-учебных заведений в процессе обучения иностранному языку.

В статье рассмотрены особенности преподавания и современные способы организации занятий по иностранному языку в военных учебных заведениях на основе межкультурного общения

Ключевые слова: компетенция, лингвистическая компетенция, межкультурная компетенция общения, изучение иностранных языков, военное учебное заведение.

Musaeva Sh.I. To develop students' intercultural communication skills in military educational institutions through foreign language teaching

The article highlights the peculiarities of teaching foreign languages in military education today and how to organize foreign language classes based on intercultural communication.

Key words: competence, linguistic competence, intercultural communication competence, learning foreign languages, military.

Xo'jamberdiyev Farrux Komilovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Tahririyat-noshirlik bo'limi katta ofitseri, mustaqil izlanuvchi;
Qilichev Islombek Yoqubovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Moliya bo'limi boshlig'i

MILLIY GVARDIYANING JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH FAOLIYATINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING AYRIM MASALALARI

Tarixiy qisqa vaqt mobaynida O'zbekistonda jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlashga, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularning qonuniy manfaatlarini poymol etilishini oldini olishga qaratilgan zarur normativ-huquqiy baza yaratildi. Jumladan, 1990 yil 20 iyunda O'zbekistonda "Mustaqillik deklaratsiya"sining qabul qilinishi o'z hududida va tashqi munosabatlarda tanho hokimligi, davlat hokimiyati uning hududiga kiradigan barcha tarkibiy va bo'linmas qismlari ustidan amalga oshirilishi va shu hududda yashaydigan aholiga taalluqliligini belgilab berdi [8].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z saylovoldi Dasturida quyidagi muhim fikrni ta'kidlagan edi: «Siyosiy tizimni rivojlantirish sohasidagi ustuvor vazifalarimiz rivojlangan huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish, fuqarolarning orzu-intilishlarini ro'yobga chiqarish, tashabbuslarini amalga oshirish, ularning mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ishtirokini kengaytirishdan iborat»[9].

Darhaqiqat, huquqiy davlat huquq bilan bog'langan bo'ladi, qonunning ustunligidan kelib chiqadi, jamiyat tomonidan belgilangan mezonlar doirasida ish ko'radi, jamiyatga bo'ysunadi, fuqarolar oldida mas'ul bo'ladi, fuqarolarning ijtimoiy va huquqiy himoyasini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev bu mavzuga e'tibor qaratib, «Qonunlarni qabul qilish jarayonida yangi tizim – aholi bilan muhokama qilish tizimini joriy etish lozim», – dedi. Ya'ni, «katta ahamiyatga ega, muhim qonun loyihalarini birinchi o'qishda qabul qilgandan keyin ularni joylarda fuqarolar bilan keng muhokama qilish, ularning tak¬lif va mulohalarini e'tiborga olib, loyihalarni takomillashtirgan holda ikkinchi o'qishga kiritish tartibini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi»[10].

Fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy huquq va erkinliklarini himoya qilishga alohida e'tibor berilmoqda. Ayni paytda, har bir fuqaroning mehnat jamoasi, davlat va umuman jamiyat oldidagi mas'uliyati oshib bormoqda. Davlat va jamiyat hayotining huquqiy asosini mustahkamlashga, tartib–intizomni, qonunbuzarlikka qarshi kurashni kuchaytirishga yo'naltirilgan qonunchilik, tashkiliy va tarbiyaviy xususiyatga ega bo'lgan tadbirlar muntazam ravishda amalga oshirib kelinmoqda.

Jamiyat va davlatning barqarorlikka, xavfsizlikka bo'lgan obyektiv ehtiyoji xavfsizlik masalalarini nazariy jihatdan tadqiq etishni, ya'ni tahdid va xavflarni o'rganish, muntazam ravishda monitoring olib borish va baholashni taqozo etadi.

Fuqarolarni huquqiy himoya qilishda jamoat tartibi va xavfsizligini muhofaza qilish muhim o'rin tutadi. Fikrimizcha, jamoat tartibi va xavfsizligini muhofaza qilish deganda odamlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash, ularning insoniy qadr–qimmatlarini, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning manfaatlarini himoya qilish, odamlarning mehnat qilishi va xordiq chiqarishi, davlat organlari, jamoat birlashmalari va mehnat jamoalarining normal ishlashiga yaxshi madad beradigan hamda xotirjamlik muhitini yaratish bo'yicha turli davlat organlari va

jamoat birlashmalari tomonidan tizimli chora–tadbirlar amalga oshirish tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervidagi xizmat to‘g‘risida”gi qonunlariga muvofiq va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini Vataniga sodiq, harbiy xizmatga har tomonlama tayyor bo‘lgan fuqarolar bilan butlash, ular tomonidan harbiy xizmatni o‘tash tartibi va sharoitlarini, qo‘shinlarning davlatning xavfsizligi va hududiy yaxlitligini himoya qilishga doimiy jangovar shayligini ta’minlash, shuningdek, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi PQ-4447-sonli qarori bilan yangi tahrirda “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida Nizom”[1] tasdiqlandi.

Amaldagi qonunlarga muvofiq endilikda mazkur Nizom O‘zbekiston fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibini belgilaydi, fuqarolar tomonidan davlatning hududiy yaxlitligini, mustaqilligini va xavfsizligini himoya qilish bo‘yicha konstitutsiyaviy huquq va majburiyatlari amalga oshirilishini ta’minlaydi, fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida shuningdek xizmat faoliyati oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibi lavozimlaridagi harbiy xizmatga tenglashtirilgan davlat qo‘mitalari, vazirliklar va idoralarda chaqiruv va kontrakt bo‘yicha haqiqiy harbiy xizmatni o‘tashlari, shuningdek Qurolli Kuchlar rezervidagi fuqarolar bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi. Bundan tashqari Qurolli Kuchlarni shaxsiy tarkib bilan butlash tartibi, turli toifadagi harbiy xizmatchilar tomonidan xizmat vazifalari sifatli bajarilishini ta’minlash bo‘yicha mansabdor shaxslarning huquq va majburiyatlarini belgilaydi hamda harbiy xizmatni o‘tashning shaffofligi va har bir harbiy xizmatchining professional o‘sish istiqbolini ta’minlaydi.

Har qanday davlatda xavfsizlik siyosatining muvaffaqiyatli olib borilishi qonun hujjatlari holati va takomillashtirilishiga bevosita bog‘liq. Shunday ekan, jamoat xavfsizligi ta’minlash sohasidagi qonun hujjatlarini bosqichma-bosqich va tizimli takomillashtirib borish davlatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero, “qonun – zamonaviy jamiyat huquqiy hayotining asosiy fenomeni va o‘zak yuridik tushunchasidir. O‘zida tizimlashgan ijtimoiy manfaatlarni ifodalagani holda qonun ijtimoiy munosabatlarning bosh tartibga soluvchisi, shaxs huquq va erkinliklarining kafili sifatida namoyon bo‘ladi. Qonun mazmunida va uni hayotga tatbiq etishda huquqiy mafkura namoyon bo‘ladi hamda huquqiy siyosat amalga oshiriladi”[2].

Shuni ta’kidlash joizki, mamlakat va uning ma’muriy-hududiy birliklarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash, birinchi navbatda, huquqbuzarliklarning, jumladan, jinoyatlarning barvaqt oldini olishga xizmat qiladi.

Shu jumladan, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash ham huquqiy demokratik davlat qurishning eng muhim mezoni hisoblanadi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning muhim ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasi asosida mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar samaradorligi, tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bois, bugungi kunda Konstitutsiyada norma sifatida mustah-kamlangan davlat organlarining “xalq manfaatlari yo‘lida xizmat qilish” majburiyatining amalda amalga oshirish hozirgi kunda o‘ta muhim va dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustaviga ko‘ra, “Qonun ustuvorligi barcha davlatlarga nisbatan xalqaro huquq me’yorlari va adolat tamoyillarining teng qo‘llanilishini va ularga teng rioya etilishini ta’minlaydi. Qonun ustuvorligi tamoyiliga

rioya qilish Ustav maqsadlariga erishish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga yordam beradi" .

Shuni hisobga olish kerakki, jamoat xavfsizligini ta'minlashda inson huquqlari va erkinliklarini cheklanib qolishi, har qanday davlatning eng dolzarb muammolaridan biri sifatida namoyon bo'lib kelmoqda. Jamiyatda hayot kechirish mobaynida davlat muqarrar ravishda o'zi tomonidan kafolatlangan inson va fuqaro huquq va erkinliklariga zarar yetkazilgan holatlarda, ushbu zararlarni samarali qoplanishi talab qiladigan holatlarga duch kelmoqda.

Zero, jamoat xavfsizligini ta'minlash bilan birga huquq va erkinliklarning cheklanishi jamiyatda erkinlik darajasini tartibga solishning usullaridan biri hisoblanadi, lekin uni amalga oshirishda erkin talqin qilish va suiiste'mol qilishga yo'l qo'yilmaslik lozim. Demak, inson huquqlari davlat tomonidan cheklanishining asosiy talabi - ularni qo'llash asoslari, tartibi va chegaralarini aniq tartibga solishdan iborat.

Bu muammoning jamiyat uchun qanchalik dolzarbligini shubha ostiga olish noo'rindir, chunki ba'zi mamlakatlarda sodir bo'layotgan voqealar natijasida jamoat xavfsizligini ta'minlash masalalari ustuvor ahamiyat kasb etib, yangi tendensiyalarni ko'rsatmoqda.

Holbuki, jamoat xavfsizligini ta'minlash masalalari yuzasidan mamlakatimizda tubdan amalga oshirilayotgan bir qator islohotlar jamoat xavfsizligini ta'minlashga mas'ul bo'lgan Milliy gvardiya faoliyatining huquqiy asoslarini belgilab beradi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-yanvardagi PF-60-sonli Farmoniga muvofiq tasdiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"[3], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-aprel kunidagi PQ-5077-sonli "O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori[6]da qabul qilingan ustuvor yo'nalishlarining talab va vazifalari mamlakatda, uning barcha hududiy birliklarida barqaror jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashni nazarda tutadi. Xususan, Harakatlar strategiyasining davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomil-lashtirishning, shuningdek qonun ustu-vorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash faoliyatiga oid bo'lgan talab va vazifalar aniq belgilab berilgan.

Mazkur talab va vazifalardan kelib chiqqan holda mamlakatda, uning barcha hududiy birliklarida barqaror jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash birinchi navbatda Milliy gvardiya bo'linmalarining ushbu yo'nalishdagi faoliyatini, xususan uni amalga oshirish tizimini takomillashtirib borishni talab qiladi.

Rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish hamda ularning bu boradagi yutuqlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, Rossiya Federatsiyasi Milliy gvardiyasi qo'shinlari[7]ning asosiy vazifalari alohida ahamiyatga ega. Rossiya Federatsiyasi Milliy gvardiya qo'shinlari vazifalaridan biri surishtiruv, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish bilan bir qatorda tezkor-qidiruv faoliyatini ham amalga oshirish hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va uning hududiy bo'linmalarida amalga oshiri-layotgan islohotlardan, huquqiy tartibni ta'minlash bo'yicha vakolatlarining kengayib borayotganligidan, shuningdek, xorijiy tajribadan kelib chiqib, Milliy gvardiya faoliyatining asosiy yo'nalishlariga jinoyat ishlari bo'yicha tergovga qadar tekshiruv va surishtiruvni o'tkazish bilan bir qatorda "tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirish" yo'nalishini ham kiritish, shunga muvofiq ravishda 2012-yil 25-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonun[8]ning 10-moddasida tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar tizimiga O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasini kiritish maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual

kodeksining 391-moddasining 2-qismida [9] O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasini tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish bilan bog‘liq vakolatlarini belgilash lozim.

Bundan tashqari, Milliy gvardiya tizimlarida olib borilayotgan islohotlar, uning vakolat va vazifalaridan kelib chiqib, Milliy gvardiya tizimini takomillashtirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Jumladan, Milliy gvardiyaning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlardagi boshqarmalaridan quyi bo‘g‘in bo‘lgan tuman (shahar)larda Milliy gvardiya bo‘limlarini tashkil etish hamda Milliy gvardiyaning yuqori, o‘rta va quyi bo‘g‘in negizida “surishtiruv” bo‘limlari bilan birga “tezkor-qidiruv” bo‘limlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bunday tizim Milliy gvardiya faoliyatining asosiy yo‘nalishlarida nazarda tutilgan vazifalarni samarali amalga oshirish imkonini beradi, deb hisoblaymiz.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi faoliyatini huquqiy ta’minlash bilan bog‘liq muhim vazifalaridan biri, eng avvalo ushbu harbiy bo‘linmaga kadrlarni sifatli tanlash masalasidir. Ta’kidlab o‘tish joizki, bugungi kunda Milliy gvardiya ta’lim muassasalariga o‘qishga nomzodlarni qabul qilish bo‘yicha dastlabki tanlash tadbirlari hududiy mudofaa ishlari organlarida amalga oshiriladi. Fikrimizcha, Milliy gvardiyaning hududiy boshqarmalarida tashkil etilgan kadrlar bo‘limi imkoniyatidan to‘liq foydalangan holda, fuqarolarni Milliy gvardiya ta’lim muassasalariga o‘qishga nomzodlarni qabul qilish bo‘yicha dastlabki tanlash tadbirlarini hududiy mudofaa ishlari organlaridan Milliy gvardiyaning hududiy kadrlar bo‘limlariga o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Bu amaliyotni joriy etilishi, birinchi navbatda, Milliy gvardiyada kadrlarni yanada sifatli tanlashga imkon bersa, ikkinchi navbatda, kadrlar boshqarmasi va bo‘limlarining Milliy gvardiyada harbiy xizmatchi va xodimlarni xizmatga qabul qilish bo‘yicha mas’uliyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlari jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatida quyidagi masalalarni to‘liq ro‘yobga chiqarilishi, qisqa vaqt mobaynida aniq natijalarga erishish, Milliy gvardiyaning kelgusidagi qiyofasini belgilab beradigan strategik tamoyillar va ana shu maqsadga erishishga qaratilgan keng ko‘lamli kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va samarali amalga oshirish imkonini beradi:

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va uning hududiy bo‘linmalarida amalga oshirilayotgan islohotlardan, huquqiy tartibni ta’minlash bo‘yicha vakolatlarining kengayib borayotganligidan, shuningdek, xorijiy tajribadan kelib chiqib, Milliy gvardiya faoliyatining asosiy yo‘nalishlariga jinoyat ishlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv va surishtiruvni o‘tkazish bilan bir qatorda “tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirish” yo‘nalishini ham kiritish, shunga muvofiq ravishda 2012-yil 25-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 10-moddasida tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar tizimiga O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasini kiritish maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksining 391-moddasining 2-qismida[8] O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasini tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish bilan bog‘liq vakolatlarini belgilash lozim.

Bundan tashqari, Milliy gvardiya tizimida olib borilayotgan islohotlar, uning vakolat va vazifalaridan kelib chiqib, Milliy gvardiya tizimini takomillashtirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Jumladan, Milliy gvardiyaning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlardagi boshqarmalaridan quyi bo‘g‘in bo‘lgan tuman (shahar)larda Milliy gvardiya bo‘limlarini tashkil etish hamda Milliy gvardiyaning yuqori, o‘rta va quyi bo‘g‘in negizida “surishtiruv” bo‘limlari bilan birga “tezkor-qidiruv” bo‘limlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bunday tizim Milliy gvardiya faoliyatining asosiy yo‘nalishlarida nazarda tutilgan vazifalarni samarali amalga

oshirish imkonini beradi, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси "Президентининг 2019 йил 12 сентябрдаги ПҚ-4447-сон қарори билан тасдиқланган "Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг ҳарбий хизматни ўташ тартиби тўғрисида низом" // lex.uz.

2. Имамов А.Э. Механизм реализации закона в Республике Узбекистан: вопросы теории и практики: Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. – Ташкент: Академия МВД, 2004. – С.9.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // lex.uz.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-aprel kunidagi PQ-5077-sonli "O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // lex.uz.

5. Федеральный закон "О войсках национальной гвардии Российской Федерации" от 3 июля 2016 г. N 226-ФЗ.

6. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 25-dekabrdagi "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-344-son Qonuni. // lex.uz.

7. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 5 сентябрдаги "Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги " ЎРҚ-564-сон Қонуни // lex.uz

8. "Мустақиллик декларацияси". Ўзбекистон Совет Социалистик Республикаси Олий Советининг 1990 йил 20 июндаги иккинчи сессиясида қабул қилинган. // Milliy qonunchilik bazasi (https://www.lex.uz/m/acts/185391).

9. Xalq so'zi, 2016 yil 3 noyabr.

10. Mirziyoyev Sh. Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo'lishi kerak // Xalq so'zi, 2017-yil 13-iyul

Xo'jamberdiyev F.K., Qilichev I.Y. Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini huquqiy tartibga solishning ayrim masalalari

Maqolada bugungi kunda mamlakatimiz Qurolli Kuchlari tizimida, xususan, Milliy gvardiya tizimida amalga oshirilayotgan harbiy-huquqiy islohotlar va ularning dolzarbligi tahlillar asosida yoritib berilgan bo'lib, Milliy gvardiya faoliyatini huquqiy tartibga soluvchi ayrim qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Qurolli Kuchlar, Milliy gvardiya, Mudofaa Doktrinasi, "regulation" va boshqalar.

Хужамбердиев Ф.К., Киличев И.Ё. Некоторые вопросы правового регулирования деятельности по обеспечению общественной безопасности Национальной гвардии

В статье анализируются военно-правовые реформы, осуществляемые сегодня в системе Вооружённых Сил нашей страны, в частности в системе Национальной гвардии, а также рассмотрена их актуальность, выдвинуты предложения и рекомендации по совершенствованию некоторых законодательных актов, регулирующих деятельность Национальной гвардии.

Ключевые слова: Вооружённые Силы, Национальная гвардия, оборонная Доктрина, "regulation" и т.д.

Khujamberdiyev F.K., Kilichev I.Y. Some issues of legal regulation of activities to ensure public safety of the national guard

The article analyzes the military-legal reforms and their relevance, carried out today in the system of the Armed Forces of our country, in particular in the system of the National guard, put forward proposals and recommendations for the improvement of some legislative acts regulating the activities of the National guard.

Key words: Armed Forces, national guard, defense doctrine, "regulation", etc.

Бозоров Уктам Турмухаммедович,
ведущий научный сотрудник Университета общественной безопасности Республики Узбекистан;
Ҳайдарова Шахноза Азаматовна,
самостоятельный соискатель Бухарского Государственого университета

О ЗАРУБЕЖНОМ ОПЫТЕ ПО ПРИВЛЕЧЕНИЮ ИНОСТРАННЫХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ (в сфере подготовки специалистов обеспечения безопасности выборов)

Одним из ключевых критериев, позитивно влияющих на рейтинг конкретного ВУЗа и его научного потенциала, выступает привлечение к учебному процессу зарубежных научно-педагогических специалистов.

При подсчёте одного из наиболее известных мировых рейтингов университетов – QS World University Rankings используется показатель доли иностранных педагогических сотрудников.

Для информации. QS World University Rankings – ежегодно публикуемый рейтинг университетов «Quacquarelli Symonds» (QS). Ранее данный рейтинг был опубликован под названием «Мировой университетский рейтинг THE-QS», т.к. составители рейтинга сотрудничали с журналом Times Higher Education. Система QS включает в себя глобальные общие и тематические рейтинги (наилучших университетов мира для изучения 46 различных предметов и 5 междисциплинарных предметов), а также 5 независимых региональных рейтингов (Азия, Латинская Америка, Европа и Центральная Азия, Арабский регион и БРИКС). Это единственный международный рейтинг, получивший одобрение Международной рейтинговой экспертной группы (IREG) и считающийся одним из наиболее признанных рейтингов своей категории.

Привлечение иностранных преподавателей и научных сотрудников – более сложный процесс, чем привлечение иностранных студентов.

В этом вопросе необходимо учитывать ряд важных факторов, например, уровень открытости университетов для иностранных сотрудников, доступ иностранцев на рынок труда, большая стоимость грантовых программ, политико-географические приоритеты академического сотрудничества.

В последние годы Китай, Россия, Казахстан и Азербайджан предпринимают активные действия, направленные на усиление найма иностранных научно-педагогических специалистов в свои вузы.

Приведём для примера **Опыт Китая.**

Вопросами привлечения иностранных преподавателей занимаются Бюро человеческих ресурсов КНР, управление по иностранным делам и отделы образования муниципалитетов регионов. (1)

С 1998 г. Китай активно финансирует привлечение иностранных преподавателей в вузы. Кроме финансирования образовательной системы, правительство страны выделяет девяти ведущим университетам более 200 млн. юаней (около 12 млн. долл.) в год для найма зарубежных специалистов.

В настоящее время, только в Пекине работает по долгосрочным контрактам 37 тыс. иностранцев из США, Южной Кореи, Германии и Австралии.(2)

Открытие филиалов иностранных вузов в Китае фактически запрещено. Однако, в последнее время постепенно этот запрет снимается. В настоящее время в Китае действуют филиалы четырёх иностранных вузов, в том числе филиалы Университета Ноттингема (Великобритания) в Пекине и Шанхае, филиалы Университетов Ливерпуля и Нью-Йорка в Пекине.

В Китае большее предпочтение отдаётся привлечению иностранных преподавателей технической сферы, а также сферы международной бизнес администрации (МБА) и международным финансам. Особенность китайского опыта в высшем образовании состоит в том, что правительство берёт на себя организационную часть привлечения иностранных преподавателей, в том числе связанную с предоставлением технической базы (корпуса, техническое оснащение), а профильные заинтересованные компании – выделяют финансовые средства на осуществление обучающих программ. (3)

В настоящее время китайское правительство активно привлекает компании к процессу реализации и финансированию совместных образовательных программ.

Финансирование приглашений в ведущие китайские вузы высококвалифицированных зарубежных специалистов осуществляется правительством страны в рамках проекта правительства КНР «Проект 2011». Целью проекта является усиление сектора высшего образования и подготовка специалистов высокого уровня для реализации стратегий развития национальной экономики и социальной жизни страны.

Ранее в 2008 г. была запущена Программа «1000 талантов», рассчитанная на 10 лет, которая предусматривала предоставление Грантов выдающимся зарубежным учёным. В рамках данной Программы в Китай прибыли более 5 тыс. зарубежных учёных, специализирующихся в энергетике, биотехнологиях, новых материалах, авиации и космонавтике, информационных технологиях и экологичном транспорте. Участники программы становились руководителями научных лабораторий или отделов в одном из ведущих китайских ВУЗов и получали Гранты в размере от 70 до 120 тыс. долл. в год. (4)

Китайская Академия наук занимается реализацией стратегии кадрового развития «Инновация-2020», которая предусматривает привлечение нескольких тысяч ведущих учёных всего мира, призванных повысить уровень китайской науки.

Основные требования к иностранным преподавателям включают в себя наличие сертификата, удостоверяющего квалификацию университетского образования, международного преподавательского сертификата, сертификата иностранного специалиста и сертификата по соответствующему предмету.

Трудоустройство иностранного специалиста в китайские ВУЗы осуществляется достаточно оперативно. После принятия решения о найме процесс оформления разрешения на работу и приглашения для получения визы занимает около 15 рабочих дней. По прибытии кандидата с ним заключается трудовой договор.

Следует отметить, что в объявлениях о вакансиях преподавателей в китайский университет одним из обязательных требований к кандидатам является дружественное отношение к Китаю и его гражданам, согласие на соблюдение законов страны и внутренних правил университета.

Теперь немного затронем **Опыт России.**

В Российской Федерации иностранные граждане могут быть приняты на работу в качестве преподавателей, научных работников и на другие должности согласно нормам Федерального закона РФ «О правовом положении иностранных граждан в Российской Федерации» (от 2010 г.), а также постановлению Правительства РФ «О мерах по привлечению ведущих учёных в российские образовательные учреждения высшего профессионального образования» (от 2010 г.). (5)

Согласно указанному закону, иностранный учёный может заниматься

наукой, поскольку старый законопроект предоставлял право вести занятия, но не позволял заниматься наукой.

Трудоустройство иностранного преподавателя проводится по двум направлениям: 1) По визовому режиму – касается иностранных граждан при условии наличия визы и приглашения со стороны образовательного или научного учреждения; 2) Разрешения на работу – распространяется на иностранных граждан, которым не требуется соответствующая виза. В этом случае достаточно наличия только соответствующего приглашения.

Привлечением зарубежных научных и научно-педагогических кадров в российские ВУЗы занимается Департамент науки технологий Минобрнауки РФ. Признанием в Российской Федерации учёных степеней и званий, полученных в иностранном государстве, занимается Департамент аттестации научных и научно-педагогических кадров Минобрнауки РФ. Главная цель привлечения иностранцев – повышение позиций вузов в международных рейтингах.

Наряду с этим, в российских вузах имеется должность проректора по международным связям, который занимается реализацией мероприятий по приглашению зарубежных учёных.

Право приглашения иностранного гражданина в качестве преподавателя предоставляется:

- российским коммерческим организациям;
- российским научным организациям, вузам, учреждениям здравоохранения;
- аккредитованным в установленном порядке на территории Российской Федерации филиалам иностранных юридических лиц.

Кандидат в преподаватели может быть допущен к педагогической деятельности только при наличии определённого профессионального образования. В этой связи зарубежному преподавателю, имеющему иностранный документ об образовании, необходимо пройти процедуру признания этого документа со стороны России и установления его эквивалентности российским документам об образовании.

Сейчас упрощён порядок получения виз, поскольку раньше у иностранца, имевшего деловую или иную цель въезда в РФ, ему приходилось выезжать из России, чтобы въехать повторно уже с целью преподавания. При этом на сегодняшний день предусмотрены следующие преференции:

1) Отменена необходимость получения квоты и разрешения на работу для приёма иностранного специалиста на должность преподавателя или научного работника.

2) Возможность трудоустройства иностранных учёных, участников конференций и семинаров на основании рабочей, деловой и гуманитарной визы.

3) Продлён срок осуществления миграционного учёта с трёх до семи рабочих дней (для иностранных граждан из стран с безвизовым режимом с РФ).

В данной сфере в России осуществляется несколько проектов. Рассмотрим эти проекты.

Привлечение зарубежных преподавателей в российские ВУЗы рассматривается в рамках проекта «5-100». Согласно данному проекту, доля иностранных преподавателей должна быть не менее 10% от общего количества педагогического состава, и не должна превышать 15%. В данный проект отобраны на конкурсной основе 21 вуз, в которые приглашены 650 педагогов-иностранцев за 2014 г. (6)

Для информации: Проект «5-100» – государственная Программа поддержки крупнейших российских вузов, запущена Министерством образования и науки в соответствии с Указом Президента РФ от 07.05.12 г. «О мерах по реализации государственной политики в области образования и науки». Цель проекта – повысить престижность российского высшего образования и вывести не менее

пяти университетов из числа участников проекта в сотню лучших вузов трёх авторитетных мировых рейтингов: Quacquarelli Symonds, Times Higher Education и Academic Ranking of World Universities.

С 2013 года на Гранты в сфере научно-исследовательской работы также был объявлен новый конкурс «Мегагрант». Объём финансирования на проведение научных исследований в течение 3 лет с возможным продлением проведения научного исследования на 2 года составил до 90 млн. рублей (около 1,5 млн. долл.) каждый.

В рамках реализации Постановления правительства РФ «О мерах по привлечению ведущих учёных в российские образовательные учреждения высшего профессионального образования» (от 2010 г.), в 2016 г. 179 российских вузов подали 507 заявок на получение государственных Грантов на поддержку научных исследований, проводимых под руководством ведущих иностранных учёных.

Согласно закону «О правовом положении иностранных граждан в РФ», зарплата высококвалифицированных специалистов, являющихся научными работниками или преподавателями, в случае их приглашения для занятий научно-исследовательской или педагогической деятельностью составляет в размере 83,5 тыс. рублей в месяц (около 1,4 тыс. долл.).

Преподаватели или учёные, приглашённые в качестве «высококвалифицированных специалистов» в сфере медицины, педагогики, или научные работники получают не менее 1 млн. рублей (около 17 тыс. долл.) в год. При этом, для таких учёных налог снижен с 17% на 13% от общего дохода.

В настоящее время, Национальный исследовательский университет «Высшая школа экономики» (НИУ ВШЭ) является одним из лидеров среди российских вузов по привлечению к образовательному процессу зарубежных специалистов. В университете на постоянной основе трудятся 62 иностранных специалиста, 20 из них имеют статус «высококвалифицированных специалистов».

Приём иностранных преподавателей на работу в данный университет осуществляется на основе процедуры международного конкурса. В университете функционирует Комитет по международным делам, осуществляющий отбор международных специалистов на конкурсной основе. Комитет ежегодно формирует профильные отборочные комитеты, а в их составе экспертные комиссии, членами которых являются руководители, преподаватели и научные работники подразделений НИУ ВШЭ, с привлечением внешних независимых экспертов, являющихся сотрудниками ведущих зарубежных вузов.

В университете осуществляется программа международного рекрутинга, который предусматривает найм на должности профессорско-преподавательского состава специалистов с международного рынка труда, имеющих международно-признанную степень PhD, опыт преподавательской работы и значительный исследовательский потенциал.

Кандидаты проходят конкурсный отбор и приглашаются на работу на срок три года, приступают к работе в сентябре. По окончании трёхлетнего периода проводится оценка деятельности международных специалистов, по итогам которой выносится рекомендация о возможности заключения трудового договора на новый срок. При решении вопроса о заключении нового трудового договора к международным специалистам предъявляются требования по публикациям результатов научно-исследовательской работы в профессиональных международных реферируемых журналах и внесению своего вклада в развитие бакалаврской и магистерской Программ.

Подразделения университета, заинтересованные в привлечении

иностранных специалистов, подают в Комитет заявку, в которой отражены требуемые профессиональные характеристики кандидатов.

В НИУ ВШЭ функционирует Институт фундаментальных междисциплинарных исследований, привлекающий иностранных учёных для развития в вузе новых научных направлений.

Кроме того, в НИУ ВШЭ создан специальный отдел, призванный оказывать помощь иностранным работникам в решении вопросов трудового и социально-бытового характера, в частности, взаимодействия с подразделениями университета и внешними организациями, поиска работы и мест учёбы для членов семьи, оформления вида на жительство, кредита в банке и прочего.

Перейдём к **Опыту Казахстана**

В марте 2010 г. Казахстан официально присоединился к Болонской декларации и стал 47-м членом Европейской зоны высшего образования и первым Центрально Азиатским государством, признанным полноправным членом европейского образовательного пространства. (7)

Для информации: В рамках Болонского процесса более 650 университетов подписали Великую Хартию университетов, позволяющую сотрудничать вузам между собой и приблизить систему образования к европейским стандартам. В настоящее время, Великую Хартию подписали более 60 казахстанских университетов.

С целью приглашения ведущих зарубежных учёных в РК разработана Программа «Привлечение зарубежных учёных и консультантов в ведущие вузы Казахстана», которая финансируется МОН РК. Кроме того, в приказе МОН РК от 06.06.2017 г. были рассмотрены вопросы распределения бюджетных средств данной Программы.

В этих целях была создана Комиссия по распределению бюджетных средств на привлечение зарубежных специалистов в топ-менеджмент вузов.

Создан Национальный реестр аккредитационных агентств при МОН РК, для содействия европейскому сотрудничеству системы образования РК. Данная организация также оказывает содействие в привлечении зарубежных специалистов и студентов.

В казахстанских вузах имеется должность первого проректора по стратегическому планированию и международному сотрудничеству, который занимается реализацией мероприятий по приглашению зарубежных учёных.

Для информации: Большинство кандидатов на эту должность отбираются из числа учёных, которые защитили свою докторскую (или эквивалент) работу за рубежом.

Процесс приглашения зарубежных учёных проводится Департаментом международного сотрудничества университетов. Для этой цели в первую очередь, предоставляется письменное обоснование необходимости въезда иностранного лица в качестве зарубежного специалиста.

В качестве основных критериев и предпосылок для приглашения зарубежного учёного являются:

- учёные должны быть из ТОП 500 лучших университетов мира по версии рейтинга QS World University Rankings;
- наличие авторитета учёного в международном академическом сообществе, который подтверждён опытом работы, опытом международной деятельности, публикациями в научных изданиях, рекомендациями учёных в соответствующей сфере деятельности. После процедуры рассмотрения соответствующих документов ректор или курирующий проректор личным письмом приглашает иностранного специалиста.

Следующим будет **Опыт Азербайджана**

С 2005 г. Азербайджан перешёл к Болонской системе высшего образования, которая включает в себе три ступени – бакалавриат, магистратуру и

докторантуру.

В образовательном законодательстве страны в вопросах привлечения иностранных преподавателей предъявляются два основных требования, согласно которым в педагогическом составе вузов доля иностранных преподавателей не должна превышать 20%, а также иностранным лицам выдаётся специальное разрешение на осуществление преподавательской деятельности сроком на три года.

При этом, из-за отсутствия других специализированных законодательных актов, привлечение иностранных преподавателей и учёных осуществляется на основе внутренних положений вузов. В основном иностранные преподаватели привлекаются на работу в частные университеты, а также в рамках реализаций государственных проектов.

Для информации: В Азербайджане 11 частных вузов. 10 из них находятся в городе Баку и 1 в г. Нахичевани.

Приём иностранцев в докторантуру высших образовательных учреждений и научных организаций осуществляется на основании международных договоров, участником которых является Азербайджан, а также договора, заключенного на платной основе, между образовательным учреждением и иностранным гражданином.

Последние годы, по словам экспертов, государство стало меньше финансировать образование азербайджанских студентов за границей, поскольку выпускники иностранных вузов все реже возвращаются на родину. Данная проблема в Азербайджане решается путём приглашения иностранных преподавателей, которые способны дать студентам те же знания, которые они могли бы получить в западном вузе. Однако, такая практика ведётся в основном в частных университетах.

В Азербайджане при привлечении зарубежных преподавателей в высшую образовательную систему предпочтение отдаётся таким сферам, где ощущается нехватка местных преподавателей: нефтяная отрасль, экономика, менеджмент, политические науки.

Одним из государственных проектов в данной сфере является проект «Сабах», который представляет собой реформу системы высшего образования. Проект инициирован Министерством образования АР в 2014-2015 учебном году, который охватывал 11 государственных вузов, 46 специальностей и более 2,3 тыс. студентов. Кандидатов в этот проект отбирали из числа талантливых студентов, окончивших 1 курс вуза. Число первых выпускников групп SABAH в 2016-2017 гг. составило 722 человека. (8)

Проект предусматривает развитие ноу-хау в области образовательных технологий, используемых в вузах страны, а также интеллектуального и творческого потенциала студентов, подготовку кадров, соответствующих современным стандартам и требованиям рынка труда. Проект основан на партнерстве государства по развитию образования и бизнеса в рамках Государственной Стратегии Азербайджана.

Комплектация преподавательского состава проекта в основном осуществляется за счёт привлечения молодых преподавателей, окончивших или имеющих профильный опыт работы в вузах Европы, США и Канады, к которым предъявляется два основных требования:

1) Владение навыками преподавания с применением инновационных технологий;

2) Знание английского языка.

Профессорско-преподавательский состав проекта «Sabah» включает в себя около 650 человек, и сформирован из отобранных педагогов высших учебных заведений, носителей языка, приглашённых из Канады и Англии, а также действующих в Азербайджане специалистов местных и зарубежных компаний.

На основаннии изученного

материала можно сделать следующие **выводы.**

Изучение зарубежного опыта в сфере привлечения иностранных преподавателей в образовательный процесс в ВУЗах позволяет обобщить следующие моменты:

во-первых, во многих странах привлечение в образовательный процесс ВУЗов зарубежных учёных и специалистов рассматривается как один из основных факторов, определяющих престиж высшего образовательного учреждения и качества образования в нём;

во-вторых, в большинстве ведущих стран разработаны правовые основы привлечения иностранных специалистов в образовательный процесс ВУЗа. Эти документы регулируют условия привлечения зарубежного преподавателя, а также определяют требования, предъявляемые к иностранным кандидатам на работу в ВУЗах;

в-третьих, в отдельных странах в рассматриваемой сфере разработаны чёткие организационные механизмы (структуры) привлечения иностранных преподавателей к процессу высшего образования;

в-четвёртых, во многих странах при привлечении зарубежных преподавателей отдаётся предпочтение таким сферам, как IT – технологии, энергетика, медицина, нефтегазовая отрасль.

С учётом вышеизложенного, можно сделать вывод, что применение в Узбекистане практики по привлечению иностранных преподавателей будет способствовать:

- повышению престижа ВУЗов страны (по мере роста доли иностранных преподавателей, привлечённых к учебному процессу), их научного потенциала, конкурентоспособности на рынке образовательных услуг;
- нейтрализации коррупционных явлений (в т.ч. социальной несправедливости) в образовательном процессе и научной сфере, поскольку наличие в составе педагогических коллективов зарубежных преподавателей, скорее всего, будет способствовать оздоровлению коррупционной ситуации в ВУЗах;
- снижению уровня оттока молодёжи для учёбы за рубежом, поскольку наличие зарубежных учёных может компенсировать зарубежное образование;
- повышению качества преподавания, в т.ч. языковой подготовки не только студентов и магистров, но и профессорско-преподавательского состава ВУЗов.

.

Использованная литература

1. Гусев А.Н., Кашфуллина К.Р., Насонов К.А. Реформы высшего образования в Китае и Республике Корея: использование зарубежного опыта в модернизации системы.

2. Иностранные инвестиции в экономике Китая: состояние и перспективы развития. Выпускная квалификационная работа студента очной формы обучения 4 курса группы Бай Сяолей.

3. Лучшие практики международной деятельности. Санкт-Петербургский политехнический университет Петра Великого.

4. План тысячи талантов. “hmong.ru”.

5. Постановление Правительства Российской Федерации “О мерах по привлечению ведущих учёных в российские образовательные организации высшего образования, научные учреждения и государственные научные центры Российской Федерации”. “pravo.gov.ru”.

6. Г.А. Ключарев, А.В. Неверов, Проект «5-100»: Некоторые промежуточные итоги.

7. Enic-Kazakhstan. Центр Болонского процесса и академической мобильности. “Enic-kazakhstan.edu.kz”.

8. Наше светлое завтра. #MənSabaham – итоги первого выпуска проекта SABAH. «1news.az».

Бозоров У.Т., Ҳайдарова Ш.А. О зарубежном опыте по привлечению иностранных преподавателей (в сфере подготовки специалистов обеспечения безопасности выборов)

В статье рассмотрены вопросы привлечения иностранных преподавателей. На основании изученного материала сделан вывод о том, что привлечение иностранных преподавателей является одним из основным факторов повышения научного потенциала высших учебных заведений. Это подтверждено практикой привлечения иностранных преподавателей во многих зарубежных ВУЗах, вошедших в мировой рейтинг.

Ключевые слова: преподаватель, рейтинг, ВУЗ, образовательные Программы.

Bozorov U.T., Khaydarova Sh.A. About foreign experience in attracting foreign teachers (in the field of training ensure the security of elections)

Attracting foreign teachers is one of the main factors in increasing the scientific potential of higher educational institutions. Therefore, many foreign universities are active in attracting foreign teachers, which also allows them to increase their world rating.

Keywords: teacher, rating, university, educational programs.

Bozorov U.T., Xaydarova Sh.A. Xorijiy o‘qituvchilarni jalb etish bo‘yicha chet el tajribasi (saylovlar xavfsizligini ta’minlovchi mutaxassislarni tayyorlash sohasida)

Xorijiy o‘qituvchilarni jalb etish oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirishda asosiy omillardan biri bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun ko‘pgina chet el oliy ta’lim muassasalarining xorijiy o‘qituvchilarni jalb qilishga harakat qilishadi, bu o‘z navbatida ularning xalqaro reytingini oshiradi.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi, reyting, OTM, ta’lim dasturlari.

Otajonov Rajabboy Narimovich,
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi
Magistratura tinglovchisi

MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYA: MOHIYATI, MAZMUNI VA XUSUSIYATLARI

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Ma’naviyat avvalo insonning ruhiy olami, ongi, aql-tafakkuri, odob-axloqi, dunyoqarashi in’ikosidir. U keng ma’noda jamiyat hayotidagi g‘oyaviy, mafkuraviy, ma’rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o‘zida to‘la mujassam etgan ijtimoiy-ma’naviy hodisa” degan fikrlari jamiyat uchun ma’naviyatning naqadar zarurligini yaqqol namoyon etadi [1].

Zero ma’naviyat va ma’rifat bir-biri bilan uyg‘un holda rivojlanib boradi. Imom Buxoriy, Hakim Termiziy, Abu Nasr Farobiy, Beruniy, Mahmud Zamaxshariy, Ibn Sino, Alisher Navoiy singari buyuk allomalarimiz yuksak ilm-ma’rifat va ma’naviy tarbiyaning inson kamolotidagi bebaho o‘rnini juda ulug‘lagan, ulkan meros qoldirganlar. Jumladan, Abu Nasr Farobiy *“daraxtning yetukligi uning mevasi bilan bo‘lganidek, insonning barcha xislatlari ham axloqiy tarbiya bilan yakunlanadi”*, degan fikrni ilgari suradi. Uning asarlarida axloqiy tarbiya borasidagi qarashlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q, aksincha, axloqiy tarbiyaning yangi usul va qoidalarini ishlab chiqish va ularni takomillashtirishda dolzarb ahamiyat kasb etadi [3, 10-b].

Jadid bobolarimizdan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxon o‘g‘li, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lponlar xalqni milliy zulm va ma’rifiy qoloqlikdan xalos etishning yagona yo‘li ma’rifatda deb bilganlar. Abdulla Avloniy bobomiz *“ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotidir”*, deganda ma’rifatparvarlik g‘oyasining jamiyat ma’naviay hayotidagi nechog‘lik muhim ahamiyat kasb etishini aytib o‘tgan [5, 10-b].

Mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng har tomonlama yetuk komil insonni tarbiyalash vazifasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi qilib belgilandi. Bilamizki, ma’naviyat va ma’rifat o‘zaro bog‘liq tushunchalardir. Tarbiya jarayonida ularning har ikkisini birlashtira olsakkina, yoshlarimizning ma’naviy barkamol, iymon-e’tiqodli, vatanparvar, insonparvar, vijdonli, diyonatli, or-nomusli, halol va pok insonlar bo‘lib tarbiya topishlariga erisha olamiz. Hozirgi davrda ma’naviyat va ma’rifat xalqimiz, millatimiz, Vatanimizning porloq kelajagi uchun suv va havodek zarur. Buyuk ma’rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiy aytganidek, *“dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo‘lur”* [6, 67-b]. Shu ma’noda, ma’naviyat va ma’rifatning o‘zaro birligi, uyg‘unligi, ma’naviy va ma’rifiy tarbiya ishlarimizni birga olib borishni taraqqiyotning o‘zi taqozo etmoqda. Chunki inson qalbiga yo‘l, avvalo, ta’lim-tarbiyadan boshlanadi.

Ma’naviyat odamlarda tayyor holda vujudga kelmaydi. Unga muttasil o‘qish, o‘rganish, tajriba orttirish orqaligina erishiladi. Ma’naviyat qanchalik boyib borsa, jamiyat va millat shunchalik ravnaq topadi. Ma’naviyatda inson hayotining mazmuni aks etadi. Vatanni sevish, vatanparvarlik inson ma’naviyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ma’naviyat kamol topgan jamiyatlarda qobiliyat, iste’dod egalari shu jamiyatning, millatning yuzi, g‘ururi, obro‘-e’tibori hisoblanadi. Ma’naviyatli jamiyatda aql, sog‘lom fikr, adolat va yaxshi xulq ustuvordir. Bunday jamiyatda xalqning ertangi kunga ishonchi kuchli bo‘ladi, odamga nomunosib turli illatlar barham topadi.

Bugun mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy islohotlarga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Yoshlar orasida, ta’lim muassasalarida, mahallalarda ma’naviy-ma’rifiy muhitni yanada yaxshilash, asrlar

davomida sayqallanib kelayotgan an'ana va qadriyatlarimizni targ'ib etish borasida ko'p ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada barcha sohalar singari, ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibi o'rtasida ham ma'naviy-ma'rifiy ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, xodimlarning bilim saviyasini yanada oshirish, yuksak ma'naviyatli, vatanparvar, o'z kasbiga sadoqatli va fidoyi xodimlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yil 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishda jamiyat hayotining joni va ruhi ma'naviyat ekanligi, yangi O'zbekistonni barpo etishda ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanishimiz lozimligi alohida ta'kidlandi [2].

Shundan kelib chiqib, ichki ishlar organlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirishga qaratilgan bir qator ishlar qilindi. Prezidentimizning "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 5050-son qarori bilan tizimda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish konsepsiyasi tasdiqlandi [9].

Ushbu konsepsiya ichki ishlar organlari tizimida xizmat qilayotgan barcha xodimlar va harbiy xizmatchilarning umumiy dunyoqarashi, siyosiy ongi, ma'naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik, g'urur, iftixor, kasbiga nisbatan sadoqat va yuqori mas'uliyat hislarini oshirish bilan bog'liq vazifalarni belgilab berdi. Konsepsiyaga ko'ra, ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar **"Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish — oliy burchimiz!"** konseptual g'oyasi asosida tashkil etilib, unda davlat mustaqilligini himoya qilish, huquq-tartibotni mustahkamlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash hamda fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Jahonda global tahdid va xavf-xatarlar, axborot xurujlari avj olayotgan hozirgi murakkab davrda ichki ishlar organlari xodimlarini ma'nan yetuk, halol, vatanparvar etib tarbiyalash, ularning ona Vatan taqdiriga bo'lgan mas'uliyatini oshirish, intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda g'oyaviy va turli axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, bir so'z bilan aytganda, xodimlarni o'z xizmat burchini sadoqat va fidoyilik bilan vijdonan bajarishga yo'naltirish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur konsepsiyaning asosiy maqsadi etib xodimlarni har qanday sharoitda davlat va xalq manfaatlariga xizmat qiladigan, milliy qadriyatlarga sodiq, umuminsoniy qadriyatlarga tayanadigan, yot va buzg'unchi g'oyalarga murosasiz kurashuvchi, iymon-e'tiqodi va irodasi mustahkam, ma'naviyatli va fidoyi, ajdodlarimiz mardlik ko'rsatib halok bo'lgan xodimlarning bebaho merosiga tayanib yashaydigan barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ular qalbida davlat va xalqimizning xavfsizligini ta'minlashda shaxsiy daxldorlik va yuqori mas'uliyat hissini shakllantirish belgilangan.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun quyidagilar asosiy vazifa sifatida belgilangan:

birinchidan, *xodimlarning ma'naviyati va intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda boy madaniyatimiz, azaliy qadriyatlar va an'analarimizga asoslangan dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan yagona tizimni yaratish;*

ikkinchidan, *xodimlarning ong-u tafakkuriga Vatan va xalq manfaatlariga xizmat qilish sharafli va muqaddas burch ekanini anglatish, davlatimiz va ichki ishlar organlarining timsollari bilan faxrlanib, qasamyodiga sodiq bo'lish hamda kasbiy burchini bajarishda qonuniylikka qat'iy rioya etish tuyg'usini chuqur singdirish orqali xalqning ularga bo'lgan ishonchi va hurmat hissini yuksaltirish;*

uchinchidan, *xodimlarning ongi va qalbiga "Yangi O'zbekiston — uchinchi Renessans sari!" g'oyasining mazmun-*

mohiyatini singdirish asosida ularning Vatan va xalq taqdiriga, davlatimiz hamda islohotlar talablariga daxldorligini yanada oshirish;

to'rtinchidan, *shaxsiy tarkibga mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qonunchilik hujjatlari mazmun-mohiyatini tizimli tushuntirish hamda dunyoda va yon-atrofimizda sodir bo'layotgan globallashuv jarayonlariga nisbatan ularning ongli munosabati hamda faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirish;*

beshinchidan, *milliy merosimizning tarixiy ildizlarini o'rganish hamda tahlil qilish, Vatanimiz ozodligi va tinchligi yo'lida qahramonlik ko'rsatgan buyuk ajdodlarimiz va jasur zamondoshlarimizning ibratli hayotini keng targ'ib etish asosida xodimlarda xizmat burchini bajarish borasida qat'iy hayotiy e'tiqodni qaror toptirish;*

oltinchidan, *xodimlarning estetik tarbiyasini kuchaytirish, ularning madaniyat va san'atning turli sohalariga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ushbu maqsadda adabiyot, kino, teatr, tasviriy san'at imkoniyatlaridan keng foydalanishni tizimli asosda yo'lga qo'yish;*

yettinchidan, *xodimlarning ichki va tashqi ma'naviy tahdidlar hamda korrupsiyaga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, ichki ishlar organlarining ijobiy imidjini shakllantirish hamda shu maqsadda fuqarolik jamiyati institutlari, jamoat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlikni rivojlantirish.*

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amaliyotga uzluksiz tatbiq etish bo'yicha ichki ishlar organlarining asosiy **subyektlari** sifatida: IIVning ixtisoslashtirilgan maktab-internati; IIVning "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi; Ixtisoslashtirilgan akademik litseylar; IIV Akademiyasi; IIVning sohaviy, tarkibiy va hududiy bo'linmalari; IIV Malaka oshirish instituti hamda IIV tizimidagi jamoatchilik tuzilmalaridan iborat.

Alohida qayd etish lozimki, ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish konsepsiyasida belgilangan tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida yuksak ma'naviyatli, vatanparvar, o'z kasbiga sadoqatli va fidoyi xodimlar shakllanadi. Bunday natijaga erishish uchun ma'nan yetuk, kasbiy ixtisosliklarni puxta egallagan, har qanday sharoitda xizmat vazifalarini vijdonan bajaradigan, matonat va jasoratda, hayotda va kasbiy faoliyatida boshqalarga o'rnak bo'lgan xodimlar imkoniyatlaridan keng foydalanish zarur hisoblanadi.

Ichki ishlar vazirining 2021 yil 21 oktabrdagi "Ichki ishlar organlari ma'naviy-ma'rifiy ishlar xizmati faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 400-son buyrug'iga ko'ra ichki ishlar organlarining barcha xodimlari va harbiy xizmatchilari, shuningdek, ishchi hamda xizmatchilari bilan olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va amalga oshirish tartibi belgilandi.

Ta'kidlash kerakki, ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirishning yagona tartibini belgilashdan **asosiy maqsad** xodimlarni Ona Vatanga muhabbat va xizmat burchiga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularni yuksak insoniy va ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan xalqparvar xodim darajasiga yetkazish, xodimlarni yagona g'oya asosida jipslashtirgan holda ongiga xalq manfaatlariga vijdonan hamda sidqidildan xizmat qilish – oliy va sharafli burch ekanligini singdirishdan iboratdir.

Binobarin, ma'naviy-ma'rifiy ishlar har qanday mashaqqatli xizmat ortida yurtimiz manfaati va xalqimizning farovonligi turganini har bir xodim ongiga hamda qalbiga singdirish, shuningdek, ichki ishlar organlarini aholiga o'z vaqtida va sifatli yordam ko'rsatadigan, xalq manfaatlariga xizmat qilishni o'zining muqaddas hamda oliy burchi deb biladigan ijtimoiy yo'naltirilgan professional tuzilmaga aylantirishning asosiy omili hisoblanadi.

Yangi tartibga asosan ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni shartli ravishda quyidagilarga bo'lish maqsadga muvofiq:

1) vatanparvarlik ruhidagi tadbirlar – xodimlarda Ona Vatanga muhabbat, qasamyodiga hamda xizmat burchiga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish

orqali ularda ma'naviy dunyoqarashni yuksaltirish, shuningdek, har qanday vaziyatda jamoat xavfsizligi va qonuniylikni ta'minlash, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq vazifalarni vijdonan hamda sidqidildan bajarishga tayyorgarligini oshirish hamda mustahkamlashga xizmat qiladi;

2) axloqiy-psixologik tadbirlar – xodimlarda yuksak odob-axloq va ruhiy barqarorlikni, shuningdek. xizmat va kundalik hayotda huquqbuzarliklarning har qanday ko'rinishlariga, shu jumladan korrupsiyaga nisbatan murosasizlik kayfiyatini shakllantirish, fuqarolar bilan muloqot jarayonida kasbiy muomala madaniyatiga rioya qilgan holda har qanday vaziyatda o'zini ichki ishlar organlari xodimi degan yuksak nomga munosib ravishda namoyon etish, jamoada ishchanlik va ijobiy munosabat muhitini yaratish, o'zaro hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi;

3) huquqiy tadbirlar – xodimlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqsadlar asosida ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar quyidagi **metodlarda** amalga oshiriladi:

- yakka tartibda;
- axborot targ'iboti;
- jamoatchilikni jalb etish;
- ijtimoiy va huquqiy choralarni amalga oshirish;
- profilaktik choralarni amalga oshirish.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar ishontirish, muhokama qilish, ibrat (namuna, master-klass ko'rsatish), sog'lom raqobat (musobaqa), mukofotlash (rag'batlantirish), tanqid qilish (intizomiy ta'sir) usullari orqali amalga oshiriladi.

Yakka tartibdagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar rahbarlar tomonidan qo'l ostidagi xodimga individual ta'sir qilish, unda ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-psixologik hamda professionallik sifatlarini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Bunda ma'naviy-ma'rifiy ishlar shaxsiy tarkib bilan muntazam va maqsadli o'tkazilishi lozim bo'lib, o'rnatilgan tartibda qayd etib boriladi.

Tanishuv suhbati xodim bilan shaxsan tanishish, unga jamoada va turli vaziyatlarda o'zini munosib tutish, xizmatning o'ziga xos tomonlarini, shuningdek, ilg'or tajribalarni targ'ib qilish maqsadida xizmatga yangi qabul qilingan, ta'lim muassasalarini tamomlab kelgan yoki lavozimga tayinlangan xodimlar bilan 10 kun muddat ichida o'tkaziladi.

Ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi suhbatlar xizmat ko'rsatkichlari past bo'lgan, noo'rin harakatlar sodir etgan va xizmat intizomini buzgan, ruhiy holatida salbiy o'zgarishlar sezilgan xodimlar bilan har oyda kamida bir marotaba o'tkaziladi.

Yakka tartibdagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar ichki ishlar organlari xizmatiga yangi qabul qilingan, ta'lim muassasalarini tamomlab kelgan, xizmatni davom ettirish uchun boshqa xizmat va organlar, shuningdek, idora va tashkilotlardan o'tkazilgan, shuningdek xavf guruhidagilar bilan xodimlar bilan birinchi navbatda o'tkazilishi lozim. Ruhiy holatida salbiy o'zgarish sezilgan xodimlar bilan olib boriladigan yakka tartibdagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar barcha darajadagi rahbarlar tomonidan amalga oshiriladi, zarurat bo'lganda psixolog va psixiatr ham jalb etilishi mumkin.

Xavf guruhidagi xodimlarga xizmat vazifalarini bajarishda bir vaqtning o'zida yoki bir oy muddat davomida ketma-ket uch va undan ortiq kamchiliklarga yo'l qo'ygan, xizmat hamda xizmatdan tashqari paytda ikki va undan ortiq qo'pol nosog'lom yoki axloqqa zid harakatlar sodir etgan, fuqarolar bilan ziddiyatli munosabatlarga kirishishi natijasida bir oy davomida uch va undan ortiq asosli murojaatlar kelib tushgan, bir oy muddat davomida boshliq (komandir)lar bilan asossiz ravishda uch va undan ortiq ziddiyatli vaziyatlar keltirib chiqarib, ma'naviy-ruhiy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatgan, shuningdek, oilada yakka boquvchi bo'lganligi, ikki va undan ortiq voyaga yetmagan yoki bolaligidan nogiron bo'lgan farzandlarini yolg'iz o'zi tarbiyalayotgan, yaqin qarindoshlari

(turmush o‘rtog‘i, tug‘ishgan farzandlari, ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari, qaynota hamda qaynonasi) orasida og‘ir kasallikka chalinganlari bo‘lgan, oilasi notinch ahvoldagi, og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan xodimlar kiradi.

Axborot targ‘iboti xodimning xizmat faoliyati uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar, yangiliklar, shuningdek, davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlarni yetkazish hamda mohiyatini tushuntirishdan iborat.

Jamoatchilikni jalb etish xodimlar bilan o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirishda ichki ishlar organlarining Faxriylar, Xotin-qizlar kengashlari va Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkilotlari kabi jamoatchilik tuzilmalarini jalb etish, ularning imkoniyatidan foydalanishni o‘z ichiga oladi hamda mazkur tashkilotlar faoliyatini ichki ishlar organi boshlig‘i (komandiri)ning ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi.

Ijtimoiy va huquqiy choralar barcha darajadagi rahbarlar tomonidan amalga oshiriladi va bunda yuridik ta’minlash, moliya, tibbiyot hamda boshqa sohaviy xizmatlar o‘z vakolati doirasida ishtirok etadi.

Ichki ishlar organlarida quyidagi ijtimoiy va huquqiy choralar amalga oshiriladi:

- xodim hamda uning oila a’zolarini ijtimoiy va huquqiy himoyalash borasida davlat kafolatlarini ta’minlash;

- xizmat burchini bajarish vaqtida halok bo‘lganlarning oila a’zolarini, tan jarohati olib nogiron bo‘lganlarni, shuningdek, ijtimoiy va huquqiy himoyaga muhtoj xodimlarni ijtimoiy-maishiy ahvolini o‘rganib, ularga moddiy, ma’naviy hamda huquqiy yordam ko‘rsatish, ularni davolash va sog‘lomlashtirish tadbirlarini amalga oshirish;

- og‘ir ijtimoiy ahvoldagi xodimlarning yaqin qarindoshlarini, shuningdek, xizmat burchini bajarish vaqtida tan jarohati olib nogiron bo‘lib qolgan yoki halok bo‘lgan xodimlarning mehnatga layoqatsiz oila a’zolarini ish bilan ta’minlashda yordam ko‘rsatish;

- xodimlar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy va huquqiy himoyalash masalasida davlat hamda mahalliy hokimiyat organlari, jamoat birlashmalari bilan o‘zaro hamkorlik qilish.

Profilaktik choralarni amalga oshirish reydlar hamda boshqa simulyatsion tadbirlar o‘tkazish, shuningdek xodimlar va boshqa shaxslar orasida tarqalgan ma’lumotlarni tahlil qilish orqali salbiy holatlar kelib chiqishining oldini olish bo‘yicha zarur choralarni belgilashni nazarda tutadi.

Ichki ishlar organlarida xizmat intizomi va qonuniylikni mustahkamlash, sog‘lom ma’naviy-ruhiy muhit barqarorligini ta’minlash borasida barcha darajadagi rahbarlar o‘zlarining bevosita bo‘ysunuvidagi xodimlar bilan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirishga hamda mustahkamlashga shaxsan javobgar hisoblanadi. Rahbarlarining ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarlari va shaxsiy xavfsizlik bo‘linmalari, shuningdek, ijtimoiy va huquqiy himoya bo‘lim (bo‘linma)lari hamda sohaviy xizmatlardagi kadrlar bo‘linmalarining mas’ul xodimlari tomonidan muvofiqlashtiriladi hamda nazorat qilib boriladi. Tizimda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yuqori saviyada tashkil etish va samarali amalga oshirish borasidagi ishlarga IIV Ma’naviy-ma’rifiy ishlar va kadrlar bilan ta’minlash departamenti umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. Bu boradagi ishlarni nazorat qiladi va muvofiqlashtiradi. Aytish joizki, ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning aniq mexanizmlar asosida tizimli tashkil etilayotgani xodimlarni kasbiy tarbiyalash, ma’naviy-axloqiy saviyasini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari» degan hayotbaxsh g‘oya asosida amalga oshirilayotgan keng qamrovli ma’naviy islohotlar barcha sohalarda o‘zining ijobiy aksini namoyon etmoqda. Zero, davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, har qaysi davlat, har qaysi xalq intellektual salohiyati, yuksak ma’naviyati bilan qudratlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Тошкент – 2017. -Б.127-131.

2. Мирзиёев Ш.М. 25 октябрь – Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар органлари ходимлари куни муносабати билан байрам табриги. https://yuz.uz/news/ichki-ishlar-organlari-xodimlari-va-faxriylariga

3. Форобий А.Н. "Фозил одамлар шаҳри", - Тошкент, 2022 й. – Б. 10

4. Форобий А.Н. Бахт-саодатга эришув йўллари ҳақида - Тошкент, 2020 й. – Б. 24.

5. Абдулла Авлоний.Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Тошкент, "Ўқитувчи", 1992 й. – Б. 10.

6. Имомназаров М. Маънавиятимизнинг такомил босқичлари. – Тошкент: Шарқ, 1996 й. – Б. 67.

7. Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. Тошкент – 1998 й. – Б. 8.

8. Маҳмудов Т. Мустақиллик ва маънавият. – Тошкент, 2001 й. – Б. 9.

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 2 апрелдаги "Ички ишлар органларининг жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасидаги фаолиятини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-5050-сон қарори \\ Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 02.04.2021 й., 07/21/5050/0280-сон

10. Ички ишлар вазирининг 2021 йил 21 октябрдаги "Ички ишлар органлари маънавий-маърифий ишлар хизмати фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги буйруғи

Otajonov R.N. Ma'naviy-axloqiy tarbiya: mohiyati, mazmuni va xususiyatlari

Maqolada ma'naviy-axloqiy tarbiya tushunchasining mazmun-mohiyati, ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari, jamiyatda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, xususan, ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy fazilatlarini yuksaltirishda ma'naviy-axloqiy chora-tadbirlarning ahamiyati, bu borada amalga oshirilayotgan ishlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, ma'rifat, milliy o'zlik, tarbiya, ichki ishlar organlari, konsepsiya, profilaktik chora-tadbirlar.

Отажонов Р.Н. Духовно-нравственное воспитание: сущность, содержание и особенности

В статье раскрывается сущность духовно-нравственного воспитания, анализируется проводимая деятельность по повышению эффективности духовно-воспитательной работы в обществе, в частности, затронуто значение духовно-нравственных мероприятий по совершенствованию профессиональных качеств сотрудников органов внутренних дел.

Ключевые слова: духовность, просвещение, национальная идентичность, образование, органы внутренних дел, понятие, профилактические меры.

Otajonov R.N. Spiritual and moral education: essence, content and features

The article deals with the essence of the concept of spirituality, issues of spiritual and moral education, the work being carried out to increase the effectiveness of spiritual and educational work in society, in particular, the importance of spiritual and moral measures to improve the professional qualities of the officers of the organs of internal affairs.

Key words: spirituality, enlightenment, national identity, education, organs of internal affairs, conception, preventive measures.

Beysenov Ulug'bek Baxtiyor o'g'li,
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi
"Harbiy tayyorgarlik" kafedrasi o'qituvchisi,
mustaqil izlanuvchi

KURSANTLARNI KASBIY ONGINI SHAKLLANTIRISHDA KASBIY MA'LUMOTLAR ASOSIY MANBA SIFATIDA

Yangi O'zbekistonda harbiy xizmatchi bo'lmish kursantlarning kasbiy ongini shakllantirishda kasbiy ma'lumotlarning roli, o'rni va vazifasi o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Kursantlarning kasbiy tayyorgarligiga e'tibor zamon talabiga javob beradigan darajada ularni tayyorlashni taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Harbiy kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish tizimi prinsipial jihatdan mutlaqo yangi asosga o'tkazildi. Mustaqillikning dastlabki yillarida mahalliy ofitser kadrlar yurtimizdagi harbiy xizmatchilar umumiy sonining atigi 0,6 foizini tashkil etardi. Ofitserlarni tayyorlash esa uchta harbiy bilim yurtida va bor-yo'g'i uchta harbiy mutaxassislik bo'yicha olib borilar edi. Amalga oshirilgan ishlar natijasida qo'shimcha ravishda yangi, zamonaviy harbiy ta'lim muassasalari tashkil etildi, kursantlarni o'qitish tizimi esa ko'p tarmoqli asosda yo'lga qo'yildi" [3, 319].

Kursantlarning kasbiy ongini shakllantirishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan ular tomonidan olinayotgan kasbiy axborot va ma'lumotlarning to'g'riligiga ham bog'liq. Ammo kursantlarda kuchli iroda mavjud bo'lmasa, mavjud to'g'ri ma'lumotlar asosida chiqarilgan oqilona qarorlar ham qog'ozda qolib ketaveradi. O'z vaqtida faylasuf K.Makiavelli: "Davlat, hokimiyat, qonunlar va kuch yordamida bajariladi", - deb yozgan. K.Makiavellining o'zi davlatni qonunlar yordamida boshqarish tarafdori bo'lgan. Ammo tarixiy taraqqiyot qonuniyatlarini o'rganish va saroy tafakkuri uni qonunlar ham doimo kutilgan natija bermaydi" [4, 165], degan fikrga olib kelgan.

Zamon shiddat bilan o'zgarib borar ekan zamon o'zgarishi fuqarolar o'rtasidagi jumladan, harbiylar o'rtasidagi kommunikatsiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Harbiylarning kasbiy faoliyatini yo'lga qo'yishda boshqarishda axborotsiz yashash, rivojlanish davr talabiga javob bermaydi. Harbiylarning kasbiy ongini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida "zamonaviy usullar va didaktik vositalar, shuningdek, axborot-kommunikatsion texnologiyalar va simul-yatsion dastur vositalarining imkoni-yatlaridan samarali foydalanish" [5, 14] muhim o'rin tutadi.

Ma'lumotlar yoki ba'zida axborotlar mohiyatiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi. Ilmiy jihatdan, ya'ni:

a) kasbiga oid maxsus ma'lumotlar;

b) kursantlardan va ommaviy axborot vositalaridan olishadigan ijtimoiy ma'lumotlar;

v) tezkor ma'lumotlar (ushbu ma'lumotlar maxsus ma'lumotlar sirasiga kiradi).

Kursantlar o'zlarining kasbiy onglarida turli ma'lumotlarni tahlil qiladi va faoliyat uchun zarur qarorni qabul qilishadi. Ma'lumotlar to'g'ri yoki yolg'on bo'lishi mumkin. Kasbiy ong shundan kelib chiqib tahlil qilinadi. Kasbiy ongning shakllanish manbaini ijtimoiy ma'lumotlar tashkil etadi. Shu bois ongni kasbga yo'naltirishda ijtimoiy ongning roli benihoya katta. Kasbiy ongda barcha ma'lumotlar saqlanib, eslab qolinadi, bunda kasbiy xotiraning roli katta. Amaliy faoliyatimizdan bilamizki agar texnik vositalar, jumladan kompyuterlar bo'lmaganida ma'lumotlar shunchalik ko'p bo'lib ketardiki, natijada inson faoliyati kasbiy, ijtimoiy ongi murakkablashib ketgan bo'lar edi.

Bugungi kunga kelganda kasbiy, ijtimoiy ma'lumotlar shu darajada ko'payib ketganki, natijada ommaviy axborot vositalarining harbiy xizmatchilarning ongiga

(umuman olganda har bir shaxs ongiga) hujumi yuzaga keldi.

Hozirgi kunda barcha tomonidan umume'tirof etilgan fikr mavjud, ya'ni "kimda axborot va ma'lumotlar ko'p bo'lsa, o'sha shaxs kuchli" degan qarash keng yoyilgan. Kursantlar ma'lumotlarni olish manbaini quyidagilar tashkil qiladi:

a) yo'riqnomalar;

b) turli hujjatlar, normativ aktlar;

v) buyruqlar;

g) turli toifadagi fuqarolar (shaxslar) bilan bo'ladigan suhbatlar.

Kursantlarning kasbiy ongi ularning faoliyatini tartibga soluvchi vosita hisoblanadi. Kasbiy ong kursant tafakkurining mahsuli hisoblanadi hamda xizmat va o'qish vaqtida, tabiat va jamiyatga nisbatan munosabatlarida o'zining vazifasini bajarganligini ko'rsatadi. Kursantlarning kasbiy ongini rivojlantirish interfaol metodlardan foydalangan holda bajariladi. "Interfaol metod va texnologiyalar yordamida tashkil etiladigan mashg'ulotlar (o'quv seminarlari, trening, vebinar)da tinglovchilar o'z fikr, xulosalarini o'zaro birgalikda muhokama qilishadi hamda boshqalarning fikr va xulosalarini tadqiq etish jarayonida refleksiv va akmeologik qobiliyatlarni namoyon etishadi, guruhiy faoliyat jarayonida yagona, o'zaro hamkor, hamjihat jamoaga aylanadi" [6, 14].

Kursantlarning barcha faoliyati aniq sharoitlarda, ayniqsa, xizmat vazifasini bajarishlarida turli usul va ko'rinishlarda namoyon bo'lib boradi. Kursantlarning har bir qilinayotgan xizmat harakati ma'lum narsa va predmetga qaratilgani uchun ham faoliyatlari predmetli harakatlar majmuasi sifatida tasavvur qilinadi. Har qanday harakatli xatti-harakatlar tashqi olamdagi predmetlarning xususiyati va sifatini o'zgartirishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, har bir kursantning dars jarayonidagi ma'ruzani yozib borayotgan predmetli harakati yozuvga qaratilgan bo'lib, u avvalo o'sha daftardagi yozuvlar soni va sifatida o'zgarishlar qilish orqali, bilimlar zaxirasini boyitayotgan bo'ladi.

Bizningcha, kursant faoliyatini va uni tashkil etuvchi predmetli harakatlarning aynan nimalarga yo'naltirilganligiga qarab, ichki va tashqi turlari farqlanadi. Tashqi faoliyat kursant shaxsni o'rab turgan tashqi muhit va undagi narsa-hodisalarni o'zgartirishga qaratilgan bo'lsa, ichki faoliyat birinchi navbatda aqliy faoliyat bo'lib, sof psixologik jarayonlarning kechishidan kelib chiqadi. Kursantlar tajriba ortib borgan sari, sekin-asta bu harakatlar ichki aqliy jarayonlarga aylanib boradi.

Buni kursantlarni xizmat faoliyatidagi nutq faoliyatini ko'radigan bo'lsak, kursant dastlabki so'zlarni xizmatni boshlashda baland ovoz, kuchli tovush bilan tashqi nutqida ifoda etadi, keyinchalik ichida o'ziga gapirish (buyruqlarni takrorlash)ni o'rganib, o'ylaydigan, mulohaza yuritadigan, o'z oldiga maqsad va rejalar qo'yadigan bo'lib boradi.

Kursantlardagi ruhiy sog'lomlik ongning boshqaruv imkoniyati mavjudligini bildiradi, ayrim hollarda hissiyotga berilish esa kursantning o'z funksiyasini bajarishdan chetlashganligini namoyon qiladi. Kursantlardagi xizmatga munosabatlar ong nazoratida amalga oshirilsa, kursantning xulq-atvorida, faoliyatida va kasbiy muomala jarayonida hech qanday nuqsonlar, chetga og'ishlar sodir bo'lmaydi. Kursantlardagi patologik holatlarni tahlil qilish ong mohiyatining genezisini atroflicha anglab olishimizga xizmat qilishi mumkin. Shu bois kursant ongidagi xotiraning susayishi kursantning his-tuyg'ulari va munosabatlarini o'zgartiradi; simpatiya antisimpatiya bilan, quvonch qayg'u bilan, optimizm pessimizm bilan o'rin almashib turishi kuzatiladi.

Kursantlarning ongining yuqorida ta'kidlab o'tilgan barcha funksiyalari til va nutqida namoyon bo'ladi. Kursantlar nutqi orqali va yordamida bilimlarini o'zgartiradi, o'zining tafakkuri orqali hayoti va faoliyatini boyitadi. Psixologik talqinlarga qaraganda, kursantlar tomonidan egallangan til boyliklari, qoidalari, ma'lum ma'noda kursantlarning yaqqol, individual ongi sifatida yuzaga keladi. Kursantlar bu jarayonda o'z-o'zini anglashi, o'z-o'zini tarbiyalashi, o'z-o'zini takomillashtirishi

asosida jamiyatdagi yangilanishlarini ko‘ra olishi, ulardan o‘z xizmat faoliyatida samarali foydalana olishi muhimdir. “O‘z-o‘zini anglash insonning faol harakati jarayonida muntazam rivojlanib boruvchi jarayon bo‘lib, bilish va anglash kabi tarkibiy qismlardan tashkil topadi. O‘z-o‘zini bilish birdaniga, to‘satdan namoyon bo‘lmaydi. Inson o‘z-o‘zini bilishga bilimlarni egallash, kishilar bilan muloqot va faoliyat jarayonida erishadi” [7, 16].

Kursantlar shaxsiy kasbiy ongi orqali muhitni anglaydi, xizmatga munosabat bildirishga turtki bo‘ladi, natijada shakllanish va rivojlanish xususiyatga ega. Ammo kursant bir marom, usul, yo‘nalishda uzoq vaqt ishlashi oqibatida shu kursantlar jamoasiga ko‘nikadi, shunday fikrlashga o‘rganib qoladi va uning xatti-harakatlari bir qolipga tushib qoladi. Kursant yangilikka intilib yashash kerak, lekin ko‘p hollarda ba’zi bir kursantlar bunday yangilikni xohlashmaydi. Chunki har qanday yangilik yangicha ish uslubi, shakli ko‘p ham ma’qul kelavermaydi, sababi yangilik doimo ma’lum bir ortiqcha harakat, ortiqcha tashvishlar keltirib chiqarayotgandek tuyulaveradi.

Kursantlarni yangilikka intilmasligi yangilikning mohiyati, mazmunidan uzoq bo‘lishga olib keladi. Yangilikka intilish esa yangidan-yangi g‘oyalarni tinmay izlashga o‘rgatgan va o‘rgatadi. Bilimi past kursant lavozimda xizmat olib borganda ham, hayotdagi tasodiflar, nomukammallik o‘zgarish va burilishlardan qo‘rqadi. Bunday toifadagi kursant turg‘unlik, konservatorlik tarafdoridir. Kuchli kursant (bilimli kursant) esa aksincha, nomukammallikni, to‘qnashuvlarni tabiiy hol deb biladi. Xizmatdagi qiyinchilikdan cho‘chimaydi, hatto ba’zida uning irodasini chiniqtiradi, chiniqishlar esa muvaffaqiyat (g‘alaba)ga bo‘lgan yo‘l hisoblanadi.

Kursantlarning kasbiy ongini o‘ziga xos tomonlaridan biri bu ularning ongiga faqat ishontirish orqali kirib borish mumkinligidir. Harbiylar pedagogikasida ishontirish quyidagi turlarga bo‘linadi:

a) verbal ishontirish – bunda kursantga so‘z orqali ishontirish ishlari olib boriladi;

b) vizual ishontirish – bunda kursant o‘z ko‘zi bilan ko‘rsagina ishonadi;

v) barqarorlik – bunda kursant hujjatlar, dallillar qo‘l ostida bo‘lsagina ishonadi.

Kursantlar kasbiy faoliyatining predmetini turli ma’lumotlar, xabarlar, uni tahlil qilish va mustahkamlash usullari tashkil qiladi. Bugungi kursantlar buyruq va qonunlarni amalda bajarilishini ta’minlay oladigan, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga, siyosiy va iqtisodiy, huquqiy islohotlarni amalga oshirishga qodir bo‘lmog‘i lozim. Ularning kasbiy pedagogik madaniyatini oshirish ham muhimdir. “...xodimlarning pedagogik madaniyatini shakllantirish – huquqiy normalarga nisbatan hurmat, fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish bilan bog‘liq ijtimoiy foydali omildir” [8, 72]. Bir so‘z bilan aytganda, kursant bo‘lajak huquqiy madaniyatli xodim bo‘lmog‘i kerak.

Har bir kursantning kasbiy ongiga ta’sir etishda uning manfaatlari asosiy o‘rinni egallaydi. O‘z faoliyatini to‘g‘ri tanlay olmagan kursant barcha narsalarga befarq bo‘lib qoladi va tarbiyaviy ta’sirlarga qarshilik ko‘rsatadi. Kursantlar faoliyatidagi motivlar muhim omil hisoblanadi. Kursantlarning motivi – ularning ongida aks etgan talab. Kursantlarning motivini ularning xohishi, istagi, qiziqishi, ideallari, dunyoqarashlar tashkil etishi mumkin. Kursantlarning talablari qanchalik keng va xilma-xil bo‘lsa, motivlari ham shunchalik turg‘un, xilma-xil, ko‘p qirrali bo‘ladi.

Motivlar kursantlarning faoliyatini uyg‘unlashtirib va yo‘naltiribgina qolmay, balki subyektiv faoliyati va harakatlariga shaxsiy ma’no va mazmun kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент Ўзбекистон, 2019.
2. Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги қонуни //URL - https://lex.uz/docs/5013007 - Электрон ресурс
3. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б. 319.
4. Алемасов В. Фалсафа ёхуд фикрлаш чанқоғи. – Т., 2007. – Б. 165.
5. Алимардонов З.Ш. Олий ҳарбий таълим муассасаларида бўлажак офицерларининг касбий компетентлигини такомиллаштириш. Пед.фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – Б. 14.
6. Мусаев О.Қ. Компетенциявий ёндашув асосида педагогик қобилиятлар комплексини такомиллаштириш (олий таълим муассасаси ўқитувчилари мисолида). Пед.фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – Б. 14.
7. Каримова М. Ҳарбий-педагог кадрларнинг инновацион салоҳиятини ривожлантириш – касбий етуклик омили сифатида. – Тошкент: Фан ва технология, 2010. – Б.16.
8. Махмудов Р. Касбий педагогика: Дарслик. – Тошкент: ЎзР ИИВ Академияси, 2003. –Б.72.

Beysenov U.B. Kursantlarni kasbiy ongini shakllantirishda kasbiy ma'lumotlar asosiy manba sifatida

Maqolada kursantlarni kasbiy ongini shakllantirish va takomillashtirish bilan bog'liq masalalar tahlil qilinadi. Xususan, bunda axborot-kommunikatsion texnologiyalar foydalanish, ma'lumotlarni tahlil qila olish, kasbiy ong kursant tafakkurining mahsuli hisoblanishi, uning ilmiylik jihatlari ochib beriladi. Shu bilan birga, ushbu sohadagi yangilanish va o'zgarishlar tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: harbiy xizmatchi, kursant, kasbiy ong, jamiyat, zamonaviy texnologiya, pedagogik madaniyat, verbal va vizual ishontirish, motiv.

Бейсенов У.Б. Профессиональная информация - основной источник формирования профессионального самосознания курсантов

В данной статье анализируются вопросы формирования и совершенствования профессионального сознания, раскрываются вопросы и научные аспекты использования информационно-коммуникационных технологий и умения анализировать полученную информацию, а также вопросы профессионального сознания, как продукта мышления. Сделаны рекомендации по пунктам анализа.

Ключевые слова: военнослужащие, курсант, профессиональное сознание, общество, современные технологии, педагогическая культура, вербальный, ви зуальный, убеждения, мотив.

Beysenov U.B. Professional information as the main source in the formation of professional consciousness of cadets

This article analyzes the issues of formation and improvement of professional consciousness. In particular, the issues of the use of information and communication technologies, the ability to analyze knowledge, consider the professional consciousness and thinking of the cadet, its scientific aspects are revealed. The novelty and change of this area are investigated.

Key words: military personnel, cadet, professional consciousness, society, modern technology, pedagogical culture, verbal and visual beliefs, motive.

Alimardonova Malika Botir qizi,
O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

WAYS TO CORRECTLY EVALUATE GRADUATE STUDENTS' WRITING SKILLS

"The quality of assessors is critical to the quality of the assessment result."
Pearl Zhu, Quality Master

Introduction. Today, international cooperation is expanding, which is evident in the creation of joint educational institutions in the field of education, the development of joint courses, participation in international educational projects. Graduates of many universities specializing in foreign languages in our country have great opportunities for internships abroad, conducting research in their field by attracting foreign materials, improving their skills in foreign companies and sharing their experience in our country. can also share. In this regard, the training of specialists combining professional competence and high culture in higher education institutions has been identified as the most important task. There is no doubt that in today's field of education, direct written communication with oral communication is also becoming increasingly important, i.e. the role of written communication in receiving and transmitting information is increasing, which in turn has the ability to express written opinions. the task of training mature professionals. Thus, in today's modern environment, not only linguistic but also non-linguistic university students need to have a high level of written speech in a foreign language for exemplary written communication in a foreign language. In order to achieve the most effective results in science and textbooks, it is necessary to have a clear understanding of the criteria by which students' language and communication skills must meet.In order to further increase the effectiveness of reforms to liberalize all spheres of life, to create conditions for the comprehensive and rapid development of the state and society, the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev on "Strategy for further development of the Republic of Uzbekistan" signed the decree. Part of the decree pays special attention to "Development of education and science", plans to further improve the system of continuing education, increase access to quality educational services, continue and improve the policy of training highly qualified personnel in line with modern needs of the labor market. (https://lex.uz/docs/-3107036 20.11.2021). The following article focuses on the importance of assessment in the development of writing skills of undergraduate students in higher education, based on a number of principles provided by this law.

Main part. In recent years, there has been a rapid development of testology in Uzbekistan. The test is recognized in some cases as one of the easiest and most effective means of control in the teaching of foreign languages. The need to test each language skill separately to ensure that tests are highly reliable and weighty leads to a variety of methods and techniques that take into account the specificity of specific aspects of foreign language learning. Effective methods and assessment methods for testing the development of receptive skills (reading, listening) cannot be used to assess the level of development of productive skills such as speaking and writing. Thus, it is necessary to develop a technology, a method in which each language skill should be tested and evaluated separately using specific methods.

It has been repeatedly emphasized that appropriate scales and assessment criteria need to be developed to assess each language skill, and over the past decade, Council of Europe experts have developed a competency assessment system for each foreign language, using descriptors. , described in detail the requirements for

knowledge of a foreign language at different levels.

The introduction of the national level test in our country as a method of monitoring language skills, in particular, requires the development of methods of control and measurement of written skills (CMM). There are a number of challenges in this area, as it is difficult to introduce a test to assess written speech. For this reason, the relevance of the topic is determined by the need to formulate criteria for the assessment of written speech, taking into account both international experience and the educational context of our country.

The main purpose of this is to improve the methods of monitoring the level of development of writing skills in a foreign language.

Criteria for assessing writing (rubrics) in various international test formats are analyzed in detail, with CEFR, TOEFL, IELTS assessment criteria developed within the framework of the Council of Europe and ALTE Association documents, as well as higher education programs and the Unified State Graduation Exam as a written part (use) attention is paid to the components of discursive powers in the context of education of the Republic.

* Development of a system of assessment criteria, which is the most important in foreign language educational institutions;

* their distribution in priority order;

* determine the most appropriate formats (genres) for testing written speech. A comparative analysis of the significance of each criterion will provide some methodological recommendations for testing written speech and ways to evaluate it.

1. In the process of writing evolution, on the one hand, there is an improvement in the visual expression of speech (ideographic, phonographic, hieroglyphic), on the other hand, there is the fixation of frozen forms, which makes it difficult to master the spelling skills of modern foreign languages. Therefore, it is necessary to take into account both ontogenetic and phylogenetic features of the development of the written system of language in methodological concepts.

2. Uzbek and English are not phonemographic languages. For this reason, thinking in our own language when describing a written conversation creates some contradictions when describing it in English.

3. In addition to the ability to write, a student writing in a foreign language must have a thorough knowledge of other skills, in particular grammar and vocabulary (as part of linguistics).

4. Curricula and materials are adjusted differently depending on the methodological experience and the ratio of sound system and spelling system. The Uzbek language is very close to the ideal phonetic writing, so the development of spelling competence in teaching English to Uzbek-speaking students is an important challenge and should be neglected at all stages of teaching. will not happen.

5. The need to improve the methods of monitoring the development of writing skills and the introduction of a single state examination within the university graduation requires the development of criteria for the assessment of writing through the coordination of international and domestic traditions. Analysis of international assessment scales and expert analysis of assessment criteria by higher education teachers allows the formation of a single general theoretical system for the assessment of written work in a foreign language, covering all of the above types of competencies.

6. The generality of the developed assessment system does not mean that it can be used in all educational institutions. Each specific situation (for example, testing of graduate students of universities specializing in foreign languages) necessitates the implementation of a standardization procedure for assessment in the examination group.

Mixed methodological research conducted by Moore (11, https://www.britishcouncil.org/exam/aptis/

research/ publications / investigating-valid-constructs-writing-eap-tests.pdf, 12.01.2021) has shown that grammar and vocabulary has been found to be the most important writing structure for university entrance exams in Japan, but the organization and content are essentially the most serious approach to university writing lessons, especially academic writing goals in English. concluded that in order to inform the audience and to take into account the mechanics. After examining the EFL writing qualities that teachers pay special attention to, they found different levels of tendency to consider multiple writing constructions in students 'presentations. In particular, the inconsistency in the interpretation of speech competence and the special attention paid to linguistic competence by the rating participants in the study indicate the disproportion of writing features and the lack of task-specific directions in the assessment of writing.

Writing evaluation problems. Rezaei and Lovorn (12,39) argue that different interpretations of assessment rubrics used by different teachers lead to unreliable estimates, which need to be addressed through the development of locally appropriate rubrics set for specific groups of language learners.

It should also be noted here that a clear theory of written language assessment is not supported by all scholars and, as Kumming (8, 214) points out, there is "no agreed definition of writing assessment" in the context of L2. The lack of this agreement is largely due to the fact that scholars are moving away from writers and class processes. Evaluation initiatives are rarely discussed or implemented locally. Instead, they are usually set up from the top down, or programs that fail to meet the expectations of local practitioners are set by the people above. When administrators of similar writing programs are unfamiliar with the possibilities of a comprehensive approach to assessment, as well as the basic concepts, documented history, and recorded beliefs associated with different approaches, negative feelings about evaluation can increase. It is likely that most English teachers do not clearly understand the basic concepts in measuring Written Skills, such as compliance and reliability, as well as statistical formulas related to psychometry. This ignorance is probably due to the "lack of communication between the composition and measurement communities" (1, 257), which leads to a lack of analysis of the assessment details of language teachers.

Moss (10,12) and Huot (7,550) mainly advocate writing assessment as a general measurement activity, which is rarely related to the specific nature of the context or task, and the quality of the written assignment should be evaluated according to its specific discursive and functional characteristics. They see academic writing assessment as a separate activity that is attached to a different agenda by different teachers and professionals and is largely separated from the educational dimension. Hedgcock (4, 607) concluded that "common views and criticisms, along with careful empirical studies of many evaluation variables, have led practitioners and researchers to raise serious concerns about the reliability and validity of L2 writing performance measurements".

Assessing Perceptions of Task Types Heading and speed are two distinctive features of each written assignment and should be considered for evaluating written assignments. According to the scholars, the first illuminates the description of the goal, the order of the response, the format of the task, and finally the evaluation criteria when determining the relative weight attached to several features of the record. However, the query acts as a guide language that provides clear information about the context. Therefore, the tasks or topics that students need to write can have a major impact on its content and presentation in written performance. Linguists point out that the quality and quantity of He and Shi writing content can vary, as familiarity with a topic can produce rich evidence, and general topics can lead to better organization and fewer

linguistic errors. This issue may require the development of appropriate guidelines for class practice (5,443-444) or may be insignificant because speed and difficulty in task may not significantly change scores and simply socially demanding topics may jeopardize the validity of scores (9.95-116) .

According to Kumming (8, 204), a professor at the University of Toronto, teachers typically understand ICT writing guidelines in general ways, but surprisingly, their student assessment concepts vary depending on the type of course, i.e., whether English is taught for general or specific purposes. Unlike English for general purposes, ESP course entries should be evaluated according to a clearly expected method. Regardless of the writing course, there is a natural tendency to evaluate the writing of graduate students in general in order to set common goals. We believe that the effectiveness and simplicity of this assessment will attract many teachers as it unites the faculty around common rhetorical directions and writing objectives. In terms of ease of application, the overall assessment is likely to outperform the localized or contextual collegial assessment system, which is related to the specific nature of the practices, goals, directions, and courses. At the same time, it has been argued that general rubrics obscure contextual expectations, ignoring the discourse specificity of written genres. This should result in the creation of stereotypical class practices that are most appropriate to a single common ground or record assessment.

Conclusion. Analyzing the conclusions and results of these comments, the same grading system given for different writing tasks shows that in Uzbekistan, teachers of students studying a foreign language in academic writing apply the same criteria for different writing tasks. There is a general assessment system that draws on common experiences in teaching similar curricula or meeting similar curriculum requirements. Attempting to apply general assessment criteria may violate the principle of constructive coordination (Biggs & Tang, 2007), which is a level of success that represents a consistent relationship between clear learning objectives, methods of achieving these goals, and assessment criteria used for assessment. Whether testing or evaluating student work can have a positive or negative impact on the next level of teaching and learning is discussed in practical linguistics through the topic of Washback. In this case, positive results are obtained when there is no inconsistency between the content and format of the test and the content and format of the curriculum.

Content authenticity test shows its relevance to the curriculum, thus laying the groundwork for Washback, as thorough preparation before the test and careful review of the content after the test can yield positive results for students and teachers. However, it should be noted that in a narrow curriculum, false positive "Washback" can occur when student achievement is assessed on the basis of low-achieving goals or when the situation is consciously or unconsciously maintained. Given this situation, as reported in this article, little attention can be paid to basic writing problems such as speech. This collective softness may also be an indirect result of the resource-intensive nature of linguistic processing in EFL compositions, which prevents attention from addressing high-level issues such as speech, audience, and debate. In addition, very good information on grammatical and lexical knowledge is given when evaluating two records that show a classical orientation towards these two important features. At the same time, it becomes more informative given its grammatical relevance and richness of vocabulary. Comments on the specificity of the context of these common features can raise students 'awareness and expand their linguistic knowledge.

Finally, the only quantitative criterion that differs quantitatively between the two types of writing is the richness of the content, as its frequency is significantly higher than that of the letter when evaluating an argumentative essay. There are several reasons that have the potential to take the

next step. The ideas, arguments, and concepts in an essay are better perceived as content compared to imaginary situations that are formed by student writers and can be considered in order. Also, longer performances in essays (220-350 words) can create a greater demand in the coverage of a topic compared to the laconic presentation of goals when writing a letter with approximately 70 to 170 words.

In short, one of the first responsibilities of a teacher is to create all the conditions for writing and to encourage students who are interested and willing to write scientifically. One of the second responsibilities of a teacher is to promote the success of students in scientific writing. The teacher does this by assessing students 'strengths and weaknesses, carefully monitoring their written work, teaching specific skills and strategies according to students' needs, and providing feedback to reinforce newly learned skills and correct recurring problems. These commitments, after review, determine that evaluation is an integral part of good guidelines. Thus, in addition to other factors, we found a positive correlation between the following conditions and student achievement:

- The degree of appropriate instructional consistency between students 'thinking characteristics and the characteristics of the assignments (i.e., teachers should assess students' previous knowledge and current skill level to adapt them to the task that is appropriate and appropriate to their abilities). ;
- The degree to which the teacher actively monitors students' comprehension and developmental stages; and
- The degree to which student performance is evaluated frequently and appropriately (according to what is being taught).

That is why assessment is an important part of effective writing teaching. The use of diagnostic methods of assessment (identifying the causes of writing problems and the student's learning needs) is better satisfied depending on the writing process, i.e. the steps students take and the strategies they use during writing. How much planning does the student do before writing? Does he have a strategy for organizing ideas? What seems to be stopping you from putting ideas down on paper? How does a student try to write words they don't know? Does the student re-read what they have written? Does the student talk or share while writing their work? What changes did the student make in her initial project?

Improving the writing competence of students of higher education institutions specializing in foreign languages is the biggest step in the complete study of a foreign language. At the same time, first of all, it is necessary for teachers to properly assess the work of students. At the same time, we conducted a number of surveys among students and teachers of foreign languages. The main purpose of this study was to assess the level of development of writing skills of students studying at these universities, and the impact of the correct assessment of writing: In order to get a complete picture of a student's written performance in different text structures and genres, it is necessary to evaluate the writing samples for different purposes. Through this simple survey, students identify strengths and weaknesses in their assessment of writing skills, plan assignments, evaluate learning activities, provide feedback, monitor performance, and report on progress. If we are learning a foreign language, it is worthwhile to study both oral and written speech. Because in such cases, you will not be able to fully express your opinion orally. Then a written talk will help you. The influence of written speech is stronger than that of oral speech. We can try this:

Take a piece of paper and write something like, "You're so beautiful today," or "You're so open today," and now tell someone orally what you wrote first, and then give them the paper. Observe the change in the face as you read the paper and you will be convinced of everything.

Do you see why we need to study writing? In addition, learning to read and

write a foreign language is the basis for quick and thorough learning. As noted above, written speech is the expression of language through text. Written speech is a system of written signs or descriptions that are accepted in a particular language and serve as a communication between people. Written speech is the beginning of the cultural development of human society in the full sense of the word, one of the most important factors in the long and complex process of human development. Written speech gives us the opportunity to fully understand our history, to pass it on to foreigners and the next generation. In addition, we can expand and strengthen our relationship through written speech. Again, the unification of nations as a state expands and complicates the sphere of verbal communication; trade expands, military, political and other agreements are concluded with other nations and states; laws emerge and are strengthened; religious views and other forms of ideology are being formed, and the need for peoples to know their own history is growing. In this case, a written speech becomes necessary. Writing and language are inextricably linked. It is not possible to learn a language without learning the script of that language, or vice versa, without knowing the language to which the script belongs. So, if we want to train future foreign language teachers as mature staff, of course, we need to teach the writing of the language we want to teach.

References

1.Deborah C. (2010). "Assess thyself lest others assess thee", in T. Silva, & P. K. Matsuda (Eds.), *Practicing Theory in Second Language Writing* (pp. 245-262). West Lafayette, Parlor Press.

2. Ferris D., & Hedgcock J. (2005).*Teaching ESL Composition: Purpose, Process, and Practice*. London: Routledge.300-301 p.

3. Hedgcock J., &Lefkowitz N. (1996). "Some input on input: Two analyses of student response to expert feedback on L2 writing", in *Modern Language Journal, 80:* 287-308..

4. Hedgcock J. (2005). "Taking Stock of Research and Pedagogy in L2 Writing", in E. Hinkel (Ed.), *Handbook of Researching Second Language Teaching and Learning* (pp. 597-613). Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates

5. He L., & Shi L. (2012)."Topical knowledge and ESL writing", in *Language Testing 29,* 3: *443-464.*.

6. Hood S. (2010). *Appraising Research: Evaluation in Academic Writing*. London: Palgrave.48 б.

7. Huot B. (1996). "Towards a new theory of writing assessment", in *College Composition and Communication*, *47*: 549-566 p.

8. Kumming A. "ESL/EFL instructors' practices for writing assessment: Specific or general purposes?" In Language Testing, — 2001— 82: 207-224

9. Lim G.S. "Investigating prompt effects in writing performance assessment", in Spaan Fellow Working Papers in Second or Foreign language Assessment, —2010—8: 95 – 11p.

10. Moss P. ("Can there be validity without reliability?" in Educational Researcher, — 1994.–12 p.

11. Mur Y."Investigating valid constructs for writing tasks in EAP tests for use in Japanese university entrance examinations", —2015 , —British Council Report:

Alimardonova M.B. Ways to correctly evaluate graduate students 'writing skills

This article describes methods for accurately assessing the writing skills of graduate students. The importance of the topic is that the importance of improving students 'writing skills in higher education institutions specializing in foreign languages has been analyzed. The

author cites and analyzes the views of foreign scholars on the correct approach to the assessment of writing skills in a foreign language teaching classroom. In particular, it lists the rules of writing, the stages of teaching writing, the criteria for evaluating written work, the types of written assignments. The theoretical part of the article describes the history and graphics of the development of writing skills, as well as the stages of development of spelling. The analysis of the written work shows that the spelling problem has been neglected in the higher stages of teaching for university students due to the emphasis on the assessment of the written work in the Final State Examination programs. The most pressing issue for graduate students is the formation of discursive competence. In this regard, the article focuses on this topic.

Key words: writing, written speech, content, evaluation, type of assignment, improvement, EFL.

Alimardonova M.B. Bitiruvchi kurs talabalarining yozish mahoratini to‘g‘ri baholash yo‘llari

Ushbu maqolada bitiruvchi kurs talabalarining yozish qobiliyatlarini to‘g‘ri baholash usullari tasvirlangan. Mavzuning ahamiyati shundaki, xorijiy tillarga ixtisoslashgan oliy ta’lim muassasalarida talabalarning yozish ko‘nikmalarini oshirish qanchalik muhimligi tahlil qilingan. Muallif chet tilini o‘rgatish sinfida yozuv ko‘nikmalarini baholashga to‘g‘ri yondashish bo‘yicha xorijlik olimlarning fikrlarini keltiradi va tahlil qiladi. Jumladan, yozuv qoidalari, yozishni o‘rgatish bosqichlari, yozma ishlarni baholash mezonlari, yozma topshiriqlarning turlarini sanab o‘tadi. Maqolaning nazariy qismida yozuv malakasining rivojlanish tarixi va grafikasi hamda imloning rivojlanish bosqichlari yoritilgan. Yozma ish tahlili shuni ko‘rsatadiki, yakuniy davlat imtihonlari dasturlarida yozma ishni baholashga katta e’tibor berilganligi sababli oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun o‘qitishning yuqori bosqichlarida imlo muammosi ikkinchi planda qoldirilgan. Bitiruvchi talabalarning eng dolzarb muammosi - bu diskursiv kompetensiyani shakllantirishdir. Shu munosabat bilan maqolada ushbu mavzuga alohida to‘xtalgan.

Kalit so‘zlar: yozuv, yozma nutq, mazmun-mohiyat, baholash, topshiriq turi, takomillashtirish, ICHT.

Алимардонова М.Б. Аспекты правильной оценки навыков письма выпускников высших учебных заведений

В статье проанализированы мнения зарубежных учёных и аспекты улучшения навыков письма студентов высших учебных заведений, специализирующихся в сфере иностранных языков. По результатам анализа перечислены правила письма, виды письменных заданий, этапы обучения письму, критерии оценки письменных работ, описаны методы точной оценки письменных навыков аспирантов. Сделан вывод по проблемам правописания, которые игнорировались у студентов вузов из-за наличия конечного показателя Выпускного государственного экзамена. Актуализирована проблема формирования дискурсивной компетенции.

Ключевые слова: письменность, письменная речь, содержание, оценка, тип задания, совершенствование, английский язык.

Ataniyazov Jasurbek Kurbanbayevich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Oliy ta'limdan keyingi ta'lim fakulteti doktoranti

JINOIY QILMISH BO'YICHA ISH YURITISHNI RAD ETISH YOKI TUGATISHDA JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIKNING RAHBARIY PRINSIPLARIGA MOSLIGI

Dunyoda jinoyat ishlari bo'yicha ish yurituvini yanada insonparvarlashtirish masalalarini tadqiq qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Harbiy xizmatchilarning jinoyat subyekti sifatida huquqlarini ta'minlash maqsadida qo'shimcha kafolatlarni belgilash, sudga qadar ish yurituvini yanada insonparvarlashtirishga qaratilgan yangi institutlarni joriy etish, insonparvarlik prinsipi doirasidagi huquqiy normalarni joriy etish va bu borada tadqiqotlar olib borish muhim hisoblanadi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda sud-huquq sohasidagi islohotlarga alohida e'tibor qaratilayotganligi, xususan ayblilik masalasini hal etmay turib jinoyat ishini tugatish institutini rivojlantirish zarurati ushbu islohotlarning alohida muhim qismini tashkil etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni va uni **"Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid** davlat dasturining **yettita ustuvor yo'nalishdan** biri bo'lgan, mamlakatimizda **adolat va qonun ustuvorligi** tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish yo'nalishida aynan 14-maqsad **"Qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezoni sifatida belgilash"** ko'rsatib o'tilgan. Mazkur maqsadga erishish uchun jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoyat ijroiya qonunchiligini takomillashtirish siyosatini izchil davom ettirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tizimiga insonparvarlik tamoyilini keng joriy etish" [1] vazifalari belgilangan bo'lib, ularning bajarilishi Yangi O'zbekistonning huquqiy davlat maqomini mustahkamlash, mamlakatimizdagi har bir shaxsning xususan, harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklari kafolati bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktabrdagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–4850-sonli Farmonining 6-bandida tomonlarning yarashganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutini kengaytirish hamda jinoyat ishini qo'zg'atish faqat jabrlanuvchining arizasiga ko'ra amalga oshiriladigan jinoyat tarkiblari ro'yhatini kengaytirish [2], 2018 yil 14 maydagi "Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–3723-son Qarori asosida qabul qilingan Konsepsiyaning II-bo'limida Jinoyat protsessida shaxs huquq va erkinliklarining ishonchli kafolatini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish [3] masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Ta'kidlash joizki, jinoiy qilmish bo'yicha ish yuritishni rad etish yoki tugatishda jinoiy protsessual qonun-chilikning rahbariy prinsiplariga qanchalik mos ekanligi masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi, ushbu masalalar olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Xususan, A.X.Rahmonqulov jinoyat-protsessi prin-siplari jinoyat-protsessual huquqda naqadar muhim o'rin egallashini e'tirof etib "Jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini, butun protsess tizimining tuzilishini belgilovchi rahbariy qoidalardir", "prinsiplar jinoyat protsessining asosini, ya'ni uning eng muhim va belgilovchi negizlarini tashkil qiladi. Ushbu asosdan boshqa barcha xossalar va munosabatlar keltirib chiqariladi. Protsessning prinsipial asosi qanday bo'lsa, uning mohiyati ham shunday bo'ladi. Busiz jinoyat protsessi

mavjud bo‘lishi ham, rivojlanishi ham mumkin emas”[4] deydi.

Professor U.A.Tuxtasheva bo‘lsa, “jinoyat protsessi prinsiplari – bu O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Jinoyat-protsessual kodeksida mustahkamlangan, jinoyat ishlarini yuritishning eng muhim xususiyatlari, xarakteri va mazmun-mohiyatini belgilovchi hamda jinoyat ishlarini qo‘zg‘atish, tergov qilish sudda ko‘rib chiqish va hal qilish bilan bog‘liq jinoyat-protsessual faoliyatida jinoyat-protsessual munosabatlari sohasiga jalb etilgan fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalda ta’minlashga va jinoyat protsessi maqsadlariga erishishga xizmat qiluvchi asosiy huquqiy qoidalardir”[5] deya ta’rif beradi.

A.X.Rahmonqulov va U.A.To‘xtashevaning fikrlari hamda umuman barcha huquq sohasi olimlarining qonunchilik prinsiplari borasida fikrlari qat’iy va o‘zgarmasligini qayd etish mumkin. Jinoyat protsessual huquqi prinsiplari mazmunan jinoyat-protsessual huquqini negizi, mavjud bo‘lishi uchun muhim asos ekanligini anglashimiz shart. Bu borada biz e’tirof etishga urinayotganimiz asos va negiz bo‘lgan prinsiplar ya’ni rahbariy qoidalar hamda maxsus qismda o‘zaro qarama-qarshilik yoki ziddiyat mavjud bo‘lishi mumkin emas.

Z.F.Inog‘omjonovaning fikrlarida “Prinsiplar doim o‘zida huquqning dastlabki normalarini aks ettiradi. Boshqa barcha normalar jinoyat protsessi prinsiplaridan kelib chiqadi. Prinsip normalari imperativ xarakterga ega bo‘lib, huquqiy vositalarni barcha qurollar bilan ta’minlaydigan majburiy buyruq shaklida namoyon bo‘ladi. Ular inson, fuqaro va tegishli davlat organlariga qaratilgan bo‘ladi. Jinoyat protsessini yuritish uchun mas’ul davlat organlari o‘rnatilgan prinsiplar asosida harakat qilishlari shart va ularni buzish bilan bog‘liq bo‘lgan oqibatlar uchun javob beradilar”[6] deydi.

Z.F.Inog‘omjonovaning fikrlariga qo‘shilgan holda shuni e’tirof etish lozimki, har qanday huquqiy davlat borki, uning qonunlari asosida belgilagan ijtimoiy munosabat qoidalari insoniyatni umume’tirof etgan ma’lum prinsiplari asosida tuziladi va unga bo‘ysunadi. Garchi javobgarlik murosasiz yoki jazolar qanchalik qattiq bo‘lmasin, shu prinsiplar doirasidagina ishlab chiqiladi, rivojlanadi va takomillashadi. Shu sababdan rahbariy qoidalar doimo inson sha’ni, qadr-qimmatini saqlovchi huquqlarga mos bo‘lishi muhim bo‘lib, har qanday shaklda inson huquqni cheklashi mazkur huquq sohasi rivojini to‘xtatadi.

Amaldagi JPKning 15-moddasida “Prokuror, tergovchi va surishtiruvchi jinoyat alomatlari topilgan har bir holda, o‘z vakolatlari doirasida jinoyat ishini qo‘zg‘atishlari, jinoiy hodisani, jinoyat sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxslarni aniqlash va ularni jazolash uchun qonunda nazarda tutilgan barcha choralarni ko‘rishlari shart.” deb belgilab qo‘yilgan. Jinoyat ishini tugatish borasida rahbariy prinsiplar bilan vujudga kelayotgan kollizion holatlar bo‘yicha bir necha olimlar o‘z fikrlarini ilgari surishgan. Xususan, B.Murodovning haqli ta’kidlashicha “jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining 2-moddasida qayd etib o‘tilgan “aybdorlarni fosh etish” va “jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berish” kabi vazifalari o‘z mazmun-mohiyati bilan jinoyat ishini tugatish institutini inkor etadi. Zotan jinoyat ishi tugatilishi natijasida javobgarlikdan ozod bo‘lgan shaxsga nisbatan sud tomonidan jazo berilmaydi. Qolaversa, javobgarlikdan ozod bo‘lgan shaxs sudning xukmi bilan aybdor, deb topilmaydi. Jinoyat – protsessual qonun normalari o‘rtasidagi mazkur kolliziyani bartaraf etish uchun JPKning 2-moddasining birinchi qismi “har bir shaxsga adolatli jazo berilishi” degan so‘zlardan keyin *“qonunda belgilangan asoslar bo‘lgan taqdirda javobgarlik va jazodan ozod qilinishi”* degan so‘zlar bilan to‘ldirish taklif etgan” [7].

Albatta B.Murodovning bu boradagi fikrlarini o‘rinli deb topgan holda, u tomonidan ilgari surilgan mazkur taklif shaxsga jinoiy qilmishi natijasida jazo berilmasligi va jinoiy ta’qib to‘xtatilishi JPKning yuqorida keltirilgan prinsipiga mos kelmasligi, shu sababli kollizion normalarni tartibga solish uchun jinoyat ishini tugatish

bilan bog‘liq holatlarni nazarda tutgan, professor B.Murodovning fikrlariga shuni qo‘shimcha qilish lozimki, nafaqat JPKning 2-moddasida balki 15-moddasida nazarda tutilgan holatlar o‘zining mohiyatiga ko‘ra jinoyat ishini yuritishni istisno etuvchi holatlarda ya’ni JPKning 333-moddasi bilan ham o‘zaro kollizion holatni vujudga keltirayotganligini inobatga olish darkor. Ya’ni JPKning 333-moddasiga bergan vakolatga ko‘ra JPKning 84-moddasi birinchi qismining 1,3–8-bandlarida nazarda tutilgan holatlar aniqlangan taqdirda, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risida qaror chiqaradi. JPKning 15-moddasiga ko‘ra esa rahbariy prinsip hisoblangan Jinoyat ishini qo‘zg‘atishning muqarrarligi prinsipi quyidagi majburiyatni yuklaydi, ya’ni prokuror, tergovchi va surishtiruvchi jinoyat alomatlari topilgan har bir holda, o‘z vakolatlari doirasida jinoyat ishini qo‘zg‘atishlari uchun qonunda nazarda tutilgan barcha choralarni ko‘rishlari shart. Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, B.Murodovning faqatgina jinoyat ishi tugatish instituti bilan bog‘liq izlanishlarida jinoyat ishi qo‘zg‘atilgandan so‘ng vujudga keladigan protsessual munosabatlar natijasi o‘laroq shakllanganligi ma’lum bo‘ladi. Bundan tergovga qadar tekshiruv jarayonida ish yuritishni rad etish bilan bog‘liq munosabatlarda vujudga keladigan ilmiy-nazariy hamda amaliy muammolar chetda qolganligi tufayli qo‘shimcha tadqiq etish zaruriyatini taqozo etadi.

Professor D.M.Mirazovning fikrlariga ko‘ra “Sud, prokuror, tergovchi va surishtiruvchi jinoyat alomatlari aniqlangan har bir holda o‘z vakolatlari doirasida jinoyat ishini qo‘zg‘atishga nafaqat haqli, balki majburdirlar”[8].

N.P.Kuznetsov fikrlarida ham “Sud, prokuror, tergovchi va surishtiruvchi har bir jinoyat belgilari mavjud bo‘lgan, fakt bo‘yicha jinoyat ishini qo‘zg‘atishlari, ikkinchi tomonidan esa - ish bo‘yicha ish yuritishni istisno etuvchi holatlar mavjud bo‘lganda jinoyat ishini qo‘zg‘atishga yo‘l qo‘ymasliklari lozim” [9] degan xulosaga kelgan.

P.S.Elkindni fikricha “Ko‘p hollarda jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichida jinoyat sodir etgan shaxsni aniqlashga hech qanday ehtiyoj sezilmaydi. Chunki jinoyat ishini qo‘zg‘atish uchun yetarli asoslarni mavjud bo‘lishi kifoya. Ammo maxsus sub’ektli jinoyatlarda jinoyat sodir etgan shaxsni aniqlash lozim. Chunki qilmish maxsus subyekt tomonidan sodir etilmagan bo‘lsa, jinoyat bo‘lib hisoblanmaydi. Ammo ushbu bosqichda jinoyat sodir etgan shaxsni aniqlash va uni fosh etish vazifasi bor yoki iloji boricha jinoyat sodir etgan shaxsni aniqlash kerak.[10]

Mazkur prinsip bo‘yicha Z.F.Inog‘omjonova va G.Z.To‘laganovalar quyidagilarni bayon qilishgan: “Ushbu prinsipni amaliyotda qo‘llashda bir qancha muammolar mavjud. JPKning 15-moddasidagi jinoyat alomatlari topilgan har bir holda, surishtiruvchi, prokuror, tergovchi va sudga jinoyat ishini qo‘zg‘atish majburiyatini oladi. Ammo amaliyotda ayrim hollarda jinoyat ishi qo‘zg‘atilmasdan, qo‘zg‘atilgan jinoyat ishini rad qilish bilan cheklaniladi. Undan tashqari jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichida isbotlash predmetiga e’tibor qilinmasligi sababli ko‘p jinoyat ishlari tugatiladi.

Amaliyotchi va nazariyotchi olimlar tomonidan jinoyat ishini qo‘zg‘atishning muqarrarligi prinsipi bizning fikrimizcha to‘g‘ri tadqiq etilmagan. Chunki dastlabki tergovda ayblanuvchiga nisbatan boshqa jinoyatni sodir etganlikni ko‘rsatuvchi dalillar mavjud bo‘lganda ayblanuvchiga nisbatan yangi ayblov e’lon qilinadi. Shu jinoyat bo‘yicha boshqa shaxsning ishtirokchiligi aniqlangan hollarda u shaxs ishga ayblanuvchi sifatida jalb qilinadi. Ammo unga nisbatan yangi jinoyat ishi qo‘zg‘atilmaydi. Biroq jinoyat ishini qo‘zg‘atishning muqarrarligi prinsipida har bir jinoyat fakti bo‘yicha jinoyat ishini qo‘zg‘atish muqarrarligi ko‘rsatilgan” [11].

Z.F.Inog‘omjonova va G.Z.To‘laganova-lar fikrlarida nisbatan eskiroq qonunchilik amaliyoti gavdalanayotganligi nuqtai nazaridan ba’zi fikrlarini o‘zgartirgan holda

talqin qilishimiz lozim. Chunonchi, bugungi kunda JPKning 15-moddasida sudning jinoyat ishini qo‘zg‘atish vakolati mavjud emasligi va surishtiruv butunlay yangi vakolatli jinoyat ishi bo‘yicha dastlabki tergov kabi ish olib boruvchi organ sifatida gavdalanayotganligini qayd etish lozim. Shunday bo‘lsa-da, mualliflarning ushbu norma mazkur organlarga bunday majburiyatni yuklayotganligi to‘g‘risidagi umumiy fikrlariga ta’sir etmaydi. Ya’ni ularning jinoyat ishi qo‘zg‘atishni istisno qiluvchi va tugatishni taqozo qiluvchi holatlar mavjudligi, hamda har bir jinoyat fakti bo‘yicha jinoyat ishini qo‘zg‘atish ushbu prinsip bilan mutanosib emasligi borasidagi fikrlari juda o‘rinlidir. Shu bilan birga ta’kidlash lozimki, 2006 yildan buyon nazariyotchi va amaliyotchi olimlarning e’tiroziga sabab bo‘lgan ushbu prinsipni o‘zgartirish yohud chiqarib tashlash bo‘yicha fikrlar bildirilganligiga qaramasdan bugungi kunga qadar ushbu kollizion holatlarni bartaraf etilmagan.

A.X.Rahmonqulovning jinoyat ishini qo‘zg‘atishni muqarrarligi prinsipi mohiyati bo‘yicha keltirib o‘tgan sharhida “mansabdor shaxslarning protsessual hujjatlari jabrlanuvchi, ushbu ishdan manfaatdor shaxs yoki tashkilotning talablariga bog‘liq bo‘lmasligi kerak” deydi va fikrlarini davom ettirib, “Bu qoida jinoyat ishi jabrlanuvchining shikoyati bo‘yicha qo‘zg‘atilgan hollarda amal qilmaydi, chunki bunday hollarda jinoyat ishi aynan jabrlanuvchining arizasi bo‘yicha qo‘zg‘atilishi kerak” [12].

A.X.Rahmonqulov mazkur prinsipda faqat xususiy ayblov instituti bilan bog‘liq kollizion holatga urg‘u bermoqda, biroq jinoyat protsessi prinsipi o‘laroq cheklayotgan ish yuritishni istisno qiluvchi va ishni tugatishni belgilovchi qoidalarga zid keluvchi kollizion holatlar ham mavjudligini unutmasligimiz kerak.

Umuman olgan yuqoridagi barcha olimlar mazkur jinoyat ishini qo‘zg‘atishning muqarrarligi prinsipi va jinoyat protsessual huquqi maxsus qismi normalari o‘rtasidagi qarama-qarshilik mavjud ekanligini bildirishgan va ushbu ziddiyatni bartaraf etish muhim ekanligini qayd etishgan.

Shuningdek, mazkur yo‘nalishda tadqiqot olib borgan M.D.Botayev ham JPKning 15-moddasi bilan ushbu Kodeksning 84, 325 va 333-moddalari o‘rtasidagi kollizion holatlarni bartaraf etish hamda jinoyat protsessual munosabatlarda shaxslarning dispozitiv huquqlarini qo‘llash doirasi kengayib borayotganligini inobatga olib, jinoyat ishini qo‘zg‘atish muqarrarligi prinsipini (15-modda) amaldagi JPKdan chiqarish zarurligi haqida xulosaga kelgan [13].

Bu kabi muammolar boshqa xorijiy mamlakatlarning ham jinoyat-protsessual qonunchiligida mavjudligini kuzatishimiz mumkin. Misol uchun Rossiya Federatsiyasi va Xitoy Xalq Respublikasining JPKlarida ham, garchi reabilitatsiya etilmaydigan asoslarga ko‘ra jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad etish yoki tugatish bilan bog‘liq protsessual harakatlarga ruhsat bergan bo‘lsa-da, qonunning rahbariy prinsiplarida *“jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berish”* nazarda tutilganligi bilan kollizion holatlarga yo‘l qo‘yilgan [14].

Biroq Rossiya Federatsiyasining jinoyat protsessual qonunchiligida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 15-moddasida nazarda tutilgan normadan farqli o‘laroq, prokuror, tergovchi va surishtiruvchi jinoyat alomatlari topilgan har bir holda, o‘z vakolatlari doirasida jinoyat ishini qo‘zg‘atishlari majburiyatini emas, balki jinoyat alomatlari topilgan har bir holda jinoyat voqealari, jinoyat sodir etishda aybdor shaxs yoki jinoyatlarning fosh etilishi choralarini ko‘rish majburiyati mavjud. [14] Umuman olganda mazkur norma jinoyat-protsessual qonunchilik prinsipi hisoblanmaydi, shu sababli yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, mazkur 15-moddada nazarda tutilgan jinoyat ishini qo‘zg‘atishning muqarrarligi prinsipini nazarda tutuvchi normani kodeksdan butunlay chiqarib tashlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Yuqoridagi fikrimizni asoslash uchun horijiy davlatlarning jinoyat protsessual qonunchiligi rahbariy prinsiplariga murojaat qilish zarur.

2001 yil 16 oktabr kuni qabul qilingan Saudiya Arabistoni Jinoyat protsessual kodeksining birinchi asosiy qoidalar qismining 14-moddasida tergov va sud ta'qibi byurosi (prokuratura) o'z qonunchiligiga va uning ijro qoidalariga muvofiq tergov va jinoiy ta'qiblarni amalga oshirishi belgilangan, biroq rahbariy qoidalarda jinoyat ishi qo'zg'atish majburiyati yuklatilmagan[15]. Rahbariy qoidalar hisoblangan jinoyat protsessual kodeksining prinsiplari orasida jinoyat ishi qo'zg'atish majburiyati Birlashgan Arab Amirliklari[16], Janubiy Koreya davlati [17], Yaponiya [18], Gruziya [19] va Armaniston[20] kabi davlatlarning jinoyat protsessual qonunchiligida ham mavjud emas. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish zarurki, Estoniya jinoyat protsessual kodeksining 6-moddasida garchi jinoyat ishi qo'zg'atish majburiyati nazarda tutilgan prinsip bo'lsada, biroq mazkur normada Estoniya JPKning 199-moddasiga ko'ra jinoyat ishi qo'zg'atishni istisno qiluvchi holatlar mavjud bo'lganida va 201-moddasi 2-qismi, 202, 203, 203^1, 204, 205, 205^1, 205^2 yoki 435-moddasi 3-qismida nazarda tutilgan jinoyat ishini tugatish nazarda tutilgan hollarda bunday majburiyat amal qilmasligi ko'rsatib o'tilgan [21].

Yuqoridagi huquqiy jihatdan taraqqiy topgan mamlakatlarning jinoyat protsessual kodekslaridagi rahbariy prinsiplarda nazarda tutilgan barcha hollarda ham jinoyat ishini qo'zg'atish majburiyati mavjud emas, hatto sanab o'tilgan Estoniya JPKning ham prinsip sifatda mazkur normaning mavjud bo'lishiga ehtiyoj yo'qligini kuzatishimiz mumkin. Binobarin, bu prinsip aniq normativ protsessual majburiyatni, ya'ni jinoyat ishini qo'zg'atish majburiyatini yuklaydi, normaning o'zida ushbu majburiyatni istisno qiluvchi holatlar nazarda tutganligi uni mantiqan prinsip sifatida yo'qqa chiqaradi. Bu esa o'z navbatida jinoyat protsessual kodeksida noaniqliklarni vujudga keltiradi.

Yuqoridagi fikrlarni huquqiy tahlillari natijasi o'laroq quyidagi xulosaga kelish mumkin, ya'ni O'zbekiston Respublikasi JPKning 15-moddasida nazarda tutilgan O'zbekiston Respublikasi JPKning rahbariy prinsipi hisoblangan "Jinoyat ishini qo'zg'atishning muqarrarligi" normasini mazkur kodeksning prinsiplar qatoridan chiqarib tashlash yoki quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq. **15-modda. Jinoyat ishini qo'zg'atishning shartligi**

Prokuror, tergovchi va surishtiruvchi jinoyat alomatlari topilgan hollarda, mazkur kodeksning 84-moddasi nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, 325-moddasi va 333-moddasi tartibida ish yuritishni istisno qiluvchi holatlar aniqlanmagan hollarda o'z vakolatlari doirasida jinoyat ishini qo'zg'atishlari, jinoiy hodisani, jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslarni aniqlash va ularni jazolash uchun qonunda nazarda tutilgan barcha choralarni ko'rishlari shart.

Ushbu o'zgartish birinchi navbatda jinoyat protsessual normalar o'rtasidagi kollizion holatlarni bartaraf etsa, ikkinchi tomondan jinoiy protsessual qonunchilik normalarining rivojlanishi va takomillashishiga erishiladi.

Shu bilan birga mazkur moddaning prinsiplar qatoridan chiqarilishi yoki yuqoridagi tahrirda bayon etilishi jinoyat protsessual munosabatlarda shaxslarning dispozitiv huquqlarini qo'llash doirasi kengayishiga asos bo'lib xizmat qiladi deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, Тошкент ш., 2022 йил 28 январь, ПФ-60-сон.

2. Суд-ҳуқуқ тизимини янада ислоҳ қилиш, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ишончли ҳимоя қилиш кафолатларини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони Тошкент ш., 2016 йил

21 октябрь, ПФ-4850-сонhttps://lex.uz/docs/3050491

3. Жиноят ва жиноят-процессуал қонунчилиги тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори Тошкент ш., 2018 йил 14 май, ПҚ-3723-сон https://www.lex.uz/docs/3735818

4. Ўзбекистон Республикасининг жиноят процесси. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси. Муаллифлар жамоаси. Тошкент – 2012 йил 49-50 бетлар

5. Жиноят-процессуал ҳуқуқи. Умумий қисм. Дарслик. Тошкент давлат юридик университети. Тошкент- 2017. 46-бет

6. Тўлаганова Г.З. Иноғомжонова З.Ф. Жиноят процесси муаммолари. Ўқув қўлланма Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги Тошкент Давлат юридик институти Тошкент – 2006

7. Жиноят ишини тугатиш институтини такомиллаштириш. Муродов Бахтиёр Баходирович. Юридик фанлар бўйича докторлик (DSc) диссертацияси автореферати. 15-бет

8. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят процесси. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси. Муаллифлар жамоаси.Д.М.Миразов XII боб. Тошкент – 2012 йил 299 бет.

9. Кузнецов Н.П. Доказывание в стадии возбуждения уголовного дела. – Воронеж: 1983. -Б. 16.

10. Элькинд П.С. Цели и средства их достижения в уголовно-процессуальном праве. –Л.: 1976. -Б. 44.

11. Тўлаганова Г.З. Иноғомжонова З.Ф. Жиноят процесси муаммолари. Ўқув қўлланма Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги Тошкент Давлат юридик институти Тошкент – 2006

12. Ўзбекистон Республикасининг жиноят процесси. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси. Муаллифлар жамоаси. Тошкент – 2012 йил 57 бет.

13. Терговга қадар текширув институтини такомиллаштириш. Ботаев Мурод Джуманшиковичнинг Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Автореферати Тошкент – 2020. 15-бет

14. Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации (от 18 декабря 2001 года); Уголовно-процессуальный кодекс КНР (от 17 марта 1996 года), Уголовно-процессуальный кодекс КНР, Принят на 2-й сессии Всекитайского собрания народных представителей пятого созыва 1 июля 1979 года.

15. Уголовно-процессуальное право - Саудовская Аравия Уголовно-процессуальный закон Королевский указ № (М / 39) 28 раджаба 1422 г. - 16 октября 2001 г. статья 1-15.

16. Уголовно-процессуальное право ОАЭ. Основные положения статья 1-6

17. Уголовно-процессуальный акт Южной Корее (Хёнса-сосон-беоп) Закон № 341 от 23 сентября 1954 г.

18. Япония жиноят-процессуал кодекси (Кэйдзи-сошё-хо). Қонун № 131. 10.07.1948 й.

19. Уголовно-процессуальный кодекс Грузии Общая часть Раздел I Уголовно-процессуальное законодательство и принципы Тбилиси 9 октября 2009 года № 1772-IIс рм

20. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Армения от 1 сентября 1998 года №ЗР-248

21. Уголовно-процессуальный кодекс Эстонии. Принят 12.02.2003 RT I 2003, 27, 166 Вступил в законную силу 01.07.2004. Статья 6. Принцип обязательности уголовного производства

Ataniyazov J.K. Jinoiy qilmish bo'yicha ish yuritishni rad etish yoki tugatishda jinoyat-protsessual qonunchilikning rahbariy prinsiplariga mosligi

Ushbu maqolada jinoyat ishini boshlash yoki tugatish asoslarini huquqiy tartibga solishning amaliy va nazariy jihatlari tadqiq etilgan. Shuningdek maqolada jinoyat protsessining rahbariy prinsiplari va ularning boshqa normalar bilan mutanosibligi masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda analiz, sintez, induksiya, deduksiya, qiyosiy-huquqiy tahlil kabi metodlar qo'llanilgan.

Tadqiqot ishida ilg'or xorijiy tajriba, ilmiy-nazariy qarashlar va tergov hamda sud amaliyoti o'rganilgan bo'lib, buning natijasi o'laroq O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ayblilik, jinoyat ishi, qo'zg'atish, tugatish, amnistiya, yarashuv.

Атаниязов Ж.К. Проблемы соответствия уголовно-процессуального законодательства руководящим принципам при отказе или прекращении уголовного производства

В статье рассматриваются практические и теоретические аспекты правового регулирования оснований для возбуждения или прекращения уголовного дела. Методами анализа, синтеза, индукции, дедукции и сравнительно-правового анализа изучен передовой зарубежный опыт, научно-теоретическая база и следственно-судебная практика. Разработаны предложения по внесению соответствующих изменений и дополнений в Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан.

Ключевые слова: виновность, уголовное дело, возбуждение, прекращение, амнистия, примирение.

Ataniyazov J.K. Problems of compliance of the criminal procedure legislation with the guidelines for the refusal or termination of criminal proceedings

This article discusses the practical aspects of the legal regulation of the grounds for initiating or terminating a criminal case. The study used methods of analysis, synthesis, induction, deduction, comparative legal analysis and etc.

In the research work, advanced foreign experience, scientific and theoretical statements, as well as investigative and judicial practice have been studied, as a result of which proposals and recommendations have been developed for making appropriate amendments and additions to the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan.

Key words: guilt, criminal case, initiation, termination, amnesty, reconciliation.

Abdullayev Akrom Ilhomovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
“Jismoniy tayyorgarlik va sport” kafedrasi katta o‘qituvchisi

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA AMALIY GIMNASTIKA MASHG‘ULOTLARINING TASHKILIY-METODOLOGIK XUSUSIYATLARI

So‘nggi yillarda mamlakatimizda sport sohasiga davlat siyosati darajasida qaratilayotgan e’tibor natijasida muhim marralar qo‘lga kiritilmoqda. Sport bilan ommaviy shug‘ullanishga qaratilayotgan e’tibor zamirida avvalo yosh avlodni sog‘lom, baquvvat va ruhan barkamol etib tarbiyalash kabi ulkan vazifalar yotadi.

Oliy harbiy ta’lim muassasalarida jismoniy tayyorgarlikni o‘tkazishdan asosiy maqsadi sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish, jismoniy sifatlarni rivojlantirish, sog‘liqni yanada mustahkamlash, harbiy xizmatchi va xodimlarning amaliyotdagi xizmati chog‘ida o‘zini-o‘zi himoyalash, turli hil to‘siq va qarshiliklarni yengib o‘tish vaqtida gimnastik mashq va usullarini to‘g‘ri ishlata bilishi, shu bilan birga xizmat faoliyatida jismoniy va ruhiy-asabiy zo‘riqish faktorlarida chidamlilikni tarbiyalash hamda har qanday sharoitda qo‘yilgan jangavor vazifalarni a’lo darajada bajara olish hisoblanadi.

Gimnastika ko‘p muammolarni hal qiluvchi, ko‘p qirrali vositadir. Uning mashqlari orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish, to‘g‘ri qomatni shakllantirish, sog‘liqni mustahkamlash, irodaviy fazilatlarni tarbiyalash, harakatlarni aniq mohirona yengil ijro etishga o‘rgatish kabi vazifalar muvaffaqiyatli hal etiladi.

Bugungi kunda oliy harbiy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan iste’dodli sportchilarning jahon arenalarida erishayotgan natijalari tahsinga sazovor bo‘lib, mazkur natijalarni kelajakda yanada yuqori cho‘qqilarga ko‘tarish talab etiladi. Bunday harbiy sportchilarni sportning yakka va jamoaviy turlari bilan professional tartibda shug‘ullanishlari uchun shart-sharoit yaratish, xususan, harbiy xizmatchilarning xizmat vazifasi va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda sport bilan muntazam ravishda shug‘ullanib borishlari lozim.

Sport gimnastika turli mashqlar, mashg‘ulotlarni tashkil etish shakllari va usullarining o‘z ichiga qamrab olgan bo‘lib oliy harbiy muassasa kursantlari uchun jismoniy tayyorgarlikning asosiy turlaridan biridir.

Gimnastika mashqlarini snaryadlarda bajarishda kursantlarning texnik tayyorgarligi hamda jismoniy tayyorgarligi bilan bir qatorda elementlar va kombinatsiyalarni bajarishni puxta egallashga yordam beradi. Mutaxassislar gimnastika snaryadlarida mashqlarni o‘rgatish bo‘yicha boy uslubiy tajriba to‘plashgan [1, 4, 7]. Bu gimnastika mashqlarini to‘g‘ri va xatosiz bajarishga o‘rgatishning samarali vositalari va usullarini tanlashdan iborat. Shunday qilib, harakatlarning amplitudasi, vaqti va yo‘nalishi bo‘yicha o‘rganilayotgan gimnastika elementlariga o‘xshash bo‘lishi kerak bo‘lgan maxsus, yetakchi, taqlid mashqlaridan foydalanishga texnik tayyorgarlikni oshirish bo‘yicha tavsiyalar mavjud [3, 6]. L.P. Semenov V.A.Solodyannikovlarning ta'kidlashlaricha, mashg‘ulotlarga bunday yondashuv asosiy vosita ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonini sezilarli darajada osonlashtiradi va tezlashtiradi [9, 10], ular orasida turli xil pozitsiyalarni shakllantirish: yopiq, ochiq, egilgan tekis tana [2]; muvozanatda sportchi tanasining turli harakatlarida ish holatini saqlash; apparatlarda elementlarni bajarishda tananing bo‘g‘inlardagi egilish va cho‘zish harakatlarini bajarish [5, 8]; tananing turli qismlari tomonidan belanchak harakatlarini bajarish; qo‘llab-quvvatlashga ta'siri; qo‘nish; tayanchlardan qo‘llar va oyoqlar bilan itarish; tayanchdan, tayanchda burilishlarni bajarish.

Shunday qilib, kursantlarni tayyorlash elementar asosiy ko‘nikmalarni shakllantirish maxsus jismoniy tayyorgarlikni hisobga

oladigan va muayyan gimnastika elementlari bilan bog‘liq bo‘lgan tizimni yaratishdan boshlanishi kerak. Zero, gimnastika mashqlaridan boshqa turdagi mashg‘ulot mashqlarini, shu jumladan jangovar jang usullarini o‘zlashtirish uchun tayyorgarlik va kirish harakatlari sifatida foydalanilishi mumkin.

Gimnastika mashqlarini to‘g‘ri va aniq bajarish pedagogik jarayonni boshqarishni sezilarli darajada osonlashtiradi, mashg‘ulotlar samaradorligi va zichligini oshiradi. Oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlari bilan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida gimnastika mashqlarining o‘ziga xos ahamiyati amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat. Ularda to‘g‘ri sakrash, to‘siqlarni yengish, og‘irlik ko‘tarish, dumalab sakrash va salto qilish ko‘nikmalarini egallash o‘rgatiladi, bu murakkab jismoniy mashqlarni bajarishda va yiqilish mumkin bo‘lgan mashg‘ulotlarda jarohatlanishning oldini olishda katta ahamiyatga ega.

Oliy harbiy ta’lim muassasalarida amaliy gimnastika mashg‘ulotlarining asosiy maqsadi kursantlarning tezkor va aniq muvofiqlashtirilgan harakatlar qobiliyatini, kuchli harakatlarga chidamlilik moslashuvchanlik, muvozanatni saqlab turish, vestibulyar apparatlarning barqarorligi, qat'iyatlilik, jasorat va o‘ziga ishonch kabi sifatlarni shakllantirishdan iborat. Vaholanki, natijada gimnastika bilan shug‘ullangan kursant jismoniy tayyorgarlikning boshqa bo‘limlarida uchraydigan yangi harakatlar va mashqlarni, shu jumladan kurashning jangovar texnikasini tez o‘zlashtiradi.

Amaliy gimnastika kursida mustaqil jismoniy tayyorgarlik va sport bilan shug‘ullanish uchun zarur bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda bir qator o‘quv vazifalar (bajarish texnikasi asoslari, mashqlarni o‘rganish usullari, sug‘urtalash va yordam berish usullarini o‘rganish, gimnastika mashqlarining shug‘ullanuvchilar tanasiga ta'siri to‘g‘risida bilimlarni egallash) ham puxta egallanadi.

Mashg‘ulotlar gimnastika maydonchalarida, shaharchalarda, o‘quv majmualarida yoki yerda, sport zallarida yoki maxsus jihozlangan xonalarda o‘tkaziladi. Gimnastika va maxsus jihozlarda jismoniy mashqlar, akrobatik mashqlar, og‘irliklar bilan bog‘liq mashqlar bir butun holda, qismlarga bo‘lib tayyorgarlik mashqlari yordamida o‘rganiladi. Jismoniy faollikning intensivligini oshirish uchun gimnastika mashqlari barcha ishtirokchilar tomonidan bir vaqtning o‘zida, juft bo‘lib, navbatma-navbat, saflarda, bir yoki bir nechta kursantlar oqimida, shuningdek o‘quv mashg‘ulot joylarini doira shaklida o‘zgartirish bilan bajarilishi mumkin.

R.V. Yereminning fikriga ko‘ra, amaliy gimnastika mashg‘ulotlarini to‘g‘ri tashkil etish baxtsiz hodisalar va jarohatlar ehtimolini istisno qilishi kerak, buning uchun gimnastika jihozlarining yaroqliligini, sakrashdan, moslamalardan tushishdan va akrobatik mashqlardan keyin qo‘nish uchun tagliklar va chuqurlarning mavjudligi va yaroqliligini tekshirish, sug‘urta qilishni ta'minlash va mashqlar paytida yordam berish kerak[11].

Jismoniy yuklamalar dars davomida to‘g‘ri taqsimlash uchun umumiy qabul qilingan tuzilishga rioya qilish kerak. Darsni tayyorgarlik qismidan (qizdiruvchi mashqlardan) boshlash, so‘ngra asosiy og‘ir yuklamalarni darsning asosiy qismida bajarish va darsni yakuniy qism yukni kamaytirish bilan yakunlash kerak. Darsning tayyorgarlik qismi tanani umumiy mustahkamlashga va uni kelgusi asosiy qismga tayyorlashga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bu mashq qilish texnikasi va diqqatni jamlash mashqlari o‘zida joyida va harakatda umumiy rivojlanish hamda qizdirish mashqlari, joyda turib yugurish va uning turli xil turlari, cho‘zish mashqlari, juftlikda gimnastika devorida, gimnastika skameykasi, to‘p, gimnastika tayoqchasi va boshqa narsalar bilan birga bajariladigan mashqlarni mujassam etadi. Mashqlar turli mushak guruhlariga ta'sirni hisobga olgan holda tanlanadi.

D.A. Osipov atletika mashg‘ulotlarini tashkil qilish uchun mushaklarning kuchlanish darajasini tizimli oshirishni o‘z ichiga olgan kuch mashqlarini qo‘llagan holda

tashkil etish maqsadga muvofiqligini ta'kidlab o'tgan[12]. Bunda ular amaliy gimnastika sinfining asosiy qismini tashkil etishi mumkin. Boshqa hollarda, kuch mashqlari asosiy qismning oxirida chidamlilik mashqlaridan oldin bajariladi. Kuch mashqlarini cho'zish va bo'shashtirish mashqlari bilan uyg'unlashtirish kerak.

Kuch mashqlari tashqi jismlarning og'irligi (shtangalar, gantellar, sherikning og'irligi, turli xil mashg'ulotlar anjomlari), o'z tanasining og'irligi bilan (osilgan holda tortish, surish), tashqi ob'ektlar (turli to'xtashlar, ushlab turishlar, qarshi harakatlar) yoki o'z-o'zidan qarshilik ko'rsatish orqali ixtiyoriy harakatlar natijasida mushaklarning kuchlanishi paydo bo'lganda, sherikning yoki elastik jismlarning (kengaytirgichlar, kauchuk bantlar) qarshiligidan foydalangan holda bajariladi.

Shuni ta'kidlash joizki, kuch mashqlarini qo'llashda jismoniy faollik ko'tarilayotgan yukning og'irligi, bir urinishda mumkin bo'lgan takrorlashlar soni va ularni amalga oshirish tezligi, urinishlar soni va ular orasidagi dam olish vaqti bilan belgilanadi. Ushbu ko'rsatkichlarga qarab har xil turdagi kuch qobiliyatlarini tarbiyalash vazifalari hal qilinadi.

Haqiqiy kuch sifatlarini rivojlantirish uchun, qoida tariqasida, katta, ammo cheklanmagan og'irliklar bilan o'rtacha tezlikda bajariladigan mashqlar qo'llaniladi: tayyorgarlik darajasiga qarab, maksimaldan 50-85%, 3-6 to'plam. 10-12 ta takrorlash, og'irliklarni mumkin bo'lgan takrorlash soniga bosqichma-bosqich oshirish bilan bir urinishda 5-6 ni tashkil qiladi, to'plamlar orasidagi dam olish oralig'i deyarli tiklanishgacha (2-5 minut). Deyarli chegara va chegara og'irliklari faqat yuqori malakali kursantlar bilan qo'llaniladi [13].

Tezlik-kuch sifatlarini rivojlantirish uchun maksimal mumkin bo'lgan tezlikda bajariladigan cheklanmagan og'irlikdagi kuch mashqlari qo'llaniladi: takrorlash soni 6-10 (og'irlikning og'irligiga qarab, 30-60 oralig'ida o'rnatiladi) Maksimal % dan), 4-8 yondashuv, ular orasidagi dam olish oralig'i to'liq tiklanishigacha (3-4 min) [14].

Kuchga chidamlilik sifatlarini rivojlantirish yengil og'irlikdagi (maksimaldan 30-60%) mashqni 20 dan "kuch butkul tugaguniga qadar" bo'lgan takroriy takrorlashdan iborat bo'lib, odatda o'quv nuqta joylarini 5 dan 15-20 gacha navbatma-navbat almashish orqali amalga oshiriladi. Navbat almashishlar soni, ular orasidagi dam olish vaqti va har bir mashqdan keyingi mashg'ulot vazifalari va kursantlarning tayyorgarlik darajasi bilan belgilanadi [15].

Darsning yakuniy qismida yukni kamaytirish vazifalari hal qilinadi. Tana me'yorga yaqin holatga keltiriladi. Darsning bu qismi uchun tinch, bir xil tezlikda yugurish eng yaxshi vositadir. Shuningdek, nafas olish mashqlarini, bo'shashish va cho'zish mashqlarini (ayniqsa, darsning asosiy qismi kuchga yo'naltirilgan bo'lsa), diqqatni jamlash uchun mashqlarni bajarish tavsiya etiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, tadqiqot natijalarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, turli xil gimnastika mashqlarining ahamiyatini yetarlicha baholamaslik xususan, oliy harbiy ta'lim muassasalari jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarining asosiy mazmuni tashkil etuvchi turli zarbalarni qo'llash va himoyani o'rnatish, uloqtirish, og'riqli ushlab turish usullaridan foydalanish kabi aniq harakatlarni kursantlar tomonidan bajarishda barqaror va texnik jihatdan to'g'ri ko'nikmalarni shakllantirishga imkon bermaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Безматерных, Г.П. Совершенствование способности мальчиков 7-9 лет дифференцировать движения в пространстве при обучении гимнастическим упражнениям : дис. ... канд. пед. наук / Безматерных Г.П. – Омск, 1986. – 230 с.

2. Вельдяев С.В. Методика обучения рабочим осанкам в упражнениях на

перекладине : дис. ... канд. пед. наук / Вельдяев С.В. – Волгоград, 1999. – 151 с.

3. Гавердовский Ю.К. Обучение спортивным упражнениям. Биомеханика. Методология. Дидактика : монография / Ю.К. Гавердовский. – М. : Физкультура и спорт, 2007. – 912 с.

4. Загревский О.И. Построение техники двигательных действий гимнастов в упражнениях на брусьях / О.И. Загревский. – Томск : Изд-во Томского гос. пед. ун-та, 1999. – 112 с.

5. Коренберг В.Б. Двигательная задача, двигательный навык / В.Б. Коренберг // Гимнастика. – 1986. – № 1. – С. 41-44.

6. Кравчук А.И. Начальная техническая подготовка юных гимнастов / А.И. Кравчук ; Омский гос. ин-т физ. культуры. – Омск : [б.и.], 1983. – 22 с.

7. Менхин Ю.В. К проблеме понимания и формирования двигательного навыка / Ю.В. Менхин // Теория и практика физ. культуры. – 2007. – № 2. – С. 12-17.

8. Розин Е.Ю. Спортивная гимнастика: переворот в оценке мастерства / Е.Ю. Розин // Теория и практика физ. культуры. – 2007. – № 5. – С. 38-40.

9. Семенов Л.П. Основные группы методических приемов обучения гимнастическим упражнениям : метод. разработки для студентов РГАФК / Л.П. Семенов, А.Ф. Дубовицкий ; Рос. гос. акад. физ. культуры. – М. : [б.и.], 1997. – 38 с.

10. Солодянников, В.А. Система подготовки юных гимнастов / В.А. Солодянников // Гимнастический мир Санкт-Петербурга. – 2005. – № 7. – С. 13-15.

11. Еремин Р.В. Основные причины травматизма на занятиях по физической подготовке в системе профессиональной подготовки сотрудников органов внутренних дел // Физическая культура и спорт в профессиональной деятельности: современные направления и образовательные технологии : сборник материалов Международной научно-практической конференции. Хабаровск : ДВЮИ МВД России, 2016. С. 146-152.

12. Осипов Д.В. Гимнастика и влияние растяжки мышц на физическую активность и физическое состояние спортсмена // Совершенствование физической подготовки сотрудников правоохранительных органов: сборник статей. Орел : ОрЮИ МВД России имени В. В. Лукьянова, 2017. С. 186-188.

13. Герасимов И. В. Методические аспекты развития силовых способностей сотрудников ОВД // Научный вестник Орловского юридического института МВД России имени В.В. Лукьянова. 2016. № 3(68). С. 136-139.

14. Губанов Э.В., Подрезов И. Н. Современные тенденции развития скоростносиловых качеств курсантов образовательных организаций МВД России // Физическая культура и спорт в профессиональной деятельности: современные направления и Наука-2020. 2020. № 1(37) 11/184 образовательные технологии : сборник материалов Международной научнопрактической конференции. Хабаровск : ДВЮИ МВД России, 2017. С. 111-114.

15. Осипов Д.В. Развитие силовой выносливости у курсантов образовательных организаций МВД России путем применения круговой тренировки // Актуальные проблемы развития физической культуры слушателей образовательных организаций МВД России : сборник статей. Орел : ОрЮИ МВД России имени В. В. Лукьянова, 2018. С. 129-133.

Abdullayev A.I. O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta'lim muassasalarida amaliy gimnastika mashg‘ulotlarining tashkiliy-metodologik xususiyatlari

Maqolada O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta’lim muassasa kursantlarining jismoniy yaxshilanishida gimnastika mashqlarini o‘rganish natijalari tahlili ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada oliy harbiy ta’lim muassasalarida gimnastika mashqlaridan foydalanish xususiyatlari, maqsadi, vazifalari, tashkil etish tartibi, mashg‘ulotlar mazmuni va

usullari o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: tadqiqot natijalari, jismoniy tayyorgarlik, gimnastika mashqlari, kursant, snaryad, muvozanatni saqlash.

Абдуллаев А.И. Организационно-методические особенности практической гимнастики в высших военных учебных заведениях Республики Узбекистан

В статье анализируются результаты изучения гимнастических упражнений в физическом совершенствовании курсантов высших военных учебных заведений Республики Узбекистан. Также в статье описаны особенности, цели, задачи, организация, содержание и методы обучения применения гимнастики в высшем военном учебном заведение.

Ключевые слова: результаты исследований, физическая подготовка, гимнастические упражнения, курсант, снаряд, равновесие.

Abdullaev A.I. Organizational and methodological features of practical gymnastics in higher military educational institutions of the Republic of Uzbekistan

The article analyzes the results of the study of gymnastic exercises in the physical improvement of cadets of higher military educational institutions of the Republic of Uzbekistan. The article also describes the features, goals, objectives, organization, content and methods of teaching the use of gymnastics in a higher military educational institution.

Key words: research results, physical training, gymnastic exercises, cadet, projectile, balance.

Ergashev Anvar Mingboy o'g'li,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
guruh komandiri;
Jamoliddinov Sirojiddin Jamoliddin o'g'li,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Kiyim-kechak xizmati boshlig'i

ZAMONASINING YETUK NAMOYONDASI ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING ILMIY MEROSI

«...U turli fazilatlar bilan bezangan va maqtovli xislatlarga ega bo'lgan bir podshoh edi. Ushbu barcha fazilatlaridan shijoat va muruvvati ustun turardi. Turkiy she'rni Amir Alisherdan keyin hech kim Bobur yozgan darajada yozgan emas».

Mirzo Muhammad Haydar, «Tarixi Rashidiy»dan

«Saxovati va mardligi, iste'dodi, ilm-fan, san'atga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishi jihatidan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi».

Uilyam Erskin, «Boburnoma» tarjimoni

Bugungi taraqqiyotning yangi bosqichida yoshlarni milliy-ma'naviy meros asosida tarbiyalash, uni yoshlarga yetkazib berishning zamonaviy usul va vositalarini takomillashtirish hamda ta'lim-tarbiya jarayonida faol foydalanish muhim xususiyatlardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 20-mayida Toshkent shahrida barpo etilgan "Adiblar xiyoboni"ning ochilish marosimida, "...adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz", - deb ta'kidlagani zamirida, ajdodlar merosining yangi qirralarini bugungi avlod uchun zarur va qulay vositalar orqali yetkazish hamda yosh avlodning iymon-e'tiqodini yanada yuksaltirish, faxr va g'ururga to'la hissiyotlarni ongiga singdirish masalasi yotadi [1].

Bu borada Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyati, jangovar mahorati va ilmiy merosini chuqur o'rganish orqali, yoshlar, ayniqsa harbiylar faoliyatining muhim bo'lagiga aylanishi lozim.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, "...bu buyuk zot o'n ikki yoshidan boshlab Temuriylar davlatini saqlab qolish uchun o'zini o'tga ham, cho'qqa ham urdi, hech qanday dushmandan ham, sinovdan ham qo'rqmadi. Bobur o'z avlodlariga Vatanga bo'lgan buyuk muhabbatni, ezgu fazilatlarni meros qilib qoldirdi".

Bobur (taxallusi; to'liq ismi Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo) (1483.14.2, Andijon 1530.26.12, Agra) — o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili: buyuk shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste'dodli sarkarda, boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shahzoda. Uning ajdodlari to'g'ridan-to'g'ri Sohibqironga borib taqaladi. U muayyan darajada ana shu fotihlarning qudratini va harbiy iste'dodini o'zida mujassam etgandi. Bobur ham eng fasohatli va orif kishilar sirasiga mansub edi. U diniy mazhablarga mutaassiblarcha berilishdan holi edi, san'atga, adabiyotga ixlos qo'ygan, o'zi ham turkiy tilda nazm bitardi. Bu davrning iste'dodli shoirlari va adiblari ichida Zahiriddin Muhammad Boburning ijodi ham o'ziga xos o'ringa ega. U garchand ona yurtida hukmronlikni qo'lga kirita olmagan bo'lsada, temuriy shaxzodalar ichida o'zi Hindistonda buyuk imperiyaga asos soladi. Bobur tomonidan barpo etilgan davlat uch yarim

asrga yaqin hukm surdi. U davlat boshqaruvini o‘z qo‘lida saqlash bilan bir qatorda, mamlakatda ilm-fanga katta e’tibor qaratadi. Uning davrida imperiyada shunday muhit shaklanagan ediki, ilm-ma’rifatga ulkan hissa qo‘shgan bir qator namoyondalar uning saroyida to‘planadi. Shu bilan bir qatorda uning o‘zi ham davlat ishlari bilan bir qatorda, to‘xtovsiz ijod qilib, o‘zidan ulkan ilmiy me’ros qoldirgan. Bobur Mirzo davlat arbobi, iste’dodli sarkarda bo‘lish bilan bir qatorda o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili va buyuk shoiri sifatida muhim o‘rin tutadi. Bobur o‘z asarida keltirishicha, u o‘z ijodiy faoliyatini Samarqandni ikkinchi marta egallagan vaqtda boshlagan. ”Ul paytlari biror-ikkirar bayt bitur edim”,-deb aytadi o‘zi. Bobur atrofida ijodkorlar to‘planishi ham aynan shu davrga to‘g‘ri keladi. Xususan, Binoiy, Abulbaraka va Bobur o‘rtasidagi ruboiy mushoirasi qizg‘in adabiy hayotdan darak beradi. Umuman davlat arbobi va ko‘p vaqti jang-u jadallarda o‘tgan sarkarda sifatida ijtimoiy faoliyatining eng qizg‘in davrida ham, davlat va shaxsiy hayoti nihoyatda murakkab sharoitda qolganda ham Bobur Mirzo ijod qilishdan to‘xtamagan. U hamma vaqt ilm, san’at va ijod ahlini o‘z atrofiga to‘plab, homiylik qilgan, ularni doimo rag’batlantirgan. ”Ular orasida bashariyatning abadiyatiga dahldor ulug‘ farzandlaridan biri, qomusiy bilimlar sohibi, shoh va buyuk sarkarda hamda zabardast shoir Zahiriddin Muhammad Bobur o‘rni, shuningdek jahon madaniy merosiga qo‘shgan hissasi alohida yuqori mavqeni egallaydi. Jahon tarixida o‘zining shohlik faoliyatidagi adolatliligi, betakror insoniy salohiyati, iqtidori, shaxs sifatidagi insoniy xususiyatlari, bemisl salohiyat qirralariga ko‘ra Boburdek insonlar tarixida kam uchraydigan noyob hodisadir.

Bobur avvalo betakror odil shoh, mumtoz shoir, ulug‘ sarkarda, nazariyotchi adabiyotshunos, faqih, yirik muarrix, etnograf, sotsiolog, san’atshunos, ruhshunos, geograf, yirik o‘lkashunos, tabiatshunos, bog‘bon, hayvonot va nabotot (flora va fauna) dunyosi bilimdoni, islomshunos qomusiy ilm sohibidi.

Uning bunday rang-barang ilmlarni egallashda dastavval oila muhitini, unga biriktirilgan tarbiyachi va ustozlari hamda pirlarining xizmatlari muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Qolaversa, u asosiy bo‘sh qolgan vaqtlarini mukkasidan ketganicha mutola qilish, ilmiy, badiiy, tarixiy va islomiy adabiyotlarnichuqur o‘rganishi, mustaqil o‘z ustida astoydil ter to‘kib mehnat qilishi evaziga komil inson darajasidagi yuksaklikka erishdi. Unga bunday ko‘plab ilm sohalarini egallash bobida, qolaversa ilohiylikdan berilgan iqtidor ham muhim o‘rin egallagan edi.

Zahiriddin Muhammad Boburning jahon madaniy tamadduniga qo‘shgan bemisl va betakror yana bi rishi uning ilmiy merosi bashariyatga qoldirgan ma’naviy xazinasi bo‘ldi. Shubhasiz, uning shohlik faoliyatidan keyin dunyo turguncha nomini sharaf bilan eslaydigan faoliyatining nurli nuqtasi tarixchi olim sifatidagi “Vaqeoti Boburiy”, “Tuzuki Boburiy” asari bo‘ldi. Mustaqillik yillariga kelib yozuvchi-adiblarimiz va tilshunoslarimiz jonbozlik ko‘rsatib “Vaqeoti Boburiy” asarini adabiyotshunoslik, tilshunoslik, badiiy uslub va talqin jihatidan har tomonlama pishiq, puxta yaratilganligini chuqur ochib berdilar. Buning uchun ularning xizmatlarini faqat oqlash lozim. Bu jarayonda sharqshunos tarixchilar ko‘pkari musobaqasida sust harakat qilib Boburning tarixchilik faoliyatini shohlik, sarkardalik faoliyati bilan bir qatorda turishini rad qilib bo‘lmas dalillarda yoritib berolmaganimiz uchun uning avvalo zabardast tarixchi muarrix ekanligi natijada keying o‘ringa tushdi. Bobur shunos adabiyot ahli esa bu sohada tarixchilarga nisbatan tadqiqotda ijodkorlik tulporini maydonda samarali tarzda ilgari surdilar. Bobur jahonda dovrug‘ taratgan “Boburnoma” asari bilan cheklanib qolmay “Mubbayin”, “Risolai Volidiya” sheriy asarlarni yaratdi. “Xatti Boburiy” nomi bilan yangi alifbo yaratdi.

Boburning yirik va muhim ilmiy qiymatga molik asari “Aruz” risolasidir. Boburning “Aruz” risolasi Alisher navoiyning “Mezon ul Avzon” asaridan keyin o‘zbek aruziga qo‘shgan ulkan xissa deya topildiki,

uning turkey adabiyot tarixi va aruz nazariyasini o'rganishdagi ahamiyati juda kattadir.". [2]

Hozirda uning ijodini tahlil etadigan bo'lsak, 119 ta g'azal, 209 ruboiysi, 10 dan ortiq tuyuq va qit'alari, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyod fardlari aniqlangan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra devoni tarkibida hajmi 270 baytdan iborat 8 masnaviy ham o'rin olgan.

Bobur Mirzoning yana mashhur ikki asari borligi barchamizga ma'lum. Bular: musiqashunoslikka oid asari "Musiqiy" va harbiy masalalarga maxsus bag'ishlangan risolasi "Harb ishi". Bu asarlarning matni hanuz topilmagan.

Yuqorida ko'rib turganimizdek, Bobur Mirzodan ulkan ilmiy me'ros qolgan. Har bir xalqning tarixiy, madaniy, miliy qiyofasini aniq belgilovchi ulug' shoirlari, buyuk shohlari, olimlari, yirik adiblari va davlat arboblari bo'ladi. Zahiriddin Muhammad Bobur ana shundaylardan biri bo'lgan desak, haqiqatni gapirgan bo'lamiz. Biz har gal uning ruboiylari va g'azallarini o'qiganimizda bobomiz ijodidagi nafosat va noyob ulug'vorlik ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Insoniyatning abadiyatiga mansub buyuk farzandlari safida shoh va shoir, mislsiz adib, tarixchi va mehribon ota Zahiriddin Muhammad Bobur o'z o'rniga ega. Kishilik tarixida Boburchalik shaxsiy imkon, iqtidor va fazilatlari beqiyos kishilar juda kam uchraydi. Buyuk shoh faqatgina davlat ishlari va ijod bilan shug'ullanibgina qolmay, temuriylarga xos ulug' bunyodkorlik an'analarini davom ettirgan. Buyuk tarixiy siymo sifatida Bobur shaxsi Yevropa va Amerika sharqshunos-tarixchi olimlari tomonidan diqqat-e'tibor bilan o'rganilgan. Ingliz tarixchisi Eduard Holden, avvalo, Boburni mashhur Yuliy Sezar bilan qiyoslashni lozim deb topadi: "Bobur fe'l-atvoriga ko'ra Sezarga qaraganda sevishga arzigulikdir. Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qo'yilgan".

Qolaversa, Bobur Mirzo nomi bilan atalgan milly bo'g'ning, davlat arbobi, sarkarda, yirik tarixchi shoirning ramziy maqbarasi, Andijonda "Bobur va jahon madaniyati" hamda " Andijon shaharsozlik madaniyati tarixi" muzeyining barpo etilishi xalqimiz tarixida yangi ozod, erkin zamonga qarab qadam qo'yayotganimizning yorqin dalilidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan andijonliklar uchun 2017-yil Bobur yili deb e'lon qilinishi bu ulug' zot siymosiga davlat miqyosidagi katta e'tiborning yorqin dalilidir. Zaxiriddin Muhammad Bobur ijodi va ilmiy merosini insoniyatning buyuk siymosi sifatida dunyo o'rganmoqdaki, bu uning jahon tamaddunidagi munosib o'rin ergallaganligidan darak berishining yana bir karra dalilidir.

Yuqoridagilar Boburning naqadar sermahsul ijodkor bo'lganini ko'rsatadi va o'z navbatida biz Bobur ijodini yanada mukammalroq o'rganishimiz va ulug' bobokalonimizga munosib voris bo'lishimiz darkorligini ham esaltadi. Buning uchun taklif o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, uning asarlari asosida ko'plab kinofilmlar, spektakllar, hujjatli filmlar tayyorlab televideniya va teatr orqali o'sib kelayotgan yosh avlodga yetkashimiz lozim. Shunda xalqimiz buyuk bobomiz haqida yanada chuqurroq ma'lumotga ega bo'lib, unga munosib bo'lishga harakat qiladi. Biz doimo mana shunday buyuk zotlarning farzandi ekanimizni yodda tutishimiz va har soniya unga munosib voris bo'lishga harakat qilmogi'miz lozimdir. Bobur o'z davlatida madaniy hayotning chinakam homiysi bo'ldi. Ilm ahliga otalarcha mexribonlik ko'rsatdi. Lekin, butun umr uning yodiddan Movarounnahr sog'inchi ketmadi. Buning isboti sifatida quyidagi misrani keltirish mumkin:

Beqaydmen-u xarobi siym ermasman,
Ham mol yig'ishtirur laim ermasmen.
"Kobulda iqomat qildi Bobur"dersiz,
Andoq demangizki, muqim ermasmen.

Shu tufayli Bobur Hindistonni zabt etgan dastlabki kunlaridan boshlab Movarounnahrlik shoir, sozanda, bastakor,

xonanda, miniatyurachi rassomlarni o‘z oldiga taklif etadi va ularning yetib kelishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak Bobur Mirzo O‘rta asrlar davrining jahoniy miqyosli davlat arbobi va sarkardasi bo‘lishi bilan birga o‘ziga xos betakror noyob, iste’dodli shoir hamda madaniyat arbobi edi. Unda siyosat harbiy san’at, tarix, geografiya, toponomika, etnografiya, minerologiya, o’lkashunoslik, psixologiya, tabiatshunoslik, biologiya, geologiya, diniy ahloq, she’riyat va shu kabi ilm sohalari mujassam topganki, bunday keng qamrovli asarni bitish har kimga ham nasib etmagan. Bobur Mirzoning ilmiy merosini yoritib bersha birgina maqolamizning o‘zi kamlik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vatanimiz oltin ostonasi Toshkent tobora chiroy ochmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2020-yil 20-may kunidagi Adiblar xiyoboniga tashrifidagi nutqidan. Xalq so‘zi 2020-yil 21-may.

2. Rahimov J. Buyuk sarkardalarimizning jahon san’atida tutgan o‘rni. Toshkent-2020

3. Boburnoma. O‘qituvchi NMIU.Toshkent-2018

4. Shamsutdinov R., Mo‘minov X.”O‘zbekiston Tarixi”.Akademnashr, Toshkent-2019 saviya.uz\bobur

5. www.wikipedia.com\International contacts Boburi’s empire

6. www.ziyouz.com

7. Shamsutdinov R., Mo‘minov X. “O‘zbekiston Tarixi”. Akademnashr, Toshkent-2019.

8. Mirzo Muhammad Haydar, «Tarixi Rashidiy»

Ergashev A.M. Jamoliddinov S.J. Zamonasining yetuk namoyondasi Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy merosi

Ushbu maqolada buyuk bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Boburning o‘zbek mumtoz adabiyoti va ilm-faniga qo‘shgan ulkan hissasi, o‘zi asos solgan davlatda fan-adabiyotga qaratilgan e’tibor, olimlarning unga nisbatan bildirgan fikrlari shuningdek, Boburning O‘rta asrlar ilm-fanida tutgan o‘rni, o‘zbek adabiyotiga olib kirgan yangiliklari va uning ilmiy merosi haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: “Boburnoma”, “Aruz”, ”Tavorixi Boburiy”, ”Voqeoti Boburiy”, ”Voqeanoma”, ”Tuzuki Boburiy” , “Taboqoti Boburiy”, ”Mubayyin”, Xatti Boburiy

Эргашев А.М. Жамолиддинов С.Ж. Научное наследие Захириддина Мухаммада Бабура, лучшего представителя своего времени

В статье подчёркнуто значение огромного вклада Захириддина Мухаммада Бабура в узбекскую классическую литературу и науку. Особое внимание уделено взглядам учёных того времени, значению науки и литературы в государстве Бабура.

Ключевые слова: “Бабурнома”, “Аруз”, “Таворихи Бабури”, “История Бабуридов”, “Вокеанома”, “Тузуки Бабури”, “Тузуки Бабури”, “Табокоти Бабури”, “Мубайййин”.

Ergashev A.M. Jamoliddinov S.J. The scientific heritage of Zahiriddin Muhammad Babur, a leading representative of his time

In this article , the great contribution of our great ancestor Zahiriddin Muhammad Babur to the Uzbek classical literature and science. The attention paid to science and literature in the country he founded, the views of scholars on him, as well as Babur’s medieval science.

Key words: “Baburname”, “Aruz”, “Tavorixi Boburiy”, “Vokeoti Boburiy”, “Vokeanome”, “Tuzuki Boburi”, “Tabokoti Baburi”, “Mubayyin”, behavior Baburi

Aloyev Ulug'bek Maxmudovich,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi
Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

QONUN HUJJATLARINING KORRUPSIYAGA QARSHI TA'SIRINI BAHOLASHDA KOREYA TAJRIBASINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Qonun hujjatlarining korrupsiyaga qarshi ta'sirini baholash borasidagi Koreya tajribasi alohida ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Transparency International xalqaro reyting tashkiloti tomonidan tuzilgan Korrupsiyani qabul qilish indeksiga (Corruption perceptions index) ko'ra, 2021 yilda 62 ball bilan jahonda 32-o'rinni egallagan ushbu davlatda qonun hujjatlarining korrupsiyaga qarshi ta'sirini baholash bo'yicha alohida o'ziga xos tizim yaratilgan.

Ma'lumot sifatida qayd etish joizki, Koreyaning normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ta'sirini baholash tizimi o'zining bir qator xususiyatlari bilan boshqa davlatlardan ajralib turadi. Quyida buni alohida ko'rib chiqamiz.

Koreyada 2002 yilda Korrupsiyaga qarshi kurashish mustaqil komissiyasi (keyingi o'rinlarda Komissiya deb nomlanadi) tuzilgan paytdan boshlab mazkur Komissiya qonun hujjatlaridagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va ularning oldini olish borasida tizimli tadbirlarni amalga oshirib keladi.

Koreya qonunchiligiga muvofiq, Komissiya tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiyaga ta'sirini baholashning quyidagi turlari mavjud:

1) Qonunlar va qonunosti hujjatlar yoki ular loyihalarining korrupsiyaga ta'sirini baholash.

Qonun yoki qonunosti hujjatini ishlab chiqqan yoki amaldagi hujjatlarga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish bo'yicha loyiha tayyorlagan har qanday davlat organi ushbu Komissiyaga loyiha bilan birga unga tegishli barcha materiallarni yuborishi lozim.

Bunda quyidagi qonunchilik hujjatlari loyihalarini korrupsiyaga qarshi ta'sirini baholashdan o'tkazish talab etiladi: amaldagi qonunlar va ularning loyihalari, Prezident, Bosh vazir Farmonlari, vazirliklarning qarorlari hamda ularning loyihalari.

Albatta, bu o'rinda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan ularning loyihalarini korrupsiyaga ta'sirini baholash usullari bir-biridan farq qiladi.

Jumladan, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining korrupsiyaga qarshi ta'sirini baholash uchun loyihani ishlab chiqqan davlat organi yoki idorasi har bir manfaatdor tashkilot bilan kelishadi va unga taaluqli barcha materiallarni ilova qilgan holda tegishli loyihani Komissiyaga taqdim etadi.

Komissiya loyihaning qabul qilinishi munosabati bilan korrupsiyaga olib kelishi mumkin bo'lgan barcha omillarni, shuningdek korrupsiyaviy xavf-xatarlarni ham baholaydi.

Komissiyaga qonunchilik bilan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini baholashni samarali amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida keng vakolatlar berilgan.

Jumladan, loyihani ko'rib chiqish jarayonida Komissiya lozim deb topsa, istalgan amaldagi normativ-huquqiy hujjatni ko'rib chiqish vakolatiga ham ega.

Baholash yakunlanganidan so'ng Komissiya uning natijalari to'g'risida manfaatdor tashkilotlarni xabardor qilishi va normativ-huquqiy hujjat loyihasidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha tegishli tavsiyalar ishlab chiqishi hamda ularga taqdim etishi mumkin.

Amaldagi qonun hujjatlarining korrupsiyaga qarshi ta'sirini baholashda esa, dastlab Komissiya tomonidan baholashning o'rta yoki uzoq muddatga mo'ljallangan rejasi ishlab chiqiladi.

So'ng Komissiya davlat hokimiyatining markaziy va mahalliy organlaridan zarur bo'lgan materiallarni so'rab oladi. Ushbu materiallardan Komissiya qonun

hujjatlarining korrupsiyaga qarshi ta'sirini baholash jarayonida foydalanadi.

Komissiya ilgari o'tkazilgan baholash natijasida aniqlangan korrupsiyaga moyil bo'lgan sohalar, ommaviy axborot vositalari orqali jamoatchilik o'rtasida keng muhokama qilingan alohida korrupsiya jinoyatlari yuzasidan ham baholash o'tkazishi mumkin.

Tegishli tavsiyalarni o'z ichiga olgan baholash natijalari Komissiya tomonidan manfaatdor davlat organlariga ko'rib chiqish va normativ-huquqiy hujjatlarga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritishda foydalanish uchun yuboriladi.

2) Ma'muriy tartib-taomillarni o'z ichiga olgan qoidalarning korrupsiyaga qarshi ta'sirini baholash.

Baholashning ushbu turi ma'muriy tartib-taomillarni belgilash vakolatiga ega davlat organlarining amalda bo'lgan qoidalari (direktivalar, qoidalar, yo'riqnomalar, nizomlar) yuzasidan o'tkaziladi.

Bunda Komissiya ma'muriy tartib-taomillarni o'z ichiga olgan qoidalar qabul qiluvchi davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi, ularning o'zlari tomonidan baholash o'tkazilishini tashkillashtiradi, ularga uslubiy jihatdan rahbarlik qiladi, bu borada tegishli qo'llanmalar taqdim etadi.

Shu bilan birga, quyidagi holatlarda amaldagi ma'muriy tartib-taomillar qoidalarining korrupsiyaga qarshi ta'siri bevosita Komissiya tomonidan baholashdan o'tkazilishi ham mumkin:

– ilgari korrupsiyaga ta'siri baholangan ma'muriy tartib-taomil qoidasiga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish bo'yicha loyiha ishlab chiqilsa;

– davlat organining tarkibiy tuzilmasiga tegishli o'zgartirishlar kiritilsa.

Mazkur holatlarda manfaatdor davlat organlari o'z tashabbuslari bilan yuqorida sanab o'tilgan holatlardan birini asos sifatida keltirgan holda tegishli hujjatning korrupsiyaga qarshi ta'sirni baholash o'tkazish to'g'risida Komissiyaga so'rov yuboradilar. Komissiya tomonidan 40 kunlik muddatda baholash o'tkaziladi va natijasi bo'yicha tegishli tavsiyalarni o'z ichiga olgan xulosa rasmiy so'rov yuborgan tashkilotlarga taqdim etiladi.

Shu bilan birga, Komissiya korrupsiyani keltirib chiqargan va jamoatchilikning e'tiroziga sabab bo'lgan har qanday amaldagi ma'muriy tartib-taomil qoidalarini korrupsiyaga ta'sirini baholashi mumkin.

3) Mahalliy hokimiyat organlarining normativ-huquqiy hujjatlarini korrupsiyaga qarshi ta'sirini baholash.

Mahalliy hokimiyat organlaridagi o'zini o'zi boshqarishni baholash bo'limlari (masalan, yuridik ofis, auditorlik ofisi) mahalliy hokimiyat organlari tomonidan qabul qilingan va normativ-huquqiy hujjat hisoblangan qaror yoki qoidalarning korrupsiyaga qarshi ta'sirini baholash vakolatiga ega.

Bundan tashqari, Komissiya quyidagi holatlarda mahalliy davlat hokimiyati organlarining hujjatlarini korrupsiyaga qarshi ta'sirini baholashdan o'tkazish huquqiga ega:

– mahalliy davlat hokimiyatining so'roviga binoan;

– jamoatchilik tomonidan mahalliy darajada korrupsiya bilan bog'liq holatlar ko'payganligi yuzasidan e'tirozlar bildirilsa yoki aholi shov-shuvli mahalliy korrupsiya jinoyatlarini bartaraf etish choralarini ko'rishni talab qilsa.

Yuqoridagilardan tashqari, mahalliy hokimiyat organlarining hujjatlari yuzasidan o'tkazilgan baholashlarda mahalliy o'zini o'zi boshqarishning baholash bo'limlarida bir-biriga qarama-qarshi xulosalar mavjud bo'lganda ham mahalliy hokimiyat rahbari Komissiyaga korrupsiyaga qarshi ta'sirni baholash haqida murojaat qilishi mumkin.

Shuningdek, muayyan ma'muriy hududiy birlikda mahalliy hokimiyatning normativ-huquqiy hujjati bilan bog'liq bo'lgan shov-shuvli korrupsiya jinoyatining sodir etilishi ham Komissiya tomonidan baholash o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, hech qanday asos bo'lmasa ham Komissiya mahalliy hokimiyat organining har qanday normativ-huquqiy hujjatini korrupsiyaga qarshi ta'sirini baholash vakolatiga ega.

4) Davlat xizmatini o‘tash bilan bog‘liq tashkilotlarning qoida va nizomlarini korrupsiyaga qarshi ta’sirini baholash.

Koreyada mahalliy davlat hokimiyati organlarining hujjatlari singari davlat xizmati bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday tashkilot o‘z ichki qoidalarini mustaqil ravishda baholash tizimi amal qiladi.

Bunday qoidalarning (ustav, ichki qoidalar va nizomlar) korrupsiyaga qarshi ta’siri davlat xizmati bilan bog‘liq tashkilot rahbarining iltimosiga ko‘ra Komissiya tomonidan ham baholanishi mumkin.

Koreyada Komissiya tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarni yuqorida sanab o‘tilgan 4 ta turining korrupsiyaga qarshi ta’siri 4 ta asosiy yo‘nalishdan kelib chiqqan holda baholanadi. Ushbu asosiy yo‘nalishlarni muvofiqlik, bajarilishi, ma’muriy tartib-taomillar va korrupsiyani nazorat qilish hisoblanib, ularning har biri 11 ta mezon asosida baholanadi.

Baholash mezonlarini samarali qo‘llash maqsadida Komissiya tomonidan har bir mezon uchun alohida maxsus nazorat savollar ro‘yxati (checklist) ishlab chiqilgan bo‘lib, uning yordamida amaldagi qonunchilik hujjatlarida va ular loyihalarida mavjud bo‘lgan korrupsiyani keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan omillar o‘rganiladi.

Demak, Koreyadagi normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ta’sirini baholash mexanizmidagi muhim jihatlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin:

– baholashdan o‘tkaziladigan hujjatlar doirasi keng bo‘lib, bunda qonunlardan tortib, qonunosti hujjatlar, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlarining hujjatlari hamda davlat xizmat bilan bog‘liq tashkilotlarning ichki hujjatlari ham baholashdan o‘tkazilishi talab etiladi;

– baholash o‘tkazish alohida maxsus davlat organi hisoblangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mustaqil komissiya tomonidan o‘tkazilib, unga baholashni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha keng vakolatlar berilgan;

– baholash o‘tkazish huquqi maxsus vakolatli davlat organidan tashqari maxsus malakaga ega bo‘lgan professional subyektlarga ham berilgan.

Aloyev U.M. Qonun hujjatlarining korrupsiyaga qarshi ta’sirini baholashda Koreya tajribasining o‘ziga xos jihatlari

Ushbu maqolada Koreyaning Korrupsiyaga qarshi kurashish mustaqil komissiyasi va boshqa tashkilotlar tomonidan amaldagi qonun hujjatlari yoki ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ta’sirini baholash turlari va bu boradagi amaliyoti tahlil qilingan. Tahlil natijasida qonun hujjatlarining korrupsiyaga qarshi ta’sirini baholashning o‘ziga xos jihatlari ajratib ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: korrupsiya, ta’sirni baholash, korrupsiyaviy xavf-xatarlar, qonunlar, qonun loyihalari, ma’muriy tartib-taomillar, davlat organi, baholash o‘tkazish huquqi, jamoatchilik muhokamasi va b.

Алоев У.М. Особенности опыта Кореи по оценке антикоррупционного воздействия законодательства

В статье проанализированы виды оценки и опыт воздействия действующих актов законодательства в сфере коррупции Независимой комиссии противодействия коррупции Кореи. По итогам анализа перечислены особенности оценки воздействия на коррупцию действующих актов законодательства.

Ключевые слова: коррупция, оценка воздействия, коррупционные риски, законы, проекты законов, административные процедуры, государственный орган, право проведения оценки, общественное обсуждение.

Aloev U.M. Specific aspects of the Korean experience in assessing the anti-corruption impact of legislation

This article analyzes the types of assessment of the impact of existing legislation on corruption by the Independent Anti-Corruption Commission of Korea and experience in this area. Based on the results of the analysis, the features of assessing the impact of existing legislative acts on corruption are indicated.

Key words: corruption, impact assessment, corruption risks, laws, draft laws, administrative procedures, public authority, the right to conduct an assessment, public

Isamutdinov Ravshan Raxmonovich,
O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Kotibiyati Saylov qonunchiligi va zamonaviy texnologiyalar bo‘yicha o‘quv markazi direktori o‘rinbosari

“XAVFSIZ HUDUD”NI TA’MINLASH BO‘YICHA MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO‘STLIGI DAVLATLARI TAJRIBASI

Bugungi kunda dunyoda fuqarolarning tinchligi va osoyishtaligini saqlash, ularning istiqomat qiladigan hududida emin-erkin yurishini ta’minlash dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bu borada MDH davlatlari tajribasini o‘rganish foydali hisoblanadi.

Avvalombor, hudud xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha MDH davlatlari tajribasiga to‘xtalab o‘tishdan oldin, tarixga biroz nazar tashlaydigan bo‘lsak, XX asrning ikkinchi yarmida kichik bir hududda xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha **Sobiq sovet ittifoqi davlatlarida** militsiya bilan bir qatorda jamoatchilik imkoniyatlaridan samarali foydalanish bo‘yicha yaratilgan tajriba bir-biriga o‘xshash hisoblangan.

Jumladan, Sobiq sovet ittifoq davrida xavfsizlikni biror-bir hududda ta’minlash bo‘yicha “Ko‘ngilli xalq drujinachilari” muhim rol o‘ynagan.

1991 yilda Sobiq sovet ittifoqi parchalanib, yangi davlatlar o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng aholi osoyishtaligini ta’minlash bo‘yicha tarixiy an’analarni saqlab qoldi.

Xususan, hozirgi vaqtda ayrim MDH davlatlari tomonidan kichik bir hudud xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha tarixiy an’analar asosida tizim ishlab chiqilgan.

Bu borada Markaziy Osiyoda joylashgan davlatlar tomonidan hudud xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha tarixiy qadriyatlardan kelib chiqqan holda o‘ziga xos milliy tizim ishlab chiqilgan bo‘lib, bu borada **Tojikiston** va **Qozog‘iston Respublikalari** jamoatchilik vakillari sifatida ko‘ngillilar yordamidan foydalanib kelmoqda.

Masalan, **Tojikiston Respublikasining** “Militsiya to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra, davlat organlari, tadbirkor, muassasa, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolar militsiyaga jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashishda yordam berishga majburligi belgilangan.

O‘z navbatida, 2016 yilda Tojikiston Respublikasi bo‘yicha 73 ta drujin shtabi tashkil qilindi. Bu shtablar hududiy ichki ishlar organlariga bevosita bo‘ysunib, doimiy ravishda nazorat qilinadi.

Mavjud ma’lumotlar tahliliga ko‘ra, tashkil qilingan shtablarda 17 010 nafar ko‘ngillilar ichki ishlar organlariga jinoyatchilikka qarshi kurashishda va jamoat tartibini saqlashda ko‘maklashib kelmoqda.

Mazkur ko‘ngillilar tomonidan bevosita 141 ta, ularning yordami bilan esa 41 ta jinoyat ochildi. Shuningdek, ko‘ngillilar tomonidan 5749 ta ma’muriy huquqbuzarlik aniqlandi. Shulardan 521 ta huquqbuzarlik mayda bezorilik, 1 041 ta jamoat joylarida spirtli ichimliklar iste’mol qilish, 83 ta mayda o‘g‘rilik, 485 ta yo‘l harakatini buzishlarni tashkil qiladi. 846 nafar fuqaroni shaxsni aniqlash uchun hududiy ichki ishlar organlari olib borgan. Shu bilan birga, qidiruvdagi 10 nafar jinoyatchi ko‘ngillilar tomonidan ushlandi [1].

2016 yilda ko‘ngillilar tomonidan uchastka militsiya inspektori bilan hamkorlikda pasport rejim qoidalarni buzganlik 1 747 ta, 155 ta noqonuniy yoqilg‘i savdosi bilan shug‘ullanish, 1 265 ta boshqa ma’muriy huquqbuzarlik holatlari aniqlangan bo‘lib, 1 029 nafar giyohvand va spirtlikka ruju qo‘ygan shaxslar doimiy yashash joyidan tekshirilgan.

O‘z navbatida, ko‘ngillilar 1 234 ta oilaviy nizolarda qatnashgan. Ichki ishlar vazirligi va mahalliy davlat organlari tomonidan 500 dan ortiq ko‘ngillilar pul va qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlangan.

Shu bilan birga, **Qozog‘iston Respublikasi** hukumati tomonidan ham ko‘ngillilar xizmatidan foydalanish borasida o‘ziga xos tajriba yaratilgan bo‘lib, bu borada Qozog‘iston Respublikasining 2004 yil 9 iyuldagi “Fuqarolarning jamoat tartibini saqlashdagi ishtiroki to‘g‘risida”gi 590-sonli qonun qabul qilingan.

Mazkur qonunda fuqarolarning jamoat tartibini saqlashdagi huquqlari, vakolatli tashkilotlar bilan hamkorlik mexanizmlari,

vazifalari va majburiyatlari aks ettirilgan.

Bugungi kunda mavjud ma'lumotlarga ko'ra, jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashishda Qozog'iston Respub-likasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan 3 546 ta birlashmalar tashkil qilingan bo'lib, ularda 30 mingdan ortiq ko'ngilli xalq drujinniklari ko'maklashib kelmoqda. Respublikada huquqni muhofaza qiluvchi organlariga ko'maklashuvchi ko'ngillilar ko'ngilli xalq drujinniklari deb nomlanadi.

Shuningdek, respublikada turli nomdagi otryad va birlashmalar tashkil qilingan bo'lib, bularga "Sarbaz", "Sakshi" va "Yoshlar"larni keltirish mumkin. "Sarbaz" 1 314 ta otryaddan iborat bo'lib, mazkur otryadlarda 7 mingga yaqin fuqarolar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga asosan qishloq xo'jalik sohasida yordam berib keladi. Ushbu otryadlar xizmat davomida qoramol-fermer xo'jaliklarida sodir bo'ladigan jinoyatlar, ya'ni chorvachilik o'g'riligiga qarshi kurashish va uni oldini olishda ichki ishlar organlariga ko'maklashib keladi [2].

Bundan tashqari, "Yoshlar" deb nomlangan 143 ta student otryadlari tashkil qilingan bo'lib, ushbu otryadlar tarkibida 2430 nafar student a'zolari faoliyat olib boradi.

2017 yilda ko'ngillilar yordami bilan 1027 ta jinoyat ochilgan. 14 mingdan ortiq ma'muriy huquqbuzarlik aniqlashda ichki ishlar organlariga ko'ngillilar ko'maklashgan [3].

Shuningdek, 2017 yil davomida jinoyatchilikka qarshi kurashish va jamoat tartibini saqlashda faol ishtirok etgan 830 nafar ko'ngilli drujinniklar umumiy qiymati 5,5 mln tenge miqdorda hukumat tomonidan rag'batlantirilgan. Xuddi shuningdek, mahalliy ijro organlari tomonidan jamoat tartibini saqlashda faol ishtirok etgan fuqarolar umumiy qiymati 25 mln. tenge miqdorida rag'batlantirilgan.

Bundan tashqari, 2017 yilda iyun oyida Ostona shahrida o'tkazilgan Xalqaro EXPO-2017 ko'rgazmasi doirasida "Xavfsiz va qulay poytaxt" dasturi qabul qilindi. Unga ko'ra, mahalliy ichki ishlar organlari "Ko'ngilli xalq drujin" loyihasini ishlab chiqdi. Loyihaga ko'ra, jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashishda 2 mingdan ortiq ko'ngillilar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ko'maklashdi. Shuningdek, 500 dan ortiq oliy ta'lim muassasasi studentlari yordamlashdi [4].

Shu bilan birga, ko'rgazma davomida ichki ishlar organlari bilan ko'ngilli fuqarolar jinoyat ko'p bo'ladigan joylarda patrullik qilindi. Unga ko'ra, Ichki ishlar organlari tomonidan grafik tuzilib, kuni, vaqti belgilandi. Xizmat davomida ko'ngillilarga ichki ishlar organlari tomonidan yo'nalish marshruti, ko'krak nishon, «Politsiya komekshisi» nomli guvohnoma berilgan.

O'z navbatida, ko'rgazma davomida, ko'ngillilar tomonidan 700 dan ortiq fuqaro ichki ishlar organlariga shaxsini aniqlash uchun olib borilgan, 400 dan ortiq ma'muriy huquqbuzarlik aniqlangan [5].

Tahsinga loyiq tomoni hukumat tomonidan olib borilgan islohotlar natijasida, Xalqaro EXPO-2017 ko'rgazmasi tadbiri davomida, hech qanday ko'ngilsiz hodisa va jinoyatlar sodir etilmagan.

Qozog'iston, Tojikiston Respublikalari singari **Rossiya Federatsiyasida** ham mikrohududda jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikni barvaqt oldini olishda Sobiq sovet ittifoqi davridagi jamoatchilik vakillari imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha tajribadan kelib chiqqan holda tizim yaratilgan.

Jumladan, fuqarolar biror-bir mikrohududda (o'zini o'zi boshqarish organlari) jamoat tartibini saqlashda turli ko'rinishlardagi jamoatchilik birlashmalari, jamiyatlar, kengashlar, komissiyalar, seksiyalar, markazlar, tuzilmalar kabilarga ixtiyoriy ravishda birlashib, ko'ngilli sifatida o'z faoliyatlarini olib bormoqdalar.

Xususan, ma'muriy hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda jamoatchilikning ishtiroki hamda Rossiya Federatsiyasida politsiyaga ko'maklashuvchi jamoatchilik tuzilmalarini to'rt guruhga ajratish mumkin:

1. Jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash sohasida bevosita huquqni muhofaza qilish funksiyasini bajaruvchi jamoatchilik tuzilmalari – tartibni saqlash tayanch punktlari, ko'ngilli xalq drujinachilari, kazaklar jamiyati;

2. Korxona, muassasa va tashkilotlar-

ning mehnat jamoalari negizida tashkil etilgan jamoatchilik tuzilmalari – komissiyalar, seksiyalar, kengashlar, markazlar;

3. Yashash joylarida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi tarzida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashga ko'maklashish uchun tuzilgan jamoatchilik tuzilmalari – mavzelar qo'mitalari, ota-onalar qo'mitalari, jamoatchi tarbiyachilar;

4. Muayyan masalalarni ko'rib chiqish va qaror qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan jamoatchilik yurisdiksiyaviy organlari – ma'muriy komissiyalar, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar [6].

Bugungi kunda Rossiya Federatsiyasiga jamoat tartibini saqlashda ko'maklashuvchi jamoat tuzilmasi sifatida mamlakat hududida keng faoliyat olib boruvchi va rivojlanib kelayotgan tuzilmalardan biri xalq drujinachi hisoblanadi.

Jumladan, Rossiya Federatsiyasida xalq drujinachilari jamoat birlashmalari quyidagi yo'nalishlarida faoliyat olib bormoqda:

a) Jamoat tartibini saqlashda ichki ishlar organlari va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlariga yordam ko'rsatish;

b) Qoidabuzarlik sodir etilganida ogohlantirish va to'xtatishda hududiy xalq drujinlarini tashkil qilish;

v) Favqulodda vaziyatlarda jamoat tartibini saqlashda qatnashish;

g) Huquqiy bilimni targ'ib qilish va jamoat joylarida xulq-atvor normalarni qonunchilikka mosligini aniqlashtirishlardan iborat [7].

Xalq drujinachi jamoat birlashmasi Rossiya Federatsiyasida tarixan shakllangan jamoatchilik tuzilmasi bo'lib, mamlakat qonunchiligida ularning huquq-tartibotini ta'minlash bo'yicha faoliyatini yangicha sharoitda tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslari yaratilgan.

Rossiya Federatsiyasi tarkibidagi subyektlar tomonidan yuqoridagi qonunlariga ko'ra, hududiy ichki o'ziga xos milliy xarakterdagi normativ-hujjatlari ishlab chiqilgan.

Mavjud ma'lumotlar tahliliga ko'ra, Rossiya Federatsiyasida 6,8 mingdan ortiq xalq drujinachi jamoat birlashmalari mavjud bo'lib, ularda 143,3 ming nafar fuqaro faoliyat olib bormoqda. Shuningdek, xalq druji-nachilari tomonidan bevosita 2015 yilning 6 oyi davomida 3154 ta jinoyat ochilgan va 109 mingdan ortiq ma'muriy huquqbuzarlik aniqlangan. Shu bilan birga, 87 mingta huquqbuzar ushlangan bo'lib, shulardan bevosita 1,9 mingtasi jinoyat sodir etganligi uchun qo'lga olingan [8].

Xalq drujinachi bu jamoat birlashmasi bo'lib, uning a'zolari drujinniklar deb nomlanadi. Rossiya Federatsiyasida drujinachilar faoliyati ko'ngilli rahbar tomonidan boshqariladi. Rahbar jamoat birlashmasi a'zolar ichidan mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan kelishilgan holda saylanadi. Shuningdek, rahbar haqidagi ma'lumot hududiy ichki ishlar organlarida saqlanadi.

Shu bilan birga, xalq drujinachilar faoliyatini Rossiya Federatsiyasi tarkibidagi subyektlarning davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarida tuziladigan muvofiqlashtirish organlari (shtab tuziladi) tomonidan boshqarib boriladi. Muvofiqlashtirish organini tashkil qilish va faoliyat yuritish tartibi bo'yicha Rossiya Federatsiyasi tarkibidagi subyektlarning qonunchiligiga ko'ra amalga oshiriladi.

Ayni paytda, Rossiya Federat-siyasining 1995 yil 19 maydagi "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi FZ-82-sonli Federal Qonuniga ko'ra, xalq drujinachilarni tashkil etish, ro'yxatdan o'tkazish, tugatish va qayta tashkil etish talablari ushbu qonunda belgilangan.

Bundan tashqari, shuni alohida ta'kidlash joizki, mamlakatda tashkil qilingan xalq drujinachilari jamoat birlashmasi jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi yo'nalishi, tarkibi, toifasi bo'yicha turlicha nomlanib kelmoqda. Jumladan, "Avtomobil yong'in o'chiruvchisi", "Pensionerlar", "Aka va singil", "Yoshlar xavfsizlik xizmati" ijtimoiy harakati, "Patrul", "Buvilar kengashi" kabilarni tashkil qilmoqda. Bu xalq drujinachilari Rossiya Federatsiyasidagi subyektlarning jinoiy kriminogen vaziyatiga ko'ra tuziladi.

Targ'ibot-tashviqot ishlarini yoritish, a'zolar sonini oshirish hamda davlat bilan fuqarolar o'rtasidagi hamkorlikni

kuchaytirish maqsadida, xalq drujinachilari o'zining alohida Internet veb saytlariga ega. Xususan, www.shtab58.ru sayti Rossiya Federatsiyasining Penza viloyatida tashkil qilingan xalq drujinachi jamoat birlashmasi faoliyatini doimiy ravishda targ'ib qilib keladi.

Rossiya Federatsiyasidagi xalq drujinachi jamoat birlashmasiga ishga qabul qilish bo'yicha bir qancha talablar belgilangan. Xususan, politsiyaga xalq drujinniki sifatida xizmat qilish uchun fuqarolarga davlat tomonidan quyidagi talablar qo'yilgan:

- 18 yoshga to'lgan bo'lishi;
- anketa to'ldirishi;
- xizmat faoliyati bo'yicha yozma rozilik berishi;
- ish faoliyati yoki hayot tajribasiga ega bo'lishi;
- sudlanganlik holati qoniqarli bo'lishi;
- doimiy ro'yxatga ega bo'lishi;
- Rossiya Federatsiyasi fuqaroligini qabul qilgan bo'lishidan iborat.

Yuqoridagi talablarga javob bergan fuqaro tekshiruvdan o'tadi va ishga qabul qilinadi. Agarda qo'yilgan talablarga hujjatlar-ni o'rganish jarayonida biror-bir kamchilik aniqlansa, fuqaroga rad javobi beriladi.

Ko'ngilli drujinnik sifatida xizmatga qabul qilingan fuqarolar o'quv dasturi yordamida o'qitiladi. Xususan, hududiy ichki ishlar organlari tomonidan tasdiqlangan dastur asosida kuch ishlatish va jamoat tartibini saqlashda birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha bilim va ko'nikmalar beriladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan ham xalq drujinachi jamoat birlashmalari faoliyatiga oid bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan:

- Rossiya Federatsiyasi IIVning 2014 yil 18 avgustdagi "Xalq drujinachilarni jismoniy kuch ishlatish va birinchi yordam bilan bog'liq sharoitlarda harakat qilishga tayyorlash masalalari to'g'risida" gi 696-sonli buyrug'i;
- Rossiya Federatsiyasi IIVning 2014 yil 21 iyuldagi "Ichki ishlar organlari va huquq-tartibot jamoat idoralari hududiy ro'yxatini shakllantirish va yuritish tartibi to'g'risida"gi 599-sonli buyrug'i;
- Rossiya Federatsiyasi IIVning 2014 yil 21 iyuldagi "Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar organlari va xalq drujinachilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalalari to'g'risida"gi 597-sonli buyrug'i kabilarni tashkil qiladi.

Bundan tashqari, 1992 yil 15 iyundagi Rossiya Federatsiyasi IIVning "Ichki ishlar bo'limida tergov ishlari faoliyatini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" gi 197-sonli buyrug'i qabul qilingan bo'lib, mazkur hujjatda tergovchilar ish faoliyatida fuqarolardan ko'ngilli yordamchi olish mumkinligi belgilab berilgan.

Bugungi kunda jamoatchilik vakillarining jamoat tartibini saqlash va jinoyat-chilikka qarshi kurashish bo'yicha asosiy normativ hujjat Rossiya Federatsiyasining 2014 yil 2 apreldagi "Jamoat tartibini saqlashda fuqarolarning ishtiroki to'g'risida"gi FZ-44-sonli Federal Qonuni hisoblanadi. Mazkur Federal Qonun 5 ta bo'lim va 28 ta moddadan iborat.

Qonunning 2-moddasida asosiy tushunchalar berilgan.

Masalan, jamoat tartibini saqlashda fuqarolarning ishtirok etishi tushunchasi "ichki ishlar organlari va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarga shaxsning hayoti, sog'lig'i, sha'ni, mulkini, jamiyat va davlat manfaatlarini jinoiy va boshqa noqonuniy hujumlarlardan jamoat joylarida sodir etilishidan himoya qilishda yordam ko'rsatish" deganda mazmunda yoritilgan.

Xalq drujinachi esa, jamoat tartibini saqlash, himoya qilishda ichki ishlar organlari va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlari, davlat hukumati organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlik qiladigan jamoat birlashmasi hisoblangan.

Shuningdek, xalq drujinniki – xalq drujinachi a'zosi, uning tarkibida jamoat tartibini saqlashda qatnashuvchi Rossiya Federatsiyasining fuqarosidir.

Shu bilan birga, **Belarus Respublikasida** ham Rossiya Federatsiyasiga o'xshash tizim joriy etilgan bo'lib, unga ko'ra kichik bir hududda jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikni barvaqt oldini olish bo'yicha "Ko'ngilli xalq drujina"lar huquq-tartibot organlariga yaqindan ko'mak beradi.

Belarus IIV ma'lumotlariga ko'ra,

respublikada jamoat tartibini saqlashga ko‘maklashuvchi 450 ta ortiq tashkilotlar mavjud bo‘lib, ularda deyarli 5 700 nafar ko‘ngilli fuqarolar jamoatchilik asosida faoliyat yuritadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda MDHning ayrim davlatlar tomonidan biror-bir kichik hudud xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha mavjud xavf-xatarlardan kelib chiqib, o‘ziga xos milliy tizimi yaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Тожикистон Республикасининг 2004 йил 17 майдаги №41-сонли “Милиция тўғрисида”ги Қонуни. 6-модда. http://mvd.tj/index.php/ru/zakony-respubliki-tadzhikistan/5412-zakon-respubliki-

2. Дружинники всегда начеку. http://www.newsfactory.kz/27165.html

3. Казахстане возрождают добровольные народные дружины к выставке EXPO-2017 .https://regnum.ru/news /2255600.html

4. https://mail.kz/ru/news/kz-news/dobrovolnaya-narodnaya-druzhina-vyshla-na-ulicy-astany-v-pomoshch-policii

5. Спиртли ичимлик истеъмол қилиш, қуриш қоидаларини бузиш, жамоат жойларида тамаки маҳсулотларини истеъмол қилиш, майда безорилик, ноқонуний миграция, республика ҳудудида бўлиш қоидаларини бузиш, пиёдаларни йўллардан ўтиш қоидаларини бузиш, тунгги вақтларда аҳоли яшаш жойларида шовқин-сурон қилмаслик

6. Н.Ф.Попова, Л.И.Овчинникова. К вопросу привлечения общественных объединений к охране общественного порядка // Российский следователь – 2006 - № 10. – С. 39-40.

7. Россия Федерациясининг 2014 йил 2 апрелдаги “Жамоат тартибини сақлашда фуқароларнинг иштироки тўғрисида”ги ФЗ-44-сонли Федерал Қонуни, 12-модда.

8. По материалам протокола заседания Правительственной комиссии по профилактике правонарушений от 23.09.2015

9. Народные дружины: люди предлагают помощь милиции не на словах, а на деле. https://www.pervadmin.gov.by/narodnyie-druzhinyi-lyudi-predlagayut-pomoshh-miliczii-ne-na-slovax,-a-na-dele

Isamutdinov R.R. “Xavfsiz hudud”ni ta’minlash bo‘yicha Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlari tajribasi

Mazkur maqolada ayrim Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) davlatlarning kichik bir hudud xavfsizligini ta’minlashdagi tajribasi o‘rganilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda “Xavfsiz hudud” tamoyilini joriy qilishda MDH davlatlarining milliy tajribasi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: xalq drujinachilari, jinoyatchilik, jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarlik, ko‘ngilli.

Исамутдинов Р.Р. Опыт Содружества Независимых Государств в обеспечении «Зоны безопасности»

В статье рассмотрен национальный опыт и опыт некоторых стран Содружества Независимых Государств (СНГ) в обеспечении безопасности небольших территорий, проанализирована практика реализации в Узбекистане принципа «Зоны безопасности».

Ключевые слова: народная милиция, преступность, охрана общественного порядка, правонарушения, волонтерство.

Isamutdinov R.R. Experience of the Commonwealth of Independent States in ensuring the "Safe area"

This article examines the experience of some Commonwealth of Independent States (CIS) countries in ensuring the security of a small area. The national experience of the CIS countries in implementing the principle of "Safe Zone" in Uzbekistan was also analyzed.

Key words: people's militia, crime, maintaining public order, delinquency, volunteering.

Kurbanova Munisa Akbaraliyevna,
teacher of the department of "Learning languages"
University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan

USE OF INTERACTIVE METHODS AND THEIR CLASSIFICATION

Introduction

In the developed period, the interactive methods proposed by the teaching methodology in the process of organizing the lesson using non-traditional methods are based on their high effectiveness in the educational process. Accordingly, the basic concepts of teaching in teaching methods are developed and the use of interactive methods is carried out through these issues. There are many of them, the most important of which are [2]:

a) Interactive methods are action-based and encourage students to act and be active, in which process the teacher must be the right organizer.

b) interactive methods are based on results, in which students participate as subjects of learning activities, the purpose of the lesson should be achieved;

c) a key indicator of successful learning, the result of which is aimed at developing students' thinking skills and the ability to creatively solve practical problems, to find a free and independent way in scientific and practical problems, thereby together interactive methods should be material based on thinking;

d) the educational issue should be a unit of educational activity. Of all the other issues that arise in life, it is a learning tactic that differs in that it focuses primarily on mastering the ways of thinking and acting, rather than on changing its subject, but on changing the subject itself [1];

e) the process of educational activity is the student's efforts to solve educational problems in the form of the transfer of their actions in the content of the external subject to the internal mental appearance (internalization), the type of personal knowledge, skills and the formation of skills;

f) the acquisition of cognitive skills and abilities - these are mental actions, which are performed by the individual in the form of a form based on external means, and as a result of learning activities, reorganized subject-based subject consists of actions.

Teaching based on attitudes and movements of learning activities is called this interactive teaching method [3]. An important role is played by the student and the teacher, who do not read as a separate subject, but work together with the group, discuss and discuss issues with each other.

Methods

In the research process, we used analysis, synthesis methods (in order to highlight the importance of using interactive methods in the organization of lessons and to identify the most effective and therefore widely used types of newly introduced interactive methods). We also use the classification method (to explain the importance and types of interactive methods introduced and recommended by scientists in the examples and the lessons and tasks that need to be considered in the lesson), the system method (research materials to for plash) [6]. Induction and deduction methods have also been used in part.

Results

The interactive method is a joint creative and productive activity of teachers and students, not only the process of individual collaboration, but also the emergence of the process of cognitive research. The teacher should always keep in mind that it is important to always include the "teacher-student" system, not only in the direction of active learning, but also in the direction of active learning, without asking questions on their own. .

The following interactive methods are active methods with their effectiveness and fun: heuristic conversation; method of debate; mental attack; round table.

Method of heuristic conversation

One of the methods of interactive teaching is **heuristic conversation**, which in Latin means "collect, seek" [2]. This method of conversation is based on an ancient Greek view of a teaching system called the Socrates conversation. In this way, skilful questioning is directed and the reader is directed to find the correct answer to the question asked independently. The difference between this method of teaching and Socrates' is that it is widely used. But there are also aspects of its absolute similarity, the function of which, according to its description, is chosen to direct the reader to skilfully ask questions by actively thinking about them. By its very nature, heuristic dialogue is a collective thinking or conversation, a conversation as a seeker of a solution to a problem. In methodology, therefore, this method is considered to be one of the problem-based teaching methods, and the heuristic conversation is no different from the previous one from the so-called problem-seeking conversation. The methodology draws an individual quantitative boundary between them. If a heuristic conversation only applies to one element of a particular topic, the problems may be different. However, there are differences in this situation, if in practice the conversation is made real, it is impossible to notice this invisible difference between "only one" and "many" problems in the classroom: the conversation between teacher and audience turns into a multi-question conversation and the relevant conversation goes unnoticed. But now this is another method of teaching, which will be explained in the description of the next method. The point is that a thought-provoking search in a conversation becomes a team search, and in the search for a solution to a problem, the exchange of ideas, different options, conclusions between them, cooperation and consensus activate each other. Logically, this method is considered as an interactive teaching method.

The questions asked to turn a conversation into a heuristic conversation are also subject to conditions that other problem-based teaching methods follow. In the process of becoming a heuristic conversation, however, it is necessary to implement one of the interactive teaching methods [8] that caused the problem situation.

Method of debate

Nowadays, the "**debate**" interactive teaching method is widely used to organize the teaching content, and the quality is noticeable.

The discussion method looks like a heuristic conversation, or rather a specially programmed free theoretical question is discussed, usually starting as a heuristic conversation by asking a question. It is a norm in the classroom that it is always debated. Debate is a dialogic form of activity, the creation of a fierce struggle [2], a conversation, between different opinions. The exchange of ideas does not go as consistently and weightily as in a normal conversation, while in a debate the collision of one idea with another has a somewhat nervous appearance. A distinctive feature of the debate is that the idea of the debate is that those who argue actively think or prove the point with evidence. Debate and reasoning are understood to be causal connections in activities, an approach proposed by L.S.Vygotsky, but those who examined speech activity did not dwell on it, especially those who did not analyze the interdependence of thinking and dialogue in problematic debate.

Usually, thinking gives rise to an answer to the argument of the complainant in the debate, so it is assumed that different opinions give rise to the argument. As a result, the situation is quite the opposite: the debate activates the notion that the debate generates the idea, and the discussion debates provide a mastery of the masterpiece as a product of thinking. The interdependence of such debate and thinking is shown in the research of the famous psychologist A.K.Markov.

Method of mental attack

The method of "**mental attack**" has not yet been widely used as a teaching method in the practice of higher education,

this method is the result of the management system [6], as well as scientific research. It is widely used in economic management activities, in particular. The importance of this method is that, in the opinion of experts, the ideas that come directly to the brain in search of an answer to the problem, assumptions include random comparisons, as well as sudden, existing, necessary and unnecessary connections. A random sentence recorded on a dictaphone is then used to carefully analyze the ideas, especially those that are close to the interesting method of mental attack, and then to ask and discuss a deeper question. There is a golden rule of mental attack - do not doubt any of what the participants say during the conversation, but give them complete freedom of expression. Such freedom allows one to behave calmly, not to be ashamed of "group opinion," not to be afraid to put oneself in an awkward position. In this case, unexpected, but necessary, really intense thoughts arise. That is why a mental attack is organized. How can this method be used in higher education? It should be noted that the range of possibilities is not sufficient to apply in all types of teaching. But the mental attack method can be used to explain the difficulties of solving a problem. For example: some economic problems (wage arrears, voluntary tax payments of enterprises, etc.), in sociology (interpretation of the rating of political activity) in pedagogy (the conflict between morality and immorality), in psychology, the laws of mental development and education [9]. educational practices, military situations in the military field and measures to protect society from danger, etc.

Discussion

An important point to consider when organizing the learning process using interactive methods is the need to pay attention to the content of the task. Attention should be paid to the fact that the content of the task is different from the traditional forms of teaching. For example, assigning a group the task of obtaining a syllabus for a particular paragraph in a textbook is the exact opposite of the current educational requirement, as each student is able to do it on his or her own, independently. Research shows that simply setting a problem in a non-standard way encourages students to get help from each other, to know the opinions of others, and, as a result, to form a common opinion of the group. For example, students could be divided into small groups and asked to solve a small problem and create a system of answers.

At the end of the lesson it is necessary to organize the solution of the given problem on the basis of solutions of small problems of groups. As a result, it is possible to solve a complex problem in one lesson and involve more students in it.

Conclusion

When teaching the subjects in the curriculum, it is necessary to take into account the topics on which it is advisable to organize interactive lessons. This involves the use of one of the types of interactive sessions that will help you achieve the objectives of each session. For an interactive lesson to be effective, it is important to ensure that students know the basic concepts and background information on the topic before starting a new lesson. It is important to keep in mind that interactive learning takes more time for students to work independently than traditional learning.

Used literatures

1. Abdukodirov A.A., Ishmukhamedov R., Pardaev A. Innovative technologies in education (practical recommendations for teachers of educational institutions) . – T .: Iste'dod, 2008.-180 p.

2. Akbarova Sh.A. Interactive Method of Teaching article, 2018// http://manzura90.zn.uz/interfaol-metodlar.

3. Badmayev M. Methods of teaching psychology. – M.: Vlados, 2001.

4. National Program of Personnel Training– T., 1997.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
6. Khaydarov F., Khalilova N.Methods of teaching psychology. – T.: Aloqachi, 2007.
7. Law of the Republic of Uzbekistan. On Education. – T., 1992.
8. National Program of Personnel Training– T., 1997.
9. Turdiev N.Sh., Asadov Y.M., Akbarova S.N., Temirov D.Sh. Educational technologies aimed at developing students' competencies in the general secondary education system. // Textbook. (Part I). Tashkent, 2015. – 160 b; B. 5-6 b.

Kurbanova M.A. Use of interactive methods and their classification

The purpose of the research is to highlight the cases in which the use of interactive methods should be emphasized and to identify the types of interactive methods that can be effectively used in the organization of lessons on a planned basis. One of the tasks of the research was to study the use of interactive methods, to identify the differences and similarities of these methods and to illustrate their important factors with examples.

Key words: Interactive teaching methods, heuristic conversation, debate, mental attack.

Курбанова М.А. Использование интерактивных методов и их классификация

В статье изучены интерактивные методы проведения занятий, перечислены виды интерактивных методов, эффективно использующихся в организации плановых занятий, особо выделены случаи, требующие использования интерактивных методов, выявлены различия этих методов, проиллюстрированы важные аспекты их применения.

Ключевые слова: интерактивные методы обучения, эвристическая беседа, дебаты, ментальная атака.

Kurbanova M.A. Interfaol usullardan foydalanish va ularning tasnifi

Tadqiqotning maqsadi interfaol usullardan foydalanishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'lgan holatlarni ajratib ko'rsatish va darslarni reja asosida tashkil etishda samarali qo'llanilishi mumkin bo'lgan interfaol usullarning turlarini aniqlashdan iborat. Interfaol usullardan foydalanishni o'rganish, bu usullarning farqli va o'xshash tomonlarini aniqlash hamda muhim omillarini misollar bilan ko'rsatish tadqiqotning vazifalaridan biri bo'ldi.

Kalit so'zlar: o'qitishning interfaol usullari, evristik suhbat, bahs-munozara, aqliy hujum.

Isoqova Marxabo Zinnatillayevna,
Toshkent «Temurbeklar maktabi» harbiy-akademik litseyi
matematika fani bosh o'qituvchisi

MANTIQIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA KOMBINATORIKA MASALALARINING O'RNI

Har bir avlod maktabining o'z talablari bor. Qadimgi Rim maqolida shunday deyilgan: "Biz maktab uchun emas, balki hayot uchun o'rganamiz". Bu maqolning ma'nosi bugungi kunda ham dolzarbdir. Zamonaviy jamiyat ta'lim tizimiga doimiy o'zgaruvchan sharoitlarda hayotga tayyor, uzluksiz ta'limga, butun umri davomida o'rganishga qodir shaxsni tarbiyalash buyrug'ini talab qiladi.

Insonning ma'naviy qobiliyatlari orasida ko'p asrlar davomida olimlarning diqqat-e'tiboriga sazovor bo'lgan va shu bilan birga, hali ham fanning eng qiyin va sirli predmeti bo'lgan bir narsa bor. Bu fikrlash qobiliyatidir. Biz buni ishda, o'qitishda, kundalik hayotda doimo uchratamiz.

Har qanday real masalada bosh qotirish, aqlni charxlash ya'ni ilm tili bilan aytganda, aqliy harakat, aqliy mehnat qilish kerak. Ma'lumki, muammoni hal qilish va hal qilmaslik mumkin, kimdur uni tezda hal qiladi, kimdir uzoq vaqt o'ylaydi.

Mutaxassislarning fikricha, bugungi kunda maktab o'quvchilarining mantiqiy madaniyati darajasini qoniqarli deb bo'lmaydi. Mutaxassislarning fikricha, buning sababi, ta'limning dastlabki bosqichida o'quvchilarni maqsadli mantiqiy rivojlantirish bo'yicha ishlarning yetishmasligi. Demak mantiqiy fikrlashni rivojlantirish avvalo, bolalikdan bog'cha yoshidan bo'lishi kerak va uni maktab va litseylarda rivojlantirib, takomillashtirish kerak.

Mantiqiy fikrlashning rivojlanishi, har bir kishiga, yoshidan qat'iy nazar, zarurdir. Mantiqiy fikrlash qobiliyati sizni tezroq qaror qabul qilish, mantiqiy zanjirlar yaratish, turli obyektlar orasidagi munosabatlarni topish va natijani qisqa muddatda oldindan belgilash imkonini beradi. Mantiqiy fikrlay olish- bu tug'ma sovg'a emas, balki maxsus tadbirlar, o'yinlar va mashqlar orqali erishiladigan qobiliyatdir.

Psixologiyada tafakkur bilish mumkin bo'lgan narsa va hodisalar o'rtasida mavjud bo'lgan aloqalar va munosabatlarni ochib berish orqali obyektiv voqelikni umumlashtirilgan va vositachilik bilan bilishga qaratilgan aqliy faoliyat sifatida ta'riflanadi.

Mantiqiy fikrlash – inson tomonidan ko'rib, eshitib, bilib, his qilib va anglanib turgan borliq, voqelik yoki taassurotlarning boshqalar uchun ham tushunarli tarzda tafakkur etilishini anglatuvchi tushunchadir. Mantiqiy fikr yuritish qobiliyati barcha sog'lom insonlarga xosdir. Insonning bilish faoliyati uchun mantiqiy fikrlash universal xarakterga ega. Tafakkur ko'p qirrali, murakkab, shu bilan birga, bir butunni tashkil etadigan aqliy jarayondir. Mantiq deganda insonlarning kundalik faoliyatida, munosabatlarida, tartibli, aniq, asosli, ya'ni mantiqiy o'ylay olishi tushuniladi. Barcha insonlarning fikrlash qonuniyatlari bir xil bo'lganidan turli tillardagi so'zlarning ma'nosini tushuna olamiz. Mantiqiy fikrlash insonning ilmiy va amaliy faoliyati sohasida muhim ahamiyat kasb etadi. Mantiqiy fikrlashning olam va undagi voqea-hodisalar, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning mohiyatini teran anglash va shu asosda hayotni to'g'ri tashkil etish borasidagi o'rni beqiyosdir. Mantiqiylik-tafakkurning, yozma va og'zaki nutqda fikrlash qonunlariga amal qilish jarayonidir. Bu jarayonda ayniyat, ziddiyat, inkorni inkor qonunlari o'zaro uyg'un holda namoyon bo'ladi.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish- o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, unga jiddiy e'tibor berilishi kerak. Tafakkur inson bilish faoliyatining eng yuqori shakli, mohiyatan yangi narsani izlash va kashf qilish jarayonidir. Rivojlangan tafakkur o'quvchiga moddiy dunyo qonunlarini,

tabiatdagi sabab-natija munosabatlarini, ijtimoiy hayot va shaxslararo munosabatlarini tushunish imkonini beradi. Mantiqiy fikrlash hayotdagi muvaffaqiyatlarning asosidir. Uning yordami bilan inson har qanday vaziyatni tahlil qilishi va hozirgi sharoitda eng yaxshi harakat yo'nalishini tanlashi mumkin.

Mantiqiy fikrlash yordamida asosiyni ikkinchidan ajrata olasiz, obyektlar va hodisalar o'rtasidagi munosabatlarni topasiz, xulosalar yaratasiz, tasdiqlar va raddiyalarni qidirasiz va topa olasiz.

Jumladan, "Mantiqiy tafakkurning asosiy qonunlari quyidagilar:

1)ayniyat qonuni, 2) ziddiyat qonuni(nozidlik qonuni), uchinchisi mustasno qonuni, 4) yetarli asos qonuni... bu qonunlar to'g'ri fikrlashning zaruriy shartidir. Har qanday to'g'ri fikr aniq, nozid va izchil va isbot qilingan bo'lishi kerak"[1]

Insoniyat tarixida mavjud matematik qarashlar asosida cheksiz ko'p masalalar to'plami tuzilganki, ularning har biri ma'lum ma'noda matematika nazariyasini amaliyotga tadbiq etishga yordam berdi. Yuqorida keltirilgan fikrlarni xulosalab shuni aytish mumkinki, akademik litseylardagi matematik ta'lim davlat ta`lim standartida belgilangan ta`lim mazmuni, maqsadi va strukturasi asosida tashkil etishi; o'quvchilardan matematika fani asoslarining ilmiy elementlari singdirilgan poydevorini shakllantirish; fanga bo'lgan qiziqishlarini uning tabiat va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini keng ma`noda ochib berish bilan orttirish; o'quvchilardan mantiqiy matematik tafakkurni takomillashtirish: ijodiy fikrlash malaka va ko'nikmalarga asos solishga qaratilgan bo'lishi lozim. Buning uchun esa akademik litseylarda matematika fanidan o'qitish ta`limning kam vaqt davomida ko'p bilim berish imkoniyati yaratuvchi ilg'or pedagogik texnologiyalaridan unumli foydalanish kerak.

Masalalarni yechish matematikani o'qitishning muhim tarkibiy qismidir. Masalalarni yechmasdan matematika fanini o'zlashtirishni mutlaqo tasavvur qilib bo'lmaydi. Matematika darslarida masalalar yechish nazariyani amaliyotga tatbiq etishning eng yaxshi va ravon yo'lidir. Shu bilan birga, har qanday matematik masalani yechish, o'quvchining tafakkurini va mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi. Faqatgina quruq matematik nazariya, uning tatbiqlarisiz uzoqqa bora olmaydi. Lekin shuni alohida ta'kidlash kerak-ki matematika fanining har bir mantiqiy qoidasining albatta amaliyotdagi o'rni mavjud. Bu mavjudlikni tadbiqlari faqatgina matematik masalalar yordamida yuzaga chiqadi. Sodda va murakkab masalalar, bilimlarni o'zlashtirishga, olingan bilimlarni mustahkamlash va mukamallashtirishga xizmat qiladi. Matematik masalalar o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning foydali vositasi bo'lib, odatda o'z ichiga "yashirin informatsiya"ni oladi. Bu muammoni hal etish masala yechuvchidan taklif, tahlil va sintez, mustaqil murojaat qilish, faktlarni taqqoslash, umumlashtirish va boshqalarni talab etadi. Masalalarni yechishda matematika faniga bo'lgan qiziqish oshadi. Mustaqillik, erkinlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, maqsadga intilish kabi xislatlar rivojlanadi. O'quvchilarni iqtisodiy, ekologik, mehnat tarbiyasida ham kombinatorikaga oid masalalarning o'rni katta. Kombinatorika masalalari o'quvchilarning fikr doirasini kengaytirishga yordam beradi. Ularni o'z shahrining, qishlog'ining, fermer dehqon xo'jaliklarining hayoti bilan, kishilarning ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligidagi mehnatlari bilan tanishtiradi.

Kombinatorika masalalarni bajarish jarayonida o'quvchilar amaliy jihatdan turli ob'yektlarni, jumladan, matematik obyektlarni solishtirishni, hayotiy tajribalari asosida qulay va sodda dalillar asosida to'g'ri mulohaza yuritishni o'rganadilar.

Bunday masalalar o'quvchilarni nafaqat tayyor algoritmlardan foydalanishga, balki mustaqil ravishda muammolarni hal qilishning yangi usullarini topishga o'rgatadi, ya'ni muammolarni hal qilishning original usullarini topish qobiliyatiga hissa qo'shadi;

Matematikaning bir to'plam elemaentlaridan, talab qilingan shartlarni

qanoatlantiruvchi har xil birlashmalarni (kombinatsiyalarni) tuzish haqidagi masalasini o'rganish sohasi **kombinatorika** deyiladi.

Kombinatorika ehtimollar nazariyasiga kirish deb qaraladi, chunki kombinatorika usullari ehtimollar nazariyasi hodisa voqealarni biror aniq holatda o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Ehtimollar nazariyasida "birlashma" (kombinatsiya) deb aytishning o'rniga "tanlanma" deb aytish qabul qilingan. Kombinatorikada tanlanma o'rinlashtirish, o'rinalmashtirish, gurppalash (guruhlash) ko'rinishda qaraladi.

Kombinatorikaga oid masalalarni yechish o'quvchinig fikrlash tezligini oshirishga, mazmunli fikrlashga, fikrlarning moslashuvchanligini oshirishga, fikrlash chuqurligini oshirishga, fikrlash erkinligi va samaradorligini rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Yuqoridagi fikrlarimizning isboti sifatida kombinatorikaga oid bir masalaning ishlanish bosqichini keltirib o'tamiz.

Ta'rif. Berilgan n ta elementdan m tadan tuzilgan o'rinlashtirishlarda biror element bir necha marta qatnashsa (lekin m martadan ortiq emas), u holda bunday o'rinlashtirishlar takroriy o'rinlashtirishlar deyiladi.

Masalan. $M = \{1,2,3,4\}$ raqamlaridan mashinalar uchun nechta nomer hosil qilish mumkin.

Bu masalani ishlash uchun avvalo berilgan raqamlar to'plamidan takroriy o'rin almashtirishni tuzaylik. Mashinalarni nomerlari 3 ta raqamdan iborat bo'lganligi sababli, ya`ni 4 ta elementdan 3 tadan tuzaylik:

111	112	121	211	113	131	311	114
141	411	222	221	212	223	232	322
224	242	422	333	331	313	133	332
323	334	343	433	444	441	414	144
442	424	244	123	124	213	214	132
134	443	434	344	312	314	142	143
412	413	241	243	421	423	431	432
342	341	321	324	231	234	122	233

Bular 4 ta elementdan 3 tadan tuzilgan o'rinlashtirishlar bo'lib soni 64 ga teng (n=4, m=3).

Ixtiyoriy n ta elementdan m tadan tuzilgan takroriy o'rinlashtirishlar soni

$$\widetilde{A}_n^m = n^m$$

formula[6] bilan aniqlanadi.

Yana bir hayotiy masalaga e'tiboringizni qaratamiz.

Do'konda 3-xil noma'lum konfet mavjud. Konfetlar 3-xil ko'rinishda qutilarga jihozlab joylashtirilgan bo'lib, har bir nomlanishning o'z qutisi bor. 5 ta qutidan saylab tayyorlash buyurtmasini necha xil usul bilan bajarish mumkin?

Yechish: Bu yerda 5 ta elementdan tuzilgan va bir-biridan farq qiluvchi (kamida bitta element bilan) tanlanmalarni tuzish zarur.

Har bir buyurtmani 0 va 1 bilan belgilaymiz(shifrlaymiz). Avvalo birinchi xil konfetdan nechta quti buyurtma bo'lsa, shuncha 1 yozamiz. So'ngra 0 yozamiz. Keyin ikkinchi xil nomlangan konfetdan nechta quti buyurtma bo'lsa, shuncha 1 yozamiz. So'ngra yana 0 yozamiz. Yana uchinchi xil nomlangan konfetdan qancha buyurtma berilgan bo'lsa shuncha 1 yozamiz. Agar ikkinchi yoki uchinchi xil nomlangan konfetdan buyurtma berilmagan bo'lsa, u holda bu fakt ikkita 0 bilan belgilanadi. Agar birinchi yoki ikkinchi xil konfetdan buyurtma berilmagan bo'lsa, u holda bitta 0 yozamiz.

Masalan, buyurtma «birinchi xil konfetdan 2 quti, ikkinchi xildan 1 quti, uchinchi xildan 2 quti» dan iborat bo'lsa, u xolda uni

1 1 0 1 0 1 1

ko'rinishda belgilaymiz (shifrlaymiz).

Agar buyurtma «birinchi xil konfetdan 2 quti va uchinchi xildan 3 quti»dan iborat bo'lsa, uni

1 1 0 0 1 1 1

deb, agar buyurtma «ikkinchi xil konfetdan 4 quti va uchinchi xil konfetdan 1 quti» dan iborat bo'lsa, uni

0 1 1 1 1 0 1

deb belgilaymiz (shifrlaymiz).

Endi har bir shirflangan buyurtma 5 ta 1 va 2 ta 0 larning kombinatsiyasi yoki gruppasi (guruh) dan iborat. Bu takroriy o'rinalmashtirishdan iborat bo'lib bunda 1 son 5 marta 0 esa 2 marta takrorlangan. Bunga

$$P_{n_1,n_2,\dots n_k}=\frac{(n_1+n_2+\dots+n_k)!}{(n_1)!(n_2)!\dots(n_k)!}=\frac{n!}{(n_1)!(n_2)!\dots(n_k)!}$$

formulani[6] tatbiqlab konfet qutilarni mumkin bo'lgan saylashlar sonini

$$P_{5,2}=\frac{(5+2)!}{5!\cdot 2!}=\frac{7!}{5!\cdot 2!}=21$$

deb aniqlaymiz.

Shunday qilib 2- masala yechimi 21 ta usuldan iborat. Bu masalalarni yechish nafaqat o'quvchining mantiqiy taffakkurini rivojlantiradi, balki o'ng va chap miya yarim sharlarini ishlashga majbur qilib, ularni ko'rgazmalilik va obrazli fikrlashga undaydi.

Mehmondorchilik uchun 2 kg olma, 3 kg nok va 4 kg apelsin sotib olindi. 9 ta tarelkaga 1 kg dan meva joylashtiriladi. Mevalarni necha usul bilan joylashtirish mumkin?

Yechish: Belgilashlar qabul qilamiz.

olma – o

nok – n

apelsin – a

tuzish mumkin bo'lgan tanlanmadan bittasini yozaylik:

nnonaaoaa

qolgan tanlanmani uning elementlaridan o'rinlarini almashtirib hosil qilish mumkin.

Demak, takroriy o'rinalmashtirishlarni hisoblash zarur.

Biz qarayotgan holatda n=9 n_1=2 n_2=3 n_3=4; $n=n_1+n_2+n_3$

Shuning uchun mevalarni 9 ta tarelkaga joylashtirish usuli soni

$$P_{2,3,4}=\frac{(n_1+n_2+n_3)!}{n_1!n_2!n_3!}=\frac{9!}{2!3!4!}=1260$$

Masala. Do'konga 10 xil daftar keltirildi. Miqdori 12-ta bo'lgan daftarlar tanlanmasini nechta usul bilan tanlash mumkin ? Miqdori 8 ta bo'lsachi?

Yechish: Masala shartiga ko'ra takroriy guruhlash (kombinatsiya)larni hisoblash kerak. Bu jarayon o'quvchini albatta fikr yuritishga miyaning ikkita yarim shar faoliyatini birdan ishlashga majbur qiladi

$$\overline{C_n^k}=P_{k,n-1}=\frac{(k+n-1)!}{k!(n-1)!}$$

formulaga asosan[6] k=12 n=10

$$\overline{C_n^k}=\frac{(12+10-1)}{12!(10-1)!}=\frac{21!}{12!9!}=293930$$

xuddi shunday

$$\overline{C_{10}^8}=\frac{(8+10-1)!}{8!(10-1)!}=\frac{17!}{8!9!}=24310$$

6-masala. Agar bitta raqam bir necha marta takrorlanishi mumkin bo'lsa, 0,1,2 raqamlardan nechta to'rt xonali son tuzish mumkin?

Yechish: 0,1,2 raqamlardan $\overline{A_3^4}$ ta to'rt xonali sonlar tuzish mumkin. Lekin tuzilgan to'rt xonali sonlardan birinchi raqami 0 bo'lganlari 4 xonali son bo'lmaydi. Demak tuzilgan takroriy o'rinlashtirishlardan 0 bilan boshlanuvchilar miqdorini ayirib tashlash zarur. 0 bilan boshlanuvchilar esa 0,1,2 raqamlardan tuzilgan takroriy tanlanmalar 3 xonali sonlardan iborat bo'ladi. Bunday sonlar miqdori $\overline{A_3^3}=3^3$

Demak,

$\overline{A_3^4}-\overline{A_3^3}=3^4-3^3=81-27=54$

Mavzuning amaliyot uchun ahamiyati shundan iboratki, "Algebra va matematik analiz asoslari" o'qitish texnologiyasi asosida o'quvchilar matematik modellar tuzishni bayon etdi. Bunda amaliy, tadbiqiy masalalar ko'rib o'tildi. Jumladan hayotdagi to'lov hujjatlari, avtomobillarni nomerlash, shaxsiy

va boshqa hujjatlarni nomerlash, juda zarur bo'lgan masalalar yechish ko'rsatib o'tildi. Bu esa ishimizning amaliy ahamiyatini ko'rsatadi.

Kombinatorika elementlari ehtimollar nazariyasi va matematik statistika masalalarini yechishda muhim ahamiyatga ega. Bizning kundalik hayotimizda amaliy masalalarni yechishda kombinatorikadan foydalanishga to'g'ri keladi. Masalan: telefon (uyali telefon)larni nomerlashda; avtomobillarni nomerlashda; hisob-kitob varaqlarini nomerlash va shu kabi masalalarni yechishda kombinatorikadan keng foydalaniladi. Bu yerda biz shu tipdagi (xildagi) masalalarni yechib ko'rsatdik. Bu masalalarni ishlaganda albatta o'quvchining tafakkuri va mantiqiy fikrlash qobiliyati oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xayrullayev M., Haqberdiyev M. Mantiq.-T.: "O'qituvchi" 1993.
2. Gaimnazarov O.G. Matematikadan amaliy masalalar yechish na'munalari. T.: «Fan", 2006 y.
3. Sharipov M., Fayzixo'jayev D. Mantiq.-T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot, 2004.
4. Rahimov I. Mantiq.-T.: "Universitet", 1994.
5. G'aymnazarov G., Qo'simov S., Gaimnazarov O.G. Iqtisodiyotda matematika. T.: "Fan va texnalogiya", 2008 y.
6. Abduhamidov A.U., Nasimov H.A. "Algebra matematik analiz asoslari" T.: "O'qituvchi", 2007y.

Isoqova M.Z. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda kombinatorika masalalarining o'rni

Ushbu maqolada mantiqiy fikrlashning intellektual salohiyatning oshirishdagi roli va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda kombinatorikaga oid masalalarni yechishning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: mantiqiy fikrlash, kombinatorika, kombinatsiya, tafakkur, ayniyat, ziddiyat, o'rinlashtirish, o'rinalmashtirish, gruppalash.

Исокова М.З. Роль комбинаторных задач в развитии логического мышления

В данной статье объясняется роль логического мышления в повышении интеллектуального потенциала и значение решения комбинаторных задач в развитии логического мышления.

Ключевые слова: логическое мышление, комбинаторика, сочетание, мышление, тождество, противоречие, размещение, замена, группировка.

Isoqova M.Z. The role of combinatory problems in the development of logical thinking

This article explains the role of logical thinking in enhancing intellectual capacity and the importance of solving combinatorial problems in the development of logical thinking.

Key words: logical thinking, combinatorics, combination, thinking, identity, contradiction, placement, substitution, grouping.